

Yoqub Saidov

O'ZBEK ADABIY TILI TARIXI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

Yoqub SAIDOV

**O'ZBEKADABIY
TILITARIXI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 5120100–
Filolgiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishibo'yicha bakalavrlk
bosqichida o'qiyotgan talabalaruchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan

(to'ldirilgan va qayta nashri)

**Buxoro
“Durdona” nashriyoti
2021-yil**

UO'K 811.512.133(091) (075.8)

81.2O'zb-03

S 21

Saidov, Yoqub.

O'zbek adabiy tili tarixi [Matn] : o'quv qo'llanma / Yo. Saidov. -

Buxoro : "Sadridin Salim Buxoriy" Durдона nashriyoti, 2021.

- 168 b.

KBK 81.2O'zb-03

Taqrizchilar:

X.Jabborov, filologiya fanlari doktori, professor;

A. O`razboev, filologiya fanlari doktori

Qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4-oktybrdagi 892-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan

ISBN978-9943-5612-0-5

ANNOTATSIYA

Mazkur o'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbek tili tarixi" fanining o'quv dasturi mavzulariga mos ravishda tayyorlangan. Ayonki, o'zbek filologiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga umumkasbiy fan sifatida o'qitiladigan "O'zbek tili tarixi" kursi "Qadimgi turkiy til", "Eski o'zbek tili va yozuvi", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" va "O'zbek adabiy til tarixi" fanlaridan tarkib topgan. Ushbu qo'llanmada yuqorida sanab o'tilgan fanlar bo'yicha o'qitilgan mavzular ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtirilgan.

Shuningdek qo'llanma "O'zbekiston davlat standarti"ning zaruriy talablariga muvofiq yaratilgan bo'lib, unda qoraxoniylar davri adabiy tili va manbalari, chig'atoy adabiy tili va manbalari, "Devonu lug'otit turk" asarining qiyosiy turkiyshunoslikdagi o'rni, Xorazm yodnomalarining til taraqqiyotidagi roli, Alisher Navoiyning adabiy til rivojidadagi o'rni kabi masalalar zamonaviy tamoyillar bo'yicha yoritib berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmada eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tilining yodgorliklari tavsiflangan, shu tillarda bitilgan yozma manbalar, chunonchi, «Qutadg'u bilig» (Yusuf Xos Hojib), «Hibatul-haqoyiq» (Ahmad Yugnakiy), «O'g'uznoma», «Gulistoni bit-turkiy» (Sayfi Saroyi), «Muhabbatnoma» (Xorazmiy), "Qisasi Rabg'uziy" (Nosiruddin Rabg'uziy) kabi badiiy asarlar; Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi shoirlarning devonlari; Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlari tili va uslubi, ularda leksik va grammatik me'yorlarning belgilanishi, adibning dunyo va o'zbek tilshunosligi taraqqiyotidagi o'rni kabi masalalar; "Devonu lug'otit turk", "Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya" kabi lug'atlar tahlil qilingan; o'zbek tili tarixiga oid muhim va ahamiyatli yozma yodgorliklarning tili hamda uslubi faktik materiallar asosida ishonarli ochib

berilgan; nazarda tutilgan davr o'zbek adabiy tilining leksik, qisman, fonetik hamda grammatik taraqqiyotiga doir ma'lumotlar umumlashtirilgan.

Qo'llanmada yana eski turkiy til davrida yaratilgan yodgorliklar, xususan, XI-XIV asrlar O'rta Osiyo va Oltin O'rda adabiy muhiti yodgorliklarining eski o'zbek adabiy tiliga munosabati masalalari qiyosiy aspektda izohlangan. O'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishiga muhim ulush qo'shgan shoir hamda yozuvchilarning badiiy asarlariga xos lingvistik jihatlar atroflicha yoritilgan.

Shuningdek unda hozirgi o'zbek tili va shevalarining eski turkiy til hamda eski o'zbek adabiy tili, xususan, ularning lug'aviy tarkibiga munosabati, o'zbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, o'zbek tilining qardosh turkiy tillar orasida tutgan o'rni, uning boshqa oila tillari bilan aloqasi kabi masalalar ochib berilgan. o'zbek adabiy tili tarixiga doir mavzular yangi ilmiy fikrlar bilan boyitilgan, ayniqsa, asarlar lug'aviy-badiiy nuqtai nazardan batafsil tahlil etilgan.

АННОТАЦИЯ

Данное учебное пособие подготовлено в соответствии с тем учебной программы предмета “История узбекского языка”, утвержденного приказом Министерства Высшего и средне-специального образования республики Узбекистан. Известно, что преподаваемый, как общепрофессиональный предмет учебного направления бакалавриата узбекской филологии, курс “История узбекского языка” состоит из предметов: “Древний турецкий язык”, “Староузбекский язык и письменность”, “Историческая грамматика узбекского языка”, “История литературного узбекского языка”. Данное пособие обобщило с научной и теоретической точки зрения темы вышеуказанных предметов.

Кроме этого пособие подготовленное в соответствии с требованиями “Государственного стандарта Узбекистана”, соответствуя современным принципам всесторонне освещает литературный язык его источники периода Караханидов, место произведения “Девону луготит турк” в сравнительном тюрском языкознании, роли в развитии общества языка памятников письменности Хорезмского периода, места Алишера Навои в развитии узбекского литературного языка.

В данном пособии дается классификация памятников старотурецкого и староузбекского языков и письменных источников этих языков, в частности таких произведений “Кутадгу билиг” (Юсуф Хас Хаджиб), “Хибатул-хакаик” (Ахмад Югнаки), “Огузнаме”, “Гулистони бит-туркий” (Сейфи Сараи), “Мухаббатнаме” (Хоразми), “Кисас-и Рабгузи” (Насируддин Рабгузи), поэмы таких поэтов как Атаи, Саккоки, Лутфи; язык и приёмы лирических произведений Алишера Навои, определение лексических и грамматических норм в них проблемы место авторов а развитии мирового и узбекского языкознания; дан анализ таких

словарей как “Девону лугот-ит турк”, “Аттухфатуз закийату филлугатит туркия” всесторонно раскрыта на основе фактических материалов; очень значимые для истории узбекского языка памятники письменности, обобщены лексические, фонетические и грамматические сведения имеющие определённое значение в развитии узбекского языка.

В пособии в сравнительном аспекте комментированы памятники письменности периода старого тюрского языка, в частности проблемы отношений памятников письменности Средне Азии и Золотой Арды XI-XII в веков к старому узбекскому литературному языку. Всесторонне освещены своеобразные лингвистические особенности произведений писателей и поэтов, внесших огромный вклад в формировании и развитии узбекского литературного языка.

Кроме этого в пособии раскрыты и обогащены новыми научными данными проблемами взаимоотношения современного узбекского языка и его диалектов к староузбекскому литературному и старотюркскому языку; в частности словарные взаимоотношения, этапы формирования и развития узбекского литературного языка; места узбекского литературного языка в среде братских тюркских народов, его связь с языками других семей. Темы истории узбекского литературного языка обогащены новыми научными данными и мыслью, дан их всесторонний лингвопоэтический анализ.

SUMMARY

The following manual is prepared in accordance with the themes of the discipline “The History of Language” approved by the decree of The Ministry of Higher and Secondary Special Education.

It is obvious that the discipline of “The History of Language” for Bachelor Degree students of Uzbek philology faculty contains in itself the courses of “Ancient Turkish language”, “Old Uzbek language and writing”, “The Historical grammar of the Uzbek language” and “The history of the Uzbek literary language”. The following manual summarizes the themes taught by the above mentioned courses both theoretically and practically.

Besides, the manual is designed in accordance with the requirements of “Uzbekistan State Standards” and it reveals the issues such as the language and the sources of the literary language during the Karakhanids dynasty, the place of the work “Devoni lugotit turk” in the comparative Turkic studies, the role of Khorezm memoirs in the development of the language as well as Alisher Navai’s role in the development of the literary language in accordance with modern principles.

In the following manual the works of old Turkic language and old Uzbek literary language are classified, manuscripts in above mentioned languages such as “Qutadgu bilig” (Yusuf Khos Khojib), “Hibatul haqoyiq” (Akhmad Yugnakiy), literary works such as “Uguznoma”, “Gulistoni bit-turkiy”(Sayfi Saroyi), “Muhabbatnoma” (Khorazmiy), “Qissasi Rabguziy” (Nosiruddin Rabguziy), poems of Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy’s poems and works, as well as his style, their lexical and grammatical norms, his place in Uzbek and world literature are analyzed. Besides, the book gives thorough analysis of the dictionaries such as “Devoni lugotit turk”, “Attuhfatuz zakiyat fillulugotit turkiya”, the style of the language of the important manuscripts

concerning the history of Uzbek language are revealed through factual materials and the information on the lexical, grammatical, partially, phonetical development of Uzbek literary language of the above mentioned period is generalized.

In the manual there is given interpretation of the issues of the relationship of Uzbek literary language with the manuscripts created during old Turkic language, particularly, in the period of the XI-XIV centuries and during the Oltin Urda literary period in the comparative aspect. The poets and the writers who contributed significantly in the development of the Uzbek literary language are studied and the linguistic features of their works are thoroughly revealed.

Likewise, the manual reveals the problems concerning the relationship between contemporary Uzbek language as well as its dialects and Old Turkic language, particularly, their lexical content, the stages of the development of Uzbek literary language, the place of Uzbek literary language among other Turkic languages and its relation with other language groups. The themes concerning the history of the Uzbek literary language is enriched with new scientific ideas, especially, in detail lexical and literary analysis of the works is given.

Taqrizchilar:

X. Jabborov, filologiya fanlari doktori, professor;

A. O`razboev, filologiya fanlari doktori

Qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligining 2019-yil 4-oktybrdagi 892-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya
etilgan

SHARTLI QISQARTMALAR

AD — Отойи. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчи Эргаш Рустамов). – Т.: Бадий адабиёт, 1958. -200 б; Атойи. Ғазаллар. (нашрга тайёрловчи Суйима Ғаниева) // Ҳаёт васфи. - Т., 1988. -Б. 285-452; Девони Шайхзода Атойи (нашрга тайёрловчи Сайфиддин Рафиддинов). -Т.: Фан, 1991; Девони Шайхзода Атойи (иккинчи нашри). -Т.: Фан, 2008; Атойи. Жондан азиз жонона (нашрга тайёрловчи Эргаш Очилов). - Т.: Шарқ, 2011. -302 б.

AZ – Аттухфатуз закийату филлуғатит туркия (Туркий тил (қипчоқ тили) ҳақида ноёб туҳфа)./Таржимон ва нашрга тайёрловчи Солиҳ Муталлибов. – Т.: Фан, 1968. -280 б.

GT – Сайфи Сарайи. Гулистан бит-турки // Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. I-II. –Т.: Фан, 1966-1971. Т. I. 1966. -649 с.;Т. II. 1971. -777 с.; Сайфи Саройи. Шеърлар. Гулистони бит-туркий / Нашрга Э.Фозилов тайёрлаган. –Т.: Бадий адабиёт, 1968. -257 б.

DTS – Древнетюркский словарь. –Ленинград: Наука, 1969. -676 с.

DLT – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. I-III. –Т.: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. –499 б. Т. II. 1961. -427 б. Т. III. 1963. -461 б.

ML — Навоий. Муҳокаматул луғатайн. Танланган асарлар. 3 жилдли. (Нашрни Ойбек ва П.Шамсиевлар тайёрлаган) –Т.: Фан, 1948. –III жилд. – Б. 185-201.

MN — Хоразми. Муҳаббат-наме // Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV в. I-II. –Т.: Фан, 1966-1971. Т. I. 1966. -649 с.; Т. II. 1971. -777 с.; Хоразмий. Муҳаббатнома / Ўзбек адабиёти. 4 томлик. (Воҳид Зоҳидов таҳрири остида). -Т.: Бадий адабиёт, 1959. -I том. –Б. 160-176.

NAL – Навоий асарлари луғати. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. -791-б.

- SD** — Саккокий. Танланган асарлар. –Т.: Бадиий адабиёт, 1958. –80 б.
- O`TIL** – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-II. –М.: Русский язык, 1981; Т. I. 1981. -631 б.; Т. II. 1981. -715 б.
- O`TIL** – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. Т. I. 2006. -680 б.; Т. II. 2006. -672 б.; Т. III. 2007. -688 б.; Т. IV. 2008. -608 б.; Т. V. 2008. -592 б.
- O`TEL** – 1) Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). -Т.: Университет, 2000. -599 б.; 2) Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). -Т.: Университет, 2001. – 599 б.; 3) Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III (форсча-тожикча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). -Т.: Университет, 2009. -284 б.
- O`N** – Ўғузнома (Б.Исабеков нашрга тайёрлаган). –Т.: Ўзбекистон, 2007. – 40 б.
- O`XShL** – Ўзбек халқ шевалари луғати. –Т.: Фан, 1971. -407 б.
- QB** — Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Текст ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. (Нашрга Қ.Маҳмудов тайёрлаган). – Тошкент: Фан, 1971; Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. (Б.Тўхлиев нашрга тайёрлаган) . –Т.: Юлдузча, 1990. -187 б.

TRANSKRIPSIYA

a – til orqa, lablanmagan, keng unli.

ä – til oldi, lablanmagan, keng unli.

e – til oldi, lablanmagan, o'rta-keng unli.

i – til oldi, lablanmagan, tor unli.

ï – til orqa, lablanmagan, tor unli.

o – til orqa, lablangan, o'rta-keng unli.

ö – til oldi, lablangan, o'rta-keng unli.

u – til orqa, lablangan, tor unli.

ü – til oldi, lablangan, tor unli.

ŋ – portlovchi, burun tovushi, sonor.

KIRISH.

O‘ZBEK ADABIY TILI VA TURKIY ADABIY TILLAR

E‘tibor qaratiladigan masalalar:

1. Turkiy tillarning shakllanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari.
2. Turkiy tillar oilasiga mansub tillar va ularning eng muhim lingvistik xususiyatlari.
3. Turkiy tillar oilasida o‘zbek tilining tutgan o‘rni va unga xos jihatlar.
4. Turkiy tillar lug‘at tarkibidagi umumturkiy so‘zlar va ularning mavzuiy guruhlari
5. Mustaqillik davrida o‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqei va obro‘yi darajasini dunyo hamjamiyatida yana ham ko‘tarish masalasi.

Turkiy, chunonchi, o‘zbek tili eng qadimgi tillardan biri bo‘lib, uning tarixi oltoy davridan boshlanadi.¹ Oltoy nazariyasiga rus sharqshunos olimi V.Radlov asos solgan bo‘lib, uning nazariyasiga ko‘ra oltoy tillarida so‘z boshida va oxirida kelgan undoshlar faqat jarangsiz bo‘ladi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, turkiy tillarning tarixi oltoy tillari bir til bo‘lib tashkil topgan qadimgi oltoy davridan boshlanadi. Oltoy bobo tili (asos til) dastlab ikkiga, ya‘ni tungus-manjur va turk-mo‘g‘ul tillariga ajralgan. Keyinchalik turk-mo‘g‘ul tili mustaqil ikki til, ya‘ni turk va mo‘g‘ul tillari sifatida taraqqiy etgan.

Turkiy tillar tarixidagi keyingi davr xun davri bo‘lib, u meloddan avvalgi uchinchi asrdan melodning to‘rtinchi asrigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. VI-X asrlardagi turkiy til esa qadimgi turkiy til nomi bilan ataladi. VI asrda

¹Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Т.: Ўқитувчи, 1982. –Б.3.

shakllangan qadimgi turkiy til Markaziy Osiyo, Shimoliy Mo'g'liston, Oltoy, Xuroson, Kavkaz, Sharqiy Yevropa, Rossiyaning janubiy qismi, Sibirga tarqalgan butun turkiy urug'lar uchun yagona umumtil edi.¹ Mazkur davrga oid juda ko'plab turkiy-runiy (O'rxun-Enasoy) va turkiy-uyg'ur (VI-X asrlardagi) bitiklar mavjud.²

Ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, O'rta Osiyo, Qozog'iston, Oltoy, Janubiy Sibir, Uraloldi hududlari aholisi bronza davrining 3-2 ming yilligidan boshlab turkiy tilda so'zlashgan. Bu tilga xos umumiy leksik, fonetik va grammatik belgi-xususiyatlar hozirgi turkiy tillarning har birida u yoki bu miqdorda saqlanib qolgan. G'.Abdurahmonovning ta'kidlashicha, turkiy xalqlarning ildizlari miloddan oldin Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan mahalliy tub qabila va urug'lar — qarluqlar, o'g'uzlar, qipchoqlarga borib taqaladi. Har bir turkiy xalq va uning tilining shakllanishida bu urug'larning biri asos bo'lgan³.

Turkiy tillar dunyo tillari tizimida alohida o'ringa ega bo'lib, hozirgi va qadimgi turkiy xalqlar hamda elatlarning tillaridir. Hozirgi davrda turkiy tillarda so'zlashuvchi aholi, asosan, Turkiya, O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Rossiya, Xitoy, Afg'oniston, Eron, Tojikistonda, shuningdek, Bolgariya, Ruminiya, Ukraina, Germaniya, Kipr, Makedoniya, Albaniya, Amerika, Saudiya Arabistoni va boshqa bir qancha mamlakatlarda yashaydi. O'tgan asr oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra, turkiy tillarda so'zlashuvchilarning umumiy soni bir yuz qirq million kishidan ortiqni tashkil etgan.

Eski o'zbek adabiy tilining shakllanishi XIV asr oxirlari va XV asrga to'g'ri keladi. Hozirgi o'zbek adabiy tili, eski o'zbek adabiy tilining davomi

¹Абдурахмонов Ф. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. –Т.: 1999. – Б. 24.

²Sanaqulov U. O'zbek adabiy tilining ilk davrlari (o'quv qo'llanma). –Т.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. –Б. 107.

³ Абдурахмонов Ф. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. -Т.: 1999. –Б. 7.

sifatida XX asrning birinchi choragida qarluq-chigil lahjasining Toshkent va Farg`ona shevalari bazasida shakllandi.

O'zbek tili, aytilganidek, dunyo tillari orasida eng qadimgi tillardan biri bo'lib, u turkiy tillar oilasiga mansubdir. Bu oilaga ozarbayjon, turk, turkman, tatar, boshqird, qirg`iz, qoraqalpoq, uyg`ur, qozoq va boshqa turkiy tillar kiradi. O'zbek tili o'zbek xalqining milliy adabiy tili bo'lib, u bir-biridan fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan qarluq-chigil-uyg`ur, qipchoq va o'g`uz lahjalari hamda ko'plab katta-kichik shevalardan iborat.

O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktyabrdagi «Davlat tili haqida»gi **qonuniga muvofiq**, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbek tili, asosan, O'zbekistonda, shuningdek, Afg`oniston, Tojikiston, Qirg`iziston, Qozog`iston, Turkmaniston, Rossiya, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Xitoy, Amerika, Germaniya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan.

Aytilganidek, o'zbek tili boshqa turkiy tillar, chunonchi, turk, qirg`iz va qozoq tillari bilan bevosita qardoshdir. Hozirgi davrda mazkur tillarda so'zlashuvchi aholi dunyoning turli hududlarida yashaydi. Masalan, turk tili Turkiya, Iroq, Suriya, Eron, Ruminiya, Bolgariya, Gretsiya, Rossiya, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya, Kipr oroli, Makedoniya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. O'tgan asr oxirlarida turk tilida so'zlashuvchilarning umumiy soni ellik besh millionga **yaqin** kishini tashkil etgan.

Turkiy tillar oilasiga mansub qozoq tili turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub tillaridan biri bo'lib, qoraqalpoq va no'g`ay tillari bilan birgalikda qipchoq tillarinnng qipchoq-no'g`ay guruhchasini tashkil etadi. Qozoq tili, asosan, Qozog`iston, Xitoy, O'zbekiston, Rossiya, Mongoliyada, shuningdek, Turkmaniston, Qirg`iziston, Tojikiston, Afg`oniston, Turkiya, Ukraina va

boshqa mamlakatlarda yoyilgan. Qozoq tilida soʻzlashuvchilarning umumiy soni qariyb oʻn million kishini tashkil etadi.

Qirgʻiz tili esa turkiy tillarning qirgʻiz-qipchoq guruhiga mansub tillardan biridir. Ushbu til, asosan, Qirgʻizistonda, shuningdek. Oʻzbekiston, Tojikiston, Qozogʻiston, Xitoy, Afgʻoniston, Rossiya, Pokiston va boshqa hududlarda qoʻllaniladi. Mazkur tilda soʻzlashuvchilarning umumiy soni ikki yarim million kishidan iborat.

Turkiy xalqlar uchun mushtarak obida hisoblangan Oʻrxun-Enasoy tosh bitiklari, Oʻrta Osiyo turkiy xalqlarining umumiy adabiy tili namunalari boʻlgan Mahmud Koshgʻariyning «Devonu lugʻotit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq» kabi oʻlmas asarlar oʻzbek xalqining ham dastlabki yozma yodgorliklari hisoblanadi.

Akademik B.Ahmedov oʻzbek xalqi Oʻrta Osiyoning eng qadimiy **xalqlaridan** biri boʻlib, deyarli uch ming yillik tarixga egaligini aytadi. Anglashiladiki, oʻzbek tilining shakllanganligiga ham shuncha boʻlgan. Chunki xalq bilan uning tili bevosita bogʻliq boʻladi. Oʻzbek xalqi va uning tili turkiy xalqlar oilasiga va tiliga mansub boʻlib, uning shakllanishi turkiy xalqlar va tillarining shakllanish tarixi bilan oʻzaro bogʻliqdir.

Hozirgi shakllangan oʻzbek xalqi va uning tili uzoq oʻtmishda roʻy bergan murakkab jarayonlarning hosilasidir. Oʻzbek xalqi etnik jihatdan juda ham murakkab turkiy xalqlardan biridir. Uning shakllanishida toʻqson ikki turkiy va turkiy boʻlmagan urugʻlarning ishtirok etgani tarixiy, ilmiy va adabiy asarlarda koʻrsatib oʻtilgan.¹

Turkiy tillarning genetik va lisoniy xususiyatlar jihatidan oʻzaro munosabati masalasiga qiziqish juda qadimdan davom etib keladi. Bu oʻrinda turkiy tillarni birinchi marta tasnif qilgan olim Maxmud Koshgʻariy ishlarini

¹ Ахмедов Б. Ўзбек улуси. –Т.: 1992. -Б. 121.

qayd etish o'rinlidir. Turkiy tillar tasnifi bilan qiziqish, ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asrda avj oldi va hozirgacha ko'plab tasniflar vujudga keldi.

Turkiy tillar o'zaro fonetik, leksik, grammatik jihatdan juda yaqin tillardir. Ular til xususiyatlariga ko'ra ko'p jihatdan o'zaro o'xshash, biroq ayrim farqlar ham mavjud. O'zbek tilining asosiy fonetik belgilariga e'tibor qaratilsa, uning ayrim shevalarida boshqa turkiy tillarda bo'lgani kabi 8-9 unli mavjud. Izoh sifatida aytish mumkinki, o'zbek adabiy tilida esa 6 unli qabul etilgan. O'zbek tilining ayrim shevalariga, boshqa bir qancha turkiy tillarga xos bo'lgan lab va tanglay ohangdoshligi (singarmonizm) hodisasi o'zbek adabiy tilida yo'q, urg'u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi.

Turk tilining fonetik o'ziga xosliklari esa shundan iboratki, so'z boshidagi t- d, k-g tovushlari jarangsiz va jarangli tarzida farqlanadi; bu tilda singarmonizm hodisasi mavjud; boshqa turkiy tillardagi «bo'l» fe'li mazkur tilda «o'l» tarzida qo'llaniladi. Qozoq tilining asosiy fonetik xususiyatlari quyidagilardan iborat: 9 unli fonemaga ega, unlilar ohangdoshligi (lab singarmonizmi) va undoshlar assimilyatsiyasi mavjud, so'z urg'usi, asosan, dinamik xususiyatga ega. Qirg'iz tilining asosiy fonetik xususiyatlari esa quyidagilardan iborat: qisqa va cho'ziq unlilar (8 ta qisqa unli fonemaga qarama-qarshi 8 ta cho'ziq unli) mavjud, singarmonizm hodisasi to'liq amal qiladi, so'z boshida y o'rnida j undoshi qo'llaniladi.

Turkiy tillar oilasi uchun xos bo'lgan fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Turkiy tillarda, chunonchi, o'zbek tilida ko'p bo'g'inli so'zlarning miqdori juda oz. Bir bo'g'inli (*o'q, ot, oy* kabi) va ikki bo'g'inli (*bo'ri, yetti, tulki* kabi) so'zlarning miqdori esa ko'p.

2. O'zbek tilida va boshqa turkiy tillarda so'zlar, asosan, uch tovushli bo'ladi: *kun, til, bel, kel* kabi.

3. Barcha turkiy tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilidagi so'zlarning aksariyati ko'p ma'noli xususiyatga ega. Bunga misol tarzida *bosh, tish, uch* kabi umumturkiy so'zlarni aytish mumkin.

4. Turkiy tillarda, chunonchi, o'zbek tilida affikslar so'z oxiriga qo'shiladi: *ezgulik* (ezgu+lik), *ko'zsiz* (ko'z+siz) kabi.

5. Turkiy (o'zbekcha) so'zlarning oxirgi bo'g'inida (*pastki, ostki, ustki* kabi ayrim ko'makchilarni hisobga olmaganda) undoshlar yondosh kelmaydi.

6. Turkiy tillarda, chunonchi, o'zbek tilida so'z boshida undoshlar ketma-ket kela olmaydi.

7. O'zbek tilida va boshqa turkiy tillarda so'zning o'zagi deyarli o'zgarmaydi: *tilni, tilga, tildan, tilsiz, tilli, tillik* kabi.

8. Turkiy tillarda, chunonchi, o'zbek tilida grammatik jins kategoriyasi yuq, prefiks va old qo'shimchalar mavjud emas.

9. O'zbek tili va boshqa turkiy tillar sintaksisi sohasida gap bo'laklari o'zining muntazam joylashish tartibiga ega (aniqlovchi aniqlanmishdan, ega kesimdan oldin joylashadi).

10. Turkiy tillarda, chunonchi, o'zbek tilida bog'lovchilar deyarli yo'q (ularning aksariyati arab va fors tillaridan o'zlashgan).

11. Turkiy tillarning lug'at tarkibi bir-biriga juda yaqin va uning manbasini tub turkiy so'zlar tashkil etadi.

O'zbek adabiy tili o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa turkiy tillardan quyidagilarga ko'ra farq qiladi:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilida singlarmonizm qonuniyati amal qilmaydi, aksariyat turkiy tillar, chunonchi, turk, qozoq, qirg'iz tillarida esa bu qonuniyat amal qiladi.

2. O'zbek adabiy tilida unlilar miqdori oltita (*a, ə, o, o', u, i*) qilib belgilangan bo'lsa, qirg'iz va uyg'ur adabiy tilida esa sakkizta unli (*a, ə, o, θ, u, γ, i, ы; a, e, o, θ, e, u, γ, i*) qabul qilingan.

3. O'zbek va turkman tillarida so'z boshida keladigan *y* tovushi qipchoq guruhidagi turkiy tillarda *dj* va *j* tovushi bilan ifodalanadi: *yo'l – jo'l, yigit – jigit, yo'q – jo'q* kabi.

4. O'zbek adabiy tilida *ch, sh* undosh tovushli ayrim so'zlar qoraqalpoq va qozoq tillarida *sh, s* undoshlari bilan ifodalanadi: *kuch — kush, tish — tis* kabi.

5. O'zbek tilida *k, t* tovushlari bilan boshlanadigan so'zlar o'g'uz guruhidagi turkiy tillar, chunonchi, turk, ozarbayjon, turkman tillarida *g, d* tovushlari bilan beriladi: *ko'z — go'z, til – dil* kabi.

6. O'zbek adabiy tilida *g`* undosh tovushi bilan tugagan so'zlar tatar, boshqird, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq tillarida *v* va *u* undoshlari bilan ifodalanadi: *tog` – tav – tau, bog` – bav – bau* kabi.

Ayonki, tub turkiy so'zlar turkiy tillarning o'z materiali, o'z ona mulkidir. Bu so'zlar turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan barcha tillarda uchraydi. Bu hol turkiy tillar leksikasida bu tillar uchun qadimdan mushtarak bo'lgan umumiy leksik fondni yuzaga keltirgan. Turkiy tillar lug'at tarkibidagi mana shu mushtarak leksika turkologiyada umumturkiy so'zlar deb yuritilmoqda.¹ Ularni quyidagi mavzuiy guruhlar bo'yicha tasniflash mumkin:

1. Inson va hayvon tanasi a'zolarining nomi: *bosh, og'iz, burun, ko'z, tish, qosh, til, bel* va boshqalar. Ushbu so'zlar ayrim fonetik farqlar bilan turkiy tillarning aksariyatida qo'llaniladi. Mazkur so'zlar qadimgi turkiy tilda faol iste'molda bo'lgan. 1969-yilda nashr etilgan “Древнетюркский словарь” (qisq. DTS)da mazkur so'zlar *bosh* (DTS,86), *og'iz* (DTS,21), *burun* (DTS,126), *ko'z*

¹ Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Т.: Фан, 1985. –Б. 83-97.

(DTS,320), *tish* (DTS,563), *qosh* (DTS,431), *til* (DTS,559), *bel* (DTS,93) kabi tarzda keltirilgan.

2. Qon-qarindoshlik va yaqinlik tushunchasini anglatuvchi soʻzlar: *ota*, *er*, *bola*, *dada*, *oʻgʻil*, *togʻa*, *qiz*, *opa*, *singil* va h.k. Qadimgi turkiy tilda ushbu soʻzlar *ata* (DTS,65), *er* (DTS,175), *bala* (DTS,80), *dada* (DTS,160), *ini* (DTS,210), *oʻgʻul* (DTS,364), *tagʻa* (DTS,526), *qiz* (DTS,449), *sihil* (DTS,500) tarzida ifodalangan. “Девону луғотит турк” (qisq. DLT) asarida *apa* soʻzining “ona; opa, egachi” maʼnolari bilan bir qatorda “katta, ulugʻ” maʼnosi ham boʻlganligi aytiladi (qar.: DLT,I,409). *Togʻa* soʻzi Mahmud Koshgʻariy devonida *tagʻay* shaklida berilgan. Lekin uning maʼnosini muallif *amaki* deb izohlagan (DLT,III,256). Navoiy esa “Muhokamatul lugʻatayn” asarida turklar “onaning ogʻa va inisin” *tagʻoyi* deb atashlarini taʼkidlaydi.¹

3. Kishi yoshini ifodalovchi soʻzlar: *yigit/jigit*, *qari//qariya*, *yosh*, *bola*, *goʻdak*, *chol*, *erkak*, *chaqaloq*, *qizcha* va h.k. Qadimgi turkiy tilda isteʼmolda boʻlgan *yigit* (DTS,260), *qari* (DTS,426), *erkak* (DTS,175), *bala* (DTS,80) kabilar hozirgi turkiy tillarning aksariyatida qoʻllaniladi.

4. Geografik joylar va aholi yashash manzillarining nomi: *togʻ*, *yurt*, *qishloq*, *er*, *dengiz*, *yoʻl/joʻl*, *koʻl* va boshq.

5. Vaqt, zamon tushunchasini ifodalovchi soʻzlar: *tun*, *kech* (kech, uzoq), *oy* (oy, bir oy), *bultur*, *kun//gun*, *ilk* (ilk, dastlabki), *tong*, *kecha*, *kechagi*, *bukun*, (bugun), *erta*, *indin*, *chogʻ//choq* (payt, vaqt), *burun*, *ilgari*, *mangu*, *oʻtmish*, *yil* va boshq. Qadimgi turkiy tilda isteʼmolda boʻlgan *tun* (DTS,577), *kech* (DTS,290), *oy* (DTS,25), *bultur* (DTS,105), *burun* (DTS,126), *choq* (DTS,139), *erta* (DTS,182), *ilk* (DTS,208), *yil* (DTS,266), *kechagi* (DTS,291) kabilar aksariyat turkiy tillarda hozirda faol qoʻllaniladi.

¹Навоий. Муҳокаматул луғатайн. Танланган асарлар. 3 жилдли. (Нашрни Ойбек ва П.Шамсиевлар тайёрлаган) –Т.: Фан, 1948. –III жилд. –Б. 185.

6. Hayvon, parranda, hasharot va ular gavda qismlarining nomlari – zoologik terminlar: *ot, qush, tuya (teva), tulki, kiyik, ilon/yilon, echki, sichqon/sichon, tovuq* va boshq. Mazkur guruh doirasidagi soʻzlarni qadimiy turkiy yozma yodgorliklar tili leksikasi bilan solishtirilganda maʼlum boʻldiki, mazkur guruh soʻzlarining ham deyarli barchasi qadimgi turkiy tilda mavjud: *qoplon* (DTS,421), *qoʻzi* (DTS,462), *ot* (DTS,65), *baliq* (DTS,80), *echki* (DTS,162), *eshak* (DTS,185), *it* (DTS,215), *yoʻlbars* (DTS,271), *kiyik* (DTS,294), *qoʻy* (DTS,453), *tulki* (DTS,596), *qargʻa* (DTS,426) va boshq. Mahmud Koshgʻariy *taquq* (tovuq) soʻzini turkmancha soʻz sifatida qayd etadi (DLT,II,330).

7. Oʻsimlik nomlari – fitonimlar: *chechak, terak, arpa, yaproq, bugʻdoy, somon, qamish, don, tariq* va h.k. Mazkur guruh soʻzlarining ham deyarli barchasi qadimgi turkiy tilda uchraydi. Misol sifatida quyidagilarni aytib oʻtish mumkin: *chechak* (DTS,143), *terak* (DTS,553), *arpa* (DTS,53), *oʻt* (DTS,373), *qamish* (DTS,415), *tikan* (DTS,558), *olma* (DTS,36), *igʻoch* (DTS,218), *ekin* (DTS,168), *yantoq* (DTS,293) va boshq. Mahmud Koshgʻariy *saman* (somon) soʻzini chigillar (DLT,I,392), *pamuq* (momiq, paxta) soʻzini oʻgʻuzlar (DLT,I,360), *chigit* (chigit, paxta urugʻi) soʻzini argʻular (DLT,I,337) qoʻllaydigan soʻz sifatida qayd etadi (DLT,I,392).

8. Uy-roʻzgʻor buyumlarining nomi – maishiy leksika: *bolta, qozon, chiroq, ip, oʻchoq, elak, koʻzgu, taroq* va h.k. Mazkur guruh soʻzlarining ham deyarli barchasi qadimgi turkiy tilda uchraydi. Misol sifatida quyidagilarni aytib oʻtish mumkin: *boltu* (bolta; DTS,80), *bichoq* (pichoq; DTS,98), *egar* (DTS,164), *ketman* (ketmon; DTS,304), *koʻzaj* (koʻza; DLT,I,341), *kigiz* (DTS,306), *qop* (DTS,420), *koʻzgu* (DTS,321) va boshq. Mahmud Koshgʻariy *koʻzaj* (koʻza) soʻzini argʻuacha deb izohlaydi.

9. Oziq-ovqat va ichimlik tushunchalarini anglatuvchi soʻzlar: *et* (goʻsht) *suv*, *bol* (bol, asal), *un*, *suv*, *qaymoq* va h.k. Mazkur soʻzlar ham qadimgi turkiy tildagi shakl va mazmunda qoʻllaniladi. Misol sifatida quyidagilarni keltirib oʻtamiz: *et* (DTS,186), *tuz* (DTS,594), *un* (DTS,612), *bol* (DTS,79) va boshq.

10. Tabiat hodisalari va koinot jismlarining nomlari: *yel* (shamol), *bulut*, *yomgʻir*, *muz*, *oy*, *quyosh*, *yulduz*, *borliq*, *kun* (quyosh), *yoz*, *yovdu* va h.k. Mazkur guruhga kiruvchi soʻzlar ham qadimgi turkiy tilda faol isteʼmolda boʻlgan. *El* (DTS,254), *bulut* (DTS,123), *yomgʻur* (DTS,231), *yulduz* (DTS,278), *kun* (DTS,326), *qor* (DTS,422), *yolqin* (DTS,229), *yashin* (DTS,246) kabilarning nazarda tutilgan lugʻat soʻzligida mavjudligi fikrimizni dalillaydi.

Qadimgi turkiy til va eski oʻzbek adabiy tili uchun xarakterli boʻlgan *ev* (uy), *yogʻi* (dushman, yov), *em* (davo), *qapu* (eshik, darvoza), *qamugʻ* (barcha, hamma), *yavuq* (yaqin) kabi soʻzlar hozirgi oʻzbek adabiy tilida isteʼmoldan chiqqan boʻlsa ham, boshqa turkiy tillar, chunonchi, turk tilida qoʻllaniladi.

Turkiy tillar lugʻati ayrim soʻzlarga koʻra farqlanadi. Bunga misol sifatida turk tilida hozirda faol qoʻllanuvchi *yumruk* (musht), *kerpich* (gʻisht), *chabuk* (ildam), *kapi* (eshik), *ev* (uy, xona), *bilgin* (olim), *kendu* (oʻz), *gene* (yana, tagʻin) kabi soʻzlarni aytib oʻtish mumkin. Mazkur soʻzlar qadimgi turkiy til va eski oʻzbek adabiy tilida, chunonchi, Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida esa mazkur leksik birliklar eskirgan, isteʼmoldan chiqqan.

Turkiy tillar oilasi tarkibiga kiruvchi oʻzbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqei va obroʻyi dunyo jamiyatida keyingi yillarda ortib bormoqda. Bu til hozir Amerika, Germaniya, Turkiya, Polsha, Hindiston kabi mamlakatlarning universitetlarida alohida oʻrganilmoqda. U oʻzbek xalqining alohida etnik birlik – elat, xalq, millat sifatida shakllanishida muhim oʻringa ega. Hozirgi davrda

o'zbek tili xo'jalik hayotining barcha sohalarida to'liq amal qiladigan til sifatida rivojlanmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Turkiy tillarning shakllanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari xususida nimalarni bilasiz?
2. Turkiy tillar oilasiga qaysi tillar kiradi?
3. Turkiy tillar oilasiga mansub tillarning eng muhim lingvistik xususiyatlarini aytib bering.
4. Turkiy tillar oilasida o'zbek tilining tutgan o'rni va unga xos jihatlar haqida ma'lumot bering.
5. Turkiy tillar lug'at tarkibidagi umumturkiy so'zlar va ularning mavzuiy guruhlari bo'yicha nimalarni bilasiz?
6. Mustaqillik davrida o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqei va obro'yi darajasini ko'tarish uchun qanday ishlar amalga oshirildi?

**O'ZBEK ADABIY TILINING SHAKLLANISHIDA BOSHQA
TIZIMDAGI TILLARNING O'RNI**

E'tibor qaratiladigan masalalar:

1. Tarixda o'zbek tili aloqada bo'lgan boshqa til oilasiga mansub tillar.
2. O'zbek tili, xususan, uning leksik tarkibiga kuchli ta'sir etgan boshqa til oilasiga mansub tillar.
3. O'zbek adabiy tilining shakllanishida fors va tojik tillarining ishtiroki.

4. O'zbek adabiy tili taraqqiyotida arab tilining o'rni.
5. O'zbek adabiy tiliga rus tilining ta'siri.

O'zbek tili tarixiga nazar solinsa, u murakkab shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bosib o'tganligiga guvoh bo'lish mumkin. O'zbek tili o'tmishda bir qator qardosh bo'lmagan, boshqa til oilasiga mansub tillar bilan ma'lum ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko'ra o'zaro aloqada bo'lgan. Mazkur aloqaning ta'sir darajasi va sifatii ko'rinishi boshqa tizimdagi tillarning har biri bilan turlicha. O'zbek tili aloqada bo'lgan ba'zi boshqa tillar unga, xususan, uning leksik tarkibining o'zgarishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ayrimlarining esa ta'siri sezilarli emas. Shu nuqtai nazardan, o'zbek tili aloqada bo'lgan boshqa til oilasiga mansub tillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. O'zbek tili, xususan, uning leksik tarkibiga kuchli ta'sir etgan boshqa til oilasiga mansub tillar. Bular fors, arab va rus tillaridir. Mazkur tillardan o'zlashgan so'zlar miqdori ancha ko'p bo'lib, ular o'zbek tili leksikasida alohida-alohida lug'aviy qatlamni tashkil etadi.

2. O'zbek tili leksikasida sezilarli iz qoldirmagan boshqa til oilasiga mansub tillar. Xitoy, hind, grek tillari kabilarni shunday tillar jumlasiga kiritish mumkin. O'zbek tiliga mazkur tillardan sanoqli so'zlargina o'zlashtirilgan bo'lib, ular alohida lug'aviy qatlamni tashkil etmaydi¹.

O'zbek tilida kam uchraydigan bu kabi so'zlar jumlasiga hind tilidan o'zlashgan *lak* (yuz ming), *nilufar*, *bibi*, *tovus*, *mo'ltoni* (lo'li); xitoy tilidan o'zlashgan *choy*, *lag'mon*, *shiypon*, *jambul*; mo'g'ul tiliga tegishli *ulus* (xalq), *mergan*, *ko'ragan* (xon kuyovi); qadimgi yunon tilidan arab tili orqali o'zlashgan *marvarid*, *nomus*, *fonus*, *qandil*, *qonun*, *zumrad*, *qaysar* kabilarni aytib o'tish mumkin.

¹ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: Фан, 1985. –Б. 107.

O'zbek tilshunosligida yaratilgan tadqiqotlarda boshqa til oilasiga mansub tillardan o'zlashgan so'zlar, asosan, uch guruhga, ya'ni forsiy, arabiy va ruscha-evropacha so'zlarga ajratilib tadqiq etiladi¹.

O'zbek adabiy tili va fors tili. Forscha-tojikcha so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashishi bir davrning mahsuli emas. Ularning o'zlashishi bir necha tarixiy taraqqiyot davrlari bilan bog'liq. O'zbek xalqi va tilining shakllanishida qarluq, o'g'uz va qipchoq urug'lari bilan birga eronzabon urug'lar (sug'diylar, xorazmliklar, saklar)ning ham hissasi katta bo'lgan. Fors-tojik aholi bilan turkiy aholining ijtimoiy etnik aloqasi tufayli o'zbek tiliga ko'plab forsha so'zlar o'zlashgan. Ma'lumki, somoniylar hukmronligi davrida, ayniqsa, XIII-XIV asrlardan boshlab tojik tilining mahalliy turkiy tillarga ta'siri ortdi, ikki tillilik kuchaydi, shoir va yozuvchilar tojik yoki o'zbek (turkiy) tilida ijod qildilar. Rasmiy hujjatlar ko'proq tojik tilida olib borildi².

Professor E. Begmatovning yozishicha, turkiy urug` va qabila tillari, jumladan, o'zbek xalqi tilining eroniy tillar bilan aloqasi uch davriy xususiyat bilan xarakterlanadi:

1. Turkiy urug`, qabila tillarining qadimiy eroniy qabila va urug` tillari bilan aloqasi va qo'shilishi (qadimiy davrlarda).
2. O'zbek tilining forsiy til bilan (IX–X, XI–XV asrlar) aloqasi.
3. O'zbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi (qadimdan to hozirgacha)³.

Forsiy so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashishida quyidagi omillar muhim rol o'ynagan: a) o'zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo'shni) hududda, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy muhitda yashab

¹ O'sha asar, 113-bet.

² Абдурахмонов Ф. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. –Т.: 1999. –Б. 14.

³ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: Фан, 1985. –Б. 105-106.

kelayotganligi; b) o'zbek-tojik va tojik-o'zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi; v) tojik va fors tillarida ijod qilish an'analarning uzoq yillar davom etganligi; g) Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida fors-tojik tilining alohida mavqega ega bo'lganligi; d) adabiyot, san'at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik¹.

Alisher Navoiy fors-tojik tilining o'zbek xalqining ijtimoiy hayotida tutgan o'rni, ta'siri xususida "Muhokamatul-lug`atayn" asarida quyidagilarni yozganligini eslatib o'tish o'rinli bo'lsa kerak: "... *turkning ulug`din kichigiga degincha, na navkardin begiga degincha sort* (fors — Yo.S) *tilidin bahramanddurlar. Andoqkim, o'z xurd ahvolig`a ko'ra aytaolurlar, balki ba'zi fasohat va balog`at bila ham takallum qilurlar.*"²

Forscha-tojikcha o'zlashma lug`aviy birliklarning qo'llanishi tarixiy asosga egadir. O'zbek tiliga o'zlashgan forscha-tojikcha so'zlarni quyidagi mavzuiy guruhlar bo'yicha tasniflash mumkin:

1. Narsa-buyum nomlari: *sag`ana, parda, toj, taxt, dutor, durbin, xirmon, olov, gavhar, zanjir, belbog`, aroba, zahar, tesha* va boshqalar.

2. Qarindoshlik-yaqinlik tushunchasini anglatuvchi nomlar: *birodar, do'st, farzand, hamroh, oshno, mehmon, mezbom* va boshq.

3. Mansab-martaba va kasb-kor nomlari: *podshoh, shoh, savdogar, dehqon, qalandar, usta, rahbar, sozanda* va h.k.

4. Tabiat hodisalari va koinot jismlarining nomi: *bahor, shabnam, osmon, xurshid* (quyosh), *oftob* va h.k.

5. Qush, parranda va hayvonlar nomi: *xo'roz, ohu* (kiyik), *sher, kaptar, jonivor, ko'rshapalak, to'ti, zog`* (qarg`a) va boshq.

¹ Жамолхонов Х.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. –Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2004. –Б. 55.

² Навоий. Муҳокаматул луғатайн. Танланган асарлар. 3 жилдли. (Нашрни Ойбек ва П.Шамсиевлар тайёрлаган) –Т.: Фан, 1948. –III жилд.–Б. 177.

6. O'simlik, daraxt va ular bilan aloqador tushunchalar nomi: *gul, barg, anjir, anor, paxta, daraxt, xirmon, gunafsha, binafsha, lola, piyoz, karam, sholg`om, sholi* va boshq.

7. Mavhum tushuncha bildiruvchi so'zlar: *dard, armug`on, armon, umid, baxt, pushaymon, anduh, andisha, bahona, gumon, gunoh, mehr* va h.k.

8. Oziq-ovqat va ichimliklar nomi: *osh, non, kulcha, go'sht, guruch, may* va boshq.

9. Diniy tushuncha va tasavvurlar nomi: *xudo, jon, pari, butxona, motam, musulmon, do'zax, dev, afsona, afsun, banda, namoz, payg`ambar, darvesh* va h.k.

11. Odam va hayvon a'zolari nomi: *chehra, siyna, peshona, panja, lab, jigar* va h.k.

12. Belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar: *nozanin, sho'r, guliston, toza, mehribon, nigohbon, dilbar, bemor, dildor, xushtor, xushyor, xandon, kambag`al, parishon, bandi, barno, durdona, baland, past* va h.q.

13. Vaqt, zamon tushunchasi bilan bog`liq so'zlar: *dam* (on, lahza, kez, payt), *hufton, shom, zamon, hafta, bahor, navbahor* va h.k.

14. Shaxs tushunchasini anglatuvchi so'zlar: *yor, go'dak, juvon, beva, banda* (umuman odam, kishi), *yor* va boshq.

15. Joy tushunchasini ifodalovchi so'zlar: *bozor, zamin, saroy, ko'cha, shahar, gulzor, bog`, hovli, biyobon, mozor, maydon, zindon* va h.k.

Tarixiy rivojlanish jarayonlarida o'zlashgan forsiy so'zlarning fonetik qurilishi va leksik ma'nosida o'zgarish u qadar yuz bermagan.

O'zbek adabiy tili va arab tili. Arab tili turkiy tillar, chunonchi, o'zbek tiliga kuchli ta'sir etgan tillardan biridir. Bu ta'sirning xususiyati va sabablari

ayrim ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan¹. Bu ta'sirning boshlanish davri arab xalifaligi hukmronligi bilan bevosita bog`liq. Ayonki, jahon tarixida ulkan iz qoldirgan davlatlardan biri Arab xalifaligidir. Arab xalifaligi davri O`rta Osiyo, Eron, Afg`oniston, Yaqin va O`rta Sharq, Shimoliy Hindiston, Pireneya yarim oroli va Shimoliy Afrika xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida o`ziga xos yuksalish davrini boshlab berdi².

Tarixdan ma'lumki, 650-651-yillardan arablarning O`rta Osiyoga harbiy harakatlari boshlandi. Ular O`rta Osiyo hududlarini bir necha yillar davomida zabt etishga muvaffaq bo`lishdi. Arablar o`z hukmronligi siyosiy negizini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashda islom dinini keng yoyishga va targ`ib qilishga katta e'tibor berdilar. Bu dinning ko`p jihatdan afzalligi, xalqparvarlik ruhi, Alloh oldida barcha teng ekanligi, axloq va intizom nuqtai nazaridan ommaviyligi xususiyatlari mahalliy aholi tomonidan uni qisqa vaqt oralig`ida qabul etishlariga sabab bo`ldi. O`rta Osiyo xalqlari islom dini bilan birga arab yozuvini ham qabul qildilar. Arab tili esa mamalkatning ijtimoiy-madaniy hayotida asosiy o`rinni egalladi. Arab tili faqat islom dinini targ`ib qilish, islom falsafasi va aqidalariga doir g`oyalar, fikr va tushunchalarni ifodalash va diniy ibodat majburiyatlarini bajarish sohasidagina emas, balki davlat idora ishlarida, mamlakatning ilmiy-madaniy hayotida ham hukmron til sifatida qo`llanildi³.

Mazkur ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko`ra turkiy xalqlarning tiliga arab tilidan ko`plab so`z va iboralar qabul qilindi. O`zbek tiliga arab tilidan so`z olish, asosan, o`zbek-arab bilingvizmi davrida (VII-IX asrlarda) kuchli bo`ldi. Keyingi davrlarda esa o`zbek tiliga yangi so`zlar sezilarli darajada qabul qilinmagan⁴. VII-IX asrlar oralig`ida arab tilidan turkiy (o`zbek) tilga

¹Фитрат. Тилимиз / Танланган асарлар. -Т.: Маънавият, 2006. –Б. 124-131; Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форс ва арабча сўзлар / Навоийга армуғон. -Т.: 1968; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Т.: Фан, 1985.

² Ўзбекистон тарихи / Дарслик. –Т.: Янги аср авлоди, 2003. –Б. 142.

³ Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1995. –Б. 93-95

⁴ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Т.: Фан, 1985. –Б. 111.

o'zlashgan so'zlarning miqdori ancha katta bo'lib, ular alohida lug'aviy qatlamni tashkil qilgan. Bir necha asrlar davomida o'zlashgan arabiy so'zlar o'zbek adabiy tilida qo'llanishda davom etdi. Ayniqsa, o'zbek adabiy tili tarixining XIV-XVIII asrlarida ularning iste'mol doirasi ancha kengaydi. Alisher Navoiy asarlari leksikasini maxsus tadqiq etgan olim B.Bafoevning ta'kidlashicha, shoir asarlari tilidagi so'z boyligining taxminan 35-40 foizini arab tilidan kirgan so'z va so'z shakllari tashkil qiladi.¹

Tilshunos Z.Hamidovning statistik hisobiga ko'ra esa "Lison ut-tayr" asari leksikasida 40 foiz lug'aviy birliklar arabiydir.² XVII-XVIII asr yozma yodgorliklaridan biri bo'lgan So'fi Olloyorning "Sabotul-ojizin" asari leksik boyligida 47 foiz so'zlar arabiy ekanligini R.Zohidov ta'kidlab o'tadi.³

O'zbek tiliga o'zlashgan arabiy so'zlarni quyidagi mavzuiy guruhlar bo'yicha tasniflash mumkin:

1. Diniy-afsonaviy tushuncha va tasavvurlar nomi: *malak, ruh, shayton, oshiq, fano, jannat, azon, farishta, mo'min, kofir* va boshq.

2. Ilm-ma'rifat, madaniyat, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq nomlar: *madaniyat, ma'rifat, tarbiya, ilm, qalam, sahna, san'at, sahifa, kitob, rasm, haykal, raqam, rassom* va h.k.

3. Joy, makon va zamon tushunchalarini anglatuvchi nomlar: *Sharq, G'arb, qabr, tabiat, tarix, asr, vatan, vaqt, manzil, mahalla* va boshq.

4. Xususiyat va belgi anglatuvchi nomlar: *ma'shuqa, zolim, mazlum, mal'un, munis, qallob, dohiy, mudhish, harom, faqir, mash'um, aziz, ahmoq* va h.k.

¹ Bafoev B. Navoiy asarlari leksikasi. -Toshkent: Fan, 1983. -157 b.

²Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисан ат-тайр» Алишера Навои: Автореф. дис. ... канд. филол. наук.—Ташкент: 1982.

³ Зоҳидов Р. "Сабот ул-ожизин" асари лексикаси: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2001. -172 б.

5. Antroponim va toponimlar: *Behbudiy, Ka'ba, Majnun, Ehrom, Misr, Nil, Suriya, Sulaymon, Yusuf, Laylo, Ra'no* va boshq.

6. Mavhum tushuncha ifodalovchi so'zlar: *balo, davo, xayol, qimmat, hayot, qadr, hol, la'nat, fikr, ta'sir, nur, ma'no, alam, zulm, darak* va boshq.

7. Mansab, unvon, kasb-hunar va mashg'ullik tushunchalarini anglatuvchi so'zlar: *sulton, olim, jallod, so'fi, mulla, hokim, hakim, tabib, rassom, raqqosa* va boshq.

8. Inson tomonidan yaratilgan narsa-buyumlar nomi: *soat, bino, sham, madrasa, atlas, ovqat, mash'ala* va boshq.

9. Qush, parranda va hayvonlar nomi: *hayvon, maymun, bulbul, mol, qumri* va boshq.

11. Inson va jamiyat tushunchasi bilan bog'liq nomlar: *inson, mizoj, bashariyat, millat, xalq, sinf, oila, saltanat, bashar, jamiyat, ittifoq, inqilob, odam, firqa, hurriyat, avlod* va h.k.

12. Etikaga oid nomlar: *salom, marhamat, hurmat, haqorat, rahmat, takalluf, muhtaram, lutfan, iltifot, shukur* va boshq.

14. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlari: *adabiyot, maqol, hikoya, ilhom, mazmun, marsiya, bob, shoir, tasvir* va boshq.

15. Ijtimoiy-siyosiy terminlar: *inqilob, iqtisod, istiqlol, hukumat, muxolif, muxtor, davlat, islohot, ittifoq, siyosat* va h.k.

O'zbek tilida diniy-axloqiy, mavhum va aniq tushunchalarni, belgi-xususiyat kabilarni ifodalovchi o'zlashma arabiy so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy tushunchalarni bildiruvchi mazkur tilga tegishli lug'aviy birliklar etakchi o'rinda turadi.

O‘zbek adabiy tili va rus tili. Tarixdan ma’lumki, Chor Rossiyasi XIX asrning o‘rtalaridan O‘rta Osiyo hududlarini egallash uchun dastlabki harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Bu harakatning yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo‘ldi:

1. Rossiya engil sanoatini ta’minlab beruvchi arzon xom ashyo bazasi O‘rta Osiyoda mavjud edi. Chor Rossiyasi hukumati shu bois mazkur hududni bosib olish harakatida bo‘ldi.

2. Qrim urushi (1853-1856) tufayli Qora Dengiz bandargohlarining Chor Rossiyasi qo‘lidan ketishi uning iqtisodini tang ahvolga solib qo‘ydi. Qora Dengiz bandargohlarining o‘rnini O‘rta Osiyoni egallash orqali to‘ldirish mumkin edi. Shu orqali Janubdagi muzlamaydigan dengizlarga chiqish va Turkiston bu bosqinchilik yurishlarida plastdarm vazifasini o‘tashi kerak edi.

3. Rossiyaning Yevropa bozorlari bilan raqobat qila olmasligi sababli ishlab chiqarilgan mahsulotlarini sotish uchun O‘rta Osiyo bozorlarini egallashi lozim edi.

4. Rossiyada o‘tkazilgan yer islohotlari tufayli qashshoqlashib qolgan aholini Turkistonga ko‘chirib keltirish va ularni yer bilan ta’minlash vazifasi turgan edi¹.

Shu va boshqa siyosiy, iqtisodiy sabablarga ko‘ra Chor Rossiyasi O‘rta Osiyoni bosqichma bosqich bosib oldi. Mazkur siyosiy voqea Turkiston ijtimoiy hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Hukmron Chor Rossiyasi hukumati o‘z mavqeini mustahkamlash maqsadida mahalliy xalqning madaniy, ma’naviy an‘analari o‘rniga o‘z madaniyati va ma’naviyatini joriy etishga harakat qildi. Asosiy maqsadi mahalliy aholini ruslashtirishdan iborat bo‘lgan mustabid davlat

¹ Ўзбекистон тарихи / Дарслик. –Т.: Янги аср авлоди, 2003. –Б 335-336.

yangi sanoat korxonalari, maorif va madaniyat muassasalarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratdi.

Ular bilan birga yangi tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ham o'zbek tiliga kirib kela boshladi. Rus tilidan va u orqali evropa tillaridan o'zlashgan so'zlar nafaqat mahalliy xalqning jonli so'zlashuv nutqida, balki uning badiiy adabiyoti, ayniqsa, publitsistik asarlari tilida keng qo'llanila boshladi.

Umumruslashtirish siyosati va mahalliy ma'rifatparvarlar (Muqimiy, Furqat, Hamza, Zavqiy, Siddiqiy kabilar)ning targ'ib- tashviqi bois qisqa muddatda bunday so'zlarning miqdori keskin ko'paydi. Tarixiy Oktyabr to'ntarishiga qadar uch mingga yaqin so'z va ibora o'zbek tiliga kirib kelganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan¹. Bu so'zlar ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid edi. Ular orasida, ayniqsa, sanoat korxonalari, xom ashyo va mahsulot nomlari (*zavod, mashina, benzin* kabilar), maorif, madaniyat meditsinaga oid terminlar (*gimnaziya, teatr, vistavka, apteka* kabilar), harbiy va aloqa sohasiga tegishli so'zlar (*armiya, ofitser, pochta, telegraf* kabilar) ko'pchilikni tashkil etadi.

O'zbek adabiy tilining rus va u orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan so'zlar hisobiga boyish jarayoni shunday kuchaydiki, bunday so'zlar o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibida ma'lum bir qatlamni tashkil etdi. Rus tili o'zbek tiliga, ayniqsa, uning leksikasiga katta ta'sir ko'rsatib, unda sezilarli iz qoldirdi.

Tarixdan ma'lumki, mustaqillikka qadar o'zbek tiliga yevropacha lug'aviy birliklar fors-tojik, arab, xususan, usmonli turk va rus tillari orqali o'zlashgan. Chunonchi, fors-tojik tili vositasida grek tiliga oid *musiqa, pul* kabi so'zlar; arab tili vositasida esa grek tiliga tegishli *qandil, jug'rofiya, faylasuf* singari so'zlar o'zbek tilining lug'at tarkibiga kirgan. XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, Yevropa tillariga oid leksik birliklarning o'zlashishida usmonli turk va rus tillari

¹Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан. -Т.: Фан, 1981.

muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur davrda fransuzcha *qo'mondon* (komandir), *vopur* (poroxod) kabi; lotincha *vulqon* kabi; italyanча *po'rtana*, *lava* kabi; grekcha *daftar* kabi; nemischa *polis* (politsiya) kabi so'zlar usmonli turk tili orqali o'zbek tiliga o'zlashdi. Rus tili orqali o'zlashgan so'zlar jumlasiga esa fransuzcha *dekret*, *mashina*, *gramm* kabi; inglizcha *klub*, *tramvay*, *traktor* kabi; nemischa *veksel*, *flot*, *front* kabilarni aytib o'tish mumkin.

Ayonki, arab tilidan o'zlashgan so'zlar orfografiyaning an'anaviy prinsipi asosida, ya'ni so'z va morfemalar qadimda qanday yozilgan bo'lsa, mazkur davrda ham shunday yozilgan. Eski o'zbek yozuvida arabcha so'zlarning yozilishiga juda bilimdonlik va ziyraklik bilan e'tibor berishgan. Arabcha so'zlarning asliga ko'ra xato yozish o'ta savodsizlik hisoblangan. Forscha-tojikcha so'zlar xususida ham shu fikrni aytish mumkin. Lekin bu bilan biz o'zbek adabiy tili tarixida barcha arabcha, forsha-tojikcha so'zlarni xatosiz yozilgan deyishdan uzoqdamiz. Ba'zan an'anaviy imloga rioya qilmaslik holatlarini ham uchratish mumkin.

Rus va u orqali yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarning yozilishida esa juda ko'p imloviy xatolar bo'lib, umumiy qat'iy bir orfografik prinsiplar belgilanmagan edi. Natijada, ayni bir o'zlashgan so'z turli xil imloviy shakllar asosida yozildi. O'zlashmalarning deyarli ko'pchiligi dastlab og'zaki nutq orqali o'tganligi uchun so'zlar talaffuzda qanday aytilgan bo'lsa, yozuvda ham shunday ifodalanib kelindi. Orfografik xatoliklarning yuzaga kelishiga, asosan, quyidagilar sabab bo'ldi: a) o'zbek va rus xalqlari yozuvlarining bir-biridan tubdan farq qilishi; b) ikki tilning fonetik, orfoepik va grammatik xususiyatlaridagi noo'xshashliklar; v) mahalliy xalq orasida rus tilini biladigan mutaxassislarning kamligi; g) matbuot nashrlarida boshqa turkiy xalq vakillarining (totor, ozarbayjon, turk va h.k) ishlashi va boshqalar.

Rus va u orqali yevropa tillaridan o'zbek tiliga o'zlashgan leksik birliklarni quyidagi mavzuiy guruhlar bo'yicha tasniflash mumkin:

1. Vaqt, son-miqdor tushunchalarini ifodolovchi so'zlar: *minut* [r minuta < lat], *million* [r < fr], *mart* [p < lat], *may* [r < lat], *gramm* [p < fr], *desyatina* [p desyatina – botmon, bir gektaga yaqin yer o'lchov birligi], *pud* [p pud – 16 kilogrammga teng og'irlik o'lchov birligi] va h.k.

2. Savdo va moliya sohasiga oid terminlar: *bank* [p < fr < ital], *kapital* [p < lat], *kredit* [p < lat], *pensiya* [p < lat], *veksel* [p < nem] va h.k.

3. Ijtimoiy-siyosiy terminlar: *kompaniya* [p < fr], *mandat* [r < lat], *dekret* [p < fr], *komitet* [p < fr], *sud* [p], *partiya* [p < nem] va boshq.

4. Sanoat va transport sohalariga oid nomlar: *elektr* [p < grek], *mashina* [p < fr], *paroxod* [p], *flot* [p < nem], *texnika* [p < grek], *vagon* [p < ing], *traktor* [p < ing], *avtomobil* [p < grek + lat], *poezd* [p], *tramvay* [p < ing], *radio* [p < lat] va h.k.

5. Narsa-buyum nomlari: *samovar* [p], *lenta* [p], *lampa* [p < fr], *kamzul* [p < fr], *tort* [p < ital], *material* [r < lat], *qandil* [a < grek], *grafit* [r < grek], *albom* [r], *prujina* [r] va h.k.

6. Mansab-martaba va kasb-kor tushunchalarini anglatuvchi so'zlar: *politsiya* [r < nem], *general* [r < lat], *soldat* [r], *patrul* [r < fr], *ministr* [r < fr], *imperator* [r < lat], *doktor* [r < lat], *advokat* [r < lat], *deputat* [r < lat], *pristav* [r], *knyaz* [r] va boshq.

7. Tabiat hodisalarining nomi: *po'rtana* [ital – kuchli dengiz to'lqini; dovul, bo'ron], *vulqon* [r vulkan < lat], *lava* [r < ital] va boshq.

8. Oziq-ovqat va ichimliklar nomi: *tort* [r < ital], *pivo* [r], *konfet* [r], *vino* [p], *konyak* [r] va h.k.

9. Aloqa sohasi leksikasi: *telefon* [r < grek], *telegramma* [r < grek], *telegraf* [r < grek], *konvert* [r], *pochta* [r < polyak] va boshq.

11. Harbiy sohaga oid terminlar: *tank* [r < ing], *front* [r < nem], *pulemyot* [r], *armiya* [r < fr < lat], *shtab* [r < nem] va h.k.

12. O'rin-joy tushunchasini ifodalovchi so'zlar: *restoran* [r < fr], *park* [r < ing], *ambulatoriya* [r < lat], *klub* [r < ing], *port* [r < fr], *post* [r < fr – qorovul turadigan joy], *zal* [r < nem] va boshq.

13. Madaniyat, san'at va maorifga oid terminlar: *rol* [r < fr], *gimnastika* [r < grek], *gazeta* [r < ital], *teatr* [r < grek], *gazeta* [r < ital], *muzika* [r], *kartina* [r], *anketa* [r < fr], *roman* [r < fr], *konsert* [r < ital] va boshq.

14. O'simlik tushunchasini ifodalovchi so'zlar: *pomidor* [r < ital], *kartoshka* [r] va h.k.

Chor Rossiyasi hukumatining umumruslashtirish siyosati rus tilining o'zbek tiliga ta'siri hodisasini keltirib chiqardi va bu jarayonni jadal rivojlanishiga asos bo'ldi. Mazkur tilning o'zbek tiliga ta'siri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlariga ko'ra, bir tomondan, tazyiq va zo'rlik ostida, ikkinchi tomondan, tarixiy zaruriyat natijasida voqelandi.

Ruscha-yevropacha so'zlar ijtimoiy hayotning turli sohalariga tegishli bo'lib, ular orasida, ayniqsa, kundalik turmushga oid so'zlar va ilmiy-texnikaviy terminlar nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. O'zbek tiliga rus tilidan yoki u orqali boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning aksariyat qismi ijtimoiy-siyosiy hayotga oid nomlar va ilm-fan, maorif, pochta-telegraf, transport sohalariga oid terminlardir. XX asr boshlarida rus tilidan o'zlashtirilgan aksariyat so'zlar o'z talaffuzida berilmay o'zbekchaga moslab (poligrafni *paligraf*, stolni *istal* kabi) yozish hodisasi kuchli bo'lgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Tarixda o'zbek tili boshqa til oilasiga mansub qaysi tillar bilan aloqada bo'lgan?
2. O'zbek tili, xususan, uning leksik tarkibiga boshqa til oilasiga mansub qaysi tillar kuchli ta'sir etgan?
3. O'zbek adabiy tilining shakllanishida fors-tojik tilining ishtiroki nimalardan iborat?
4. O'zbek adabiy tili taraqqiyotida arab tilining o'rni qanday bo'lgan?
5. O'zbek adabiy tiliga rus tilining ta'siri masalasini tushuntiring.

O'ZBEK ADABIY TILINING QADIMGI TURKIY DAVRI

E'tibor qaratiladigan masalalar:

1. Qadimgi turkiy til, uning bosqichlari va unga oid bitiktoshlar.
2. *Qadimgi turkiy so'zlar* tushunchasi xususida.
3. Qadimgi turkiy so'zlarning mavzuiy guruhlari.
4. Hozirgi o'zbek adabiy tilining qadimgi turkiy so'zlarga munosabati.

Turkiy tillar tarixining ilk bosqichi meloddan avvalgi asrlarga borib taqaladi va u melodning V asriga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr ilmiy adabiyotlarda eng qadimgi turkiy til nomi bilan yuritiladi va u ikki bosqichga ajratiladi. Birinchi bosqich *oltoy* nomi bilan ataladi va u eramizdan oldingi III asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Keyingi bosqich eramizdan avvalgi III asrdan melodiy IV asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va u *xun* davri deb yuritiladi.

Melodiy VI asrdan *qadimgi turkiy adabiy til* davri boshlanadi. Bu davr adabiy, ya'ni yozma til tarixining ilk bosqichidir, chunki turkiy yozma adabiy til

ana shu kezda yuzaga kelgan. Bu davr to'g'risida so'z ketganda unga yozma adabiy til atamasini qo'shib ishlatganimiz ma'qul.¹

Qadimgi turkiy adabiy til VI-X asrlar adabiy tiliga nisbatan qo'llaniladi. Turkiy tilning eng ko'hna yozuv yodgorliklari o'sha chog'lardan qolgan. Turkiy, xususan, o'zbek adabiy tilining tarixi ham mazkur yozma yodgorliklar tilidan boshlanadi. Bu davr quyidagi bosqichlarga bo'linadi: 1) Ko'k turk yozma yodgorliklari tili (Bu guruhga Birinchi va Ikkinchi turk xoqonliklari davrida yaratilgan ko'k turk yozuvli urxun va enisey, tuva, talas, farg'ona yodgorliklarining tili kiradi); 2) Uyg'ur xoqonliq va davlatlarida yaratilgan ko'k turk, uyg'ur, moniy, brahma, sug'd yozuvlaridagi yozma yodgorliklar tili (turkshunoslik asarlarida "qadimgi uyg'ur tili" deb ham atalmoqda)².

Qadimgi turkiy adabiy tilga oid bitiktoshlar umumiy tarzda O'rxun-Enasoy (Urxun-enisey) yodgorliklari nomi bilan yuritiladi. Ular O'rxun va Enasoy daryolari havzalaridan topilganligi sababli shu nom bilan yuritiladi. Mazkur yodgorliklar run va uyg'ur yozuvida bitilgan. Qadimgi turk runik yozuvi tosh, metall, yog'och va boshqa predmetlarga o'yib bitilgan. Ushbu yozuvda bitilgan yodgorliklar, chunonchi, Kul tigin, Bilga xoqon, To'nyuquq, Ungin, Kuli chur va boshqalar V-X asrlarga mansubdir. Nazarda tutilgan yozuv tashqi ko'rinishidan got (qadimgi german) yozuviga o'xshash bo'lganligi uchun yevropalik olimlar uni runik yozuv deb atagan.

O'rxun-Enasoy yozuvining kelib chiqishi haqida mutaxassislar o'rtasida yagona fikr mavjud emas. Ayrim fikrlarga ko'ra, mazkur yozuv o'z kelib chiqishiga ko'ra sug'd va pahlaviy yozuvlari orqali oromiy yozuviga borib taqaladi. Ushbu yozuv arab yozuvi singari, o'ngdan chapga qarab yozilgan va o'qilgan, 38 belgi (harf)dan iborat bo'lgan, unda tinish belgilari ishlatilmagan.

¹ Содиков Қ. Тарихий лексикография / Ўқув қўлланма. –Т.: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2012. –Б. 6.

² O'sha asar, o'sha bet.

O'rxun-Enasoy yodgorliklariga xos leksik birliklar – qadimgi turkiy so'zlar hozirgi turkiy tillar, chunonchi, o'zbek tilida ko'plab uchraydi. Mazkur davr adabiy tiliga oid so'zlar til ilmi bo'yicha yaratilgan tadqiqotlarda turlicha, chunonchi, *qadimgi turkiy so'zlar*, *qadimgi turkiy leksika*, *turkiy leksika*, *turkiy leksik qatlam*, *umumturkiy leksika*, *tub turkiy so'zlar*, *asl turkiy so'zlar* kabi terminlar bilan atalib kelinadi va turkiy lug'aviy qatlam tarkibida qadimgi turkiy so'zlar mavjudligi e'tirof etiladi, biroq bu tadqiqotlarda *qadimgi turkiy so'zlar* tushunchasi bo'yicha aniq to'xtamli fikr mavjud emas.

Mazkur masalani o'z qatlam va o'zlashma qatlam doirasida izohlash maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, aksariyat ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalarda o'zbek tilining lug'at tarkibidagi so'zlar ikki qatlamga, ya'ni o'z qatlam va o'zlashma qatlamga ajratiladi. Ayrim tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida uchinchi qatlam ham borligi aytib o'tiladi. Chunonchi, o'zbek tili leksikasidagi o'z qatlam va o'zlashma qatlam so'zlarini maxsus o'rgangan, leksik qatlam, o'z qatlam, umumturkiy so'zlar, tub turkiy so'zlar kabi tushunchalarga keng izoh bergan E.Begmatov bunday qatlamni «turk-mo'g'ul leksik parallellari, ya'ni «o'rtoq so'zlar» sifatida belgilaydi.¹

E.Begmatovning fikricha, o'z qatlam leksikasi: 1) tub turkiy so'zlardan; 2) tub turkiy so'zlardan yasalgan o'zbekcha so'zlardan; 3) chet til elementi negizida o'zbek tilining o'zida, o'zbekcha affikslar qo'shib yasalgan so'zlardan va boshqalardan iborat². Aytilgan ushbu ilmiy fikrlar to'g'ri va asosli ekanligi leksikologiyaga oid ko'p ilmiy tadqiqotlarda e'tirof etib kelinmoqda. O'z qatlam tarkibiga kiruvchi tub so'zlarga ham olim alohida izoh berib o'tgan: «*Tub so'z — bu tilning o'ziniki bo'lgan so'zlardir. Uni belgilovchi asosiy mezon, birinchidan, bu so'zning genetik jihatdan o'sha tilniki ekanligi, ikkinchidan esa, uning qadimiy davrlarga oid so'z ekanligidir*».³ Olim tub

¹ Begmatov Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: Фан, 1985. –Б. 56.

² O'sha asar, 57-bet.

³ O'sha asar, 64-bet.

turkiy soʻzlar tarkibiga qadimgi turkiy leksikani ham kiritadi va uni ikkita guruhga, yaʼni hozirgi oʻzbek adabiy tilda qoʻllanayotgan (*ot, ekin, it, iz* kabilar) va hozirgi oʻzbek adabiy tilda ishlatilmaydigan (*ayoq//ayogʻ — kosa, piyola; asru — juda koʻp, ochun — dunyo, olam* kabilar) soʻzlar sifatida tahlil etadi.

E.Begmatov turkiy tillar lugʻat tarkibidagi mushtarak leksikani *umumturkiy soʻzlar* deb ataydi. Bunday soʻzlarning aksariyati hozirgi davr turkiy tillarning deyarli barchasida uchrashini taʼkidlaydi. U umumturkiy soʻzlar termini ikki maʼnoda qoʻllanishini, yaʼni turkiy tilning umuturkiy holatdagi davri uchun mansub leksikani anglatishini va hozirgi qardosh turkiy tillar leksikasida parallel uchrovchi umumiy lugʻaviy fond (oʻxshashlik)ni bildirishini aytib oʻtadi. Uning fikricha, soʻzning umumturkiy boʻlishi soʻzning birdan ortiq turkiy tilda uchrashida emas, balki bu leksikaning aslida bitta (yagona) turkiy manbaga tegishli ekanidadir¹. Umumturkiy soʻzlar tarkibida ikki guruh leksemalar ajralib turadi: 1) koʻpchilik turkiy tillarda saqlangan soʻzlar; 2) baʼzi turkiy tillardagina saqlangan soʻzlar. Hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi turkiy lugʻaviy qatlam ikki muhim tarmoqdan iborat: 1) qadimiy turkiy soʻzlar; 2) qadimiy turkiy soʻzlardan tilning tarixiy taraqqiyoti davomida turli davrlarda hosil qilingan yangi soʻzlar.²

Navoiy asarlari tilida qoʻllanishda davom etgan qadimgi turkiy til va eski turkiy tilga tegishli leksikani struktur-grammatik hamda semantik-funksional aspektlarda tadqiq etgan Sh.Egamova tub turkiy soʻzlarni *asl turkiy katlam* deb nomlagan, qadimgi turkiy til (VII-X) va eski turkiy til (XI-XIV)ga xos leksik birliklarni *qadimgi turkiy soʻzlar* sifatida belgilagan. Olima Navoiy asarlari tilida qoʻllanishda davom etgan 1400 ta qadimgi turkiy til (VII-X) va eski turkiy til (XI-XIV)ga xos

¹Oʻsha asar, 86-bet.

²Oʻsha asar, 94-bet.

leksik birliklarni aniqlagan.¹ A.Abdushukurov «Qisasi Rabg`uziy» leksikasi» nomli monografiyasida *asbig`* (foyda), *chag`bir* (sharob), *yig`ach* (daraxt) kabilarni tub turkiy so`zlar ostida tahlil etib, ularni eskirgan so`zlar, ya`ni arxaizmlar sifatida belgilaydi.²

Aytilganlar bo`yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O`z qatlam tushunchasi keng hodisadir. Shunga ko`ra o`zbek adabiy tilining o`z qatlam so`zlari: a) umumturkiy so`zlardan; b) qadimgi turkiy so`zlardan; v) o`zbekcha so`zlardan; g) dialektal (o`g`uz, qipchoq kabi) so`zlardan iborat.

Umumturkiy so`zlar yoki tub turkiy so`zlar E.Begmatov ta`kidlaganidek, turkiy tillar oilasiga mansub barcha tillarda uchraydi. Masalan, *muz* so`zi turkiy tillarning barchasida mavjud va ayrim fonetik farqlanishni hisobga olmaganda bir xil qo`llaniladi. Mazkur so`zni umumturkiy so`z yoki tub turkiy so`z sifatida belgilash lozim.

2. Qadimgi turkiy so`zlar qadimgi turkiy til (VII-X) va eski turkiy til (XI-XIII)ga xos leksik birliklardir. Qadimgi turkiy so`zlar umumturkiy so`zlar yoki tub turkiy so`zlar tarkibiga kiradi.

4. Qadimgi turkiy so`zlarning ma`lum qismi eski o`zbek adabiy tili davri (XIV-XIX)ning ilk bosqichida qo`llanishda bo`lgan, keyinchalik esa ularning ko`pchiligi iste`moldan chiqqan.

Aytilganlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, *qadimgi turkiy til leksikasi* tushunchasi ostida O`rxun-Enasoy va qisman qadimgi uyg`ur yozma yodgorliklari (ya`ni, VII-XIII asr obidalari) leksikasida mavjud bo`lgan, keyingi davrlarda esa ma`lum sabablarga ko`ra o`zbek adabiy tili leksikasi

¹Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: ЎЗР ФА ТАИ, 2007. -25 б.

²Абдушукуров А. «Қисаси Рабғузий» лексикаси. –Т.: Академия, 2008. –Б. 58-61.

tarkibidan iste'moldan chiqqan, eskirgan so'zlarni tushunish maqsadga muvofiqdir.

Qadimgi turkiy til leksikasi turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining keyingi davrlari leksikasiga asos bo'lgan¹. Hozirgi o'zbek tili so'z boyligining asosiy qismini o'z qatlamga xos leksik birliklar tashkil etadi. Bu qatlam tarkibida muayyan miqdorda qadimgi turkiy til (VII-X) va ilk eski turkiy til (XI-XII)ga oid lug'aviy birliklar ham mavjud. Ularni quyidagi mavzuiy guruhlar bo'yicha tasniflash mumkin:

1. Egulik va ichguliklarning nomi: *suv, et (go'sht), un, bol (asal), qaymoq, sariyog`, qimiz* va h.k.

2. Qon-qarindoshlik atamaları: *ona, qiz, ota, kelin, er, xotin* (qadimgi turkiy tilda *xatun//qatun* so'zi, asosan, xonim ma'nosida; mashhur va obro'li kishilarning xotinlariga nisbatan qo'llanilgan)², *qardosh, orqadosh, bobo* (qadimgi turkiy tilda *baba* tarzida ifodalangan va u *ota* ma'nosida qo'llanilgan)³, *o'g'il, singil, qarindosh, tog'a, yo'ldosh, opa, qaynota, aka, uka* va h.k.

3. Inson tana a'zolarining nomi: *ko'z, oyoq, yurak, yuz, qo'l, tirnoq, ko'krak, tish, bosh, bo'yin, ko'ks, og'iz, barmoq, soch, quloq, bel, qorin* va h.k.

4. O'simliklar va ular bilan bog'liq tushunchalarning nomi: *terak, yaproq, o'sma, olma, bug'doy, o'rik, o't, tikan, ko'knor, somon, yantoq, tomir* (ildiz) va h.k.

5. Narsa-buyum va maishiy turmush jihozlarining nomlari – maishiy leksika: *qopchiq, ip, o'choq, chiroq, qin (g'ilof), qamchi, etak, tayoq, beshik, ketmon, pichoq, to'r, eshik, o'roq, elak, ko'zgu, taroq, igna, tog'ora, egov,*

¹Муталибов С. "Девону луғотит турк"нинг ўзбек тилига муносабати масаласи / Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. III томлик. -Т.: Фан, 1960. –I том. –Б. 36.

² O'sha lug'at, 436-bet.

³ O'sha lug'at, 76-bet.

qozon, tovoq, to'qum, eshkak, qoshiq, bolta (qadimgi turkiy tilda *baldu* shaklida uchraydi)¹ va boshq.

6. Zoologik terminlar: *qoplon, boyqush, qush, tulki, quyruq, baliq, ot, qo'ng'iz, kapalak, it, kiyik, arslon, tuya, tovuq, bo'ri, qaldirg'och, zog', chayon, eshak, ilon, kaklik, chumoli, sigir, qarchig'ay, qarg'a, sichqon* va boshq.

7. Tabiat va iqlim bilan bog'liq so'zlar: *yomg'ir, yel* (shamol), *bulut, muz, oy, quyosh, yulduz, ko'k* (osmon), *yashin, chaqmoq, yog'in, uchqun, qirov* (shabnam), *yolqin* (kamalak) va h.k.

8. Mavhum tushunchani ifodalovchi leksik birliklar: *uyqu, uyat, sevgi, ko'ngil, sevinch, quvonch, qo'rqinch* va boshq.

9. Osmon jismlari va geografiyaga oid nomlar: *oy, quyosh/kun, yulduz, borliq* (koinot), *tog', dengiz, yer, yurt, soy, qir, ko'l, buloq, o'rmon, cho'qqi, qirg'oq, ko'k* (osmon) va h.k.

10. Vaqt, zamon va fasl tushunchasini ifodalovchi so'zlar: *tun, kun, tong, kecha, bukun* (bugun), *erta* (ertalab; barvaqt), *kech, chog'* (chog', vaqt), *ilk* (ilk, avval), *ilgari, qish, ko'k/ko'klam* (bahor), *tong* va h.k.

11. Harbiy terminlar: *qilich, qalqon, qo'shun* (qo'shin), *o'q, yoy* (yoy, kamon), *o'rdi* (qarorgoh; qo'shin, askar) va h.k.

12. Mansab, unvon va kasb-korni ifodalovchi nomlar: *xon, xoqon, bek* (bek, amaldor), *boshliq* (boshliq, rahbar), *qushchi* (qush boquvchi, qushlarga qarovchi, ovchi) va h.k.

13. Xususiyat va belgi ifodalovchi so'zlar: *yolg'iz, buyuk, ulug', qiliq* (tabiat, xulq, xarakter), *mungli, yovuz, o'ng'ay* (qulay), *qizil, qora, ko'k, sariq, buzuq, eski, og'ir, egri, och, og'ir, sovuq, issiq* va h.k.

¹ O'sha lug'at, 80-bet.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida qadimgi turkiy leksik birliklardan yana kiyim-kechak va ularning qismlarining nomi (*to'n, etik, yeng, yoqa* kabi); yosh xususiyatini anglatuvchi so'zlar (*qiz, erkak, qari//qariya, chol* kabi); urug`, xalq nomlarini bildiruvchi etnonimlar (*turk, uyg`ur* kabi); miqdorni bildiruvchi birliklar (*bir, uch, to'rt, besh, yuz, ming* kabi); o'rin-joy tushunchalarini ifodalovchi so'zlar (*qishloq, tegra* (atrof), *uy, o'rin* kabi); ijtimoiy-siyosiy atamalar (*tutqun, qul* kabi); shaxs tushunchasini anglatuvchi so'zlar (*men, sen, kishi* kabilar) ham qo'llaniladi.

Qadimgi turkiy so'zlarning aksariyati hozirgi o'zbek adabiy tilida keng qo'llanishda bo'lsa, ayrimlari iste'moldan chiqib eskirgan. Shu ma'noda ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanishda davom etayotgan qadimgi turkiy so'zlar. *Qilich, qamchi, o'q, temir, tuproq, qizil, olma, ona, ota, aka, tog`a, ot, bosh, kema, yer, yashin, qor, qum, qoplon, qarg`a, qumg`on, suv, ko'z, quloq, og`iz, oyoq, qorin, tomoq, tikan, yaproq, bug`doy, arpa, tariq, pichoq, taroq, qin, qopchiq, bolta, baliq, qoplon, chayon, tovuq, chivin, ilon, eshak, tuya, chumchuq, boyqush, quyosh, oy, yulduz, bulut, dengiz, tog`, qishloq, yurt, ovchi* va boshqalar shunday so'zlar jumlasiga kiradi. Mazkur guruhga kiruvchi leksik birliklar o'zining asl ma'nosini saqlab qolgan.

2. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydigan qadimgi turkiy so'zlar. Bunday izohtalab, eskirgan, iste'moldan **chiqgan** so'zlar sirasiga *qopug`* (eshik, darvoza), *aziq* (oziq-ovqat ma'nosida), *tuz* (taom, egulik ma'nosida), *chag`ir* (may, sharob, boda), *ag`ach* (daraxt), *og`u* (zahar), *ug`ur* (baxt, qut), *ug`urli* (baxtli, qutli, davlatli), *asig`* (foyda, manfaat, bahra), *tamug`* (do'zax, jahannam), *uchmah* (jannat), *yozug`* (gunoh, ayb), *qapug`chi* (eshik og`asi; eshik, darvoza soqchilarining boshlig`i), *asru* (juda ko'p, benihoya, g'oyat, talay), *arig`* (sof, toza, pokiza, musaffo), *bilik* (ilm, aql, ma'rifat, bilim), *o'ksuz*

(etim), *puchmoq* (burchak, kunj, go'sha), *qamuq* (barcha, hamma, jami), *yog`lig`* (ro'mol, ro'molcha), *ayyoq* (qadah, kosa, piyola), *dag`i* (yana, tag`in) kabilarni aytib o'tish mumkin.

Qadimgi turkiy tilga oid ayrim so'zlar borki, ular o'zbek adabiy tili uchun eskirgan bo'lsa ham, xalq shevalarida faol qo'llaniladi. Bunday so'zlar jumlasiga *karpich* (g`isht), *qapug`* (eshik, darvoza), *arig`* (sof, toza), *asig`* (foyda, manfaat), *yozig`* (gunoh, ayb), *ag`ach* (daraxt), *qo`noq* (mehmon) kabilarni aytib o'tish mumkin. Bu kabi so'zlar o'zbek xalq shevalarining ayrimlarida hozirda ham qo'llanishda davom etmoqda.

Qadimgi turkiy leksika hozirgi o'zbek adabiy tili leksik fondining asosiy qismini tashkil etadi va ular ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, ma'rifiy hamda diniy tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'molda bo'lgan qadimgi turkiy leksikaning muhim ulushini harakat-holat, xususiyat-belgi, narsa-buyum va qarindoshlik tushunchalarini ifodalovchi leksemalar tashkil etadi. Diniy-afsonaviy tasavvurlar va mansab-martabalarni ifodalovchi lug`aviy birliklar miqdori nisbatan oz.

Turkiy, chunonchi, o'zbek adabiy tili tarixida O'rxun-Enasoy yodnomalari katta ahamiyatga ega. Qadimgi turkiy tilga oid bu bitiktoshlar barcha turkiy xalqlarning tillari, madaniyati, adabiyoti, etnografiyasi, urf-odatlar va yozuvlari tarixini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi turkiy til, uning bosqichlari va unga oid bitiktoshlar haqida ma'lumot bering.
2. *Qadimgi turkiy so'zlar* tushunchasini izohlang.
3. Qadimgi turkiy so'zlarni mavzuiy guruhlar bo'yicha tasniflang.

4. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qaysi qadimgi turkiy so'zlar iste'moldan chiqib, eskirmaga aylangan.

ESKI TURKIY ADABIY TIL DAVRI

E'tibor qaratiladigan masalalar:

1. Qoraxoniylar hukmronligi davrida adabiy til masalasi.
2. Eski turkiy adabiy til davri bosqichlari.
3. Eski turkiy adabiy til davrida yaratilgan yozma yodgorliklar va ularning til xususiyatlari.
4. Eski turkiy adabiy til taraqqiyotida Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy va Ahmad Yugnakiy kabilarning o'rni.

Qadimgi turkiy bosqichning ikkinchi davriga eski turkiy til deyiladi. Bu davr asosiy turkiy qabilalar va elatlar tillarining to'la shakllanishi va rivojlanishi davri bo'lib, XI-XIII asrlarni, ya'ni Qoraxoniylar davlati va mo'g'ullar hukmronligi davrini o'z ichiga oladi. Bu davrda barcha turkiy xalqlar va tillar to'la shakllandi. Ular o'zlarining asosiy belgilari jihatidan turkiy tillarning hozirgi holatiga ancha yaqin bo'lgan tarzda rasmiylashdi¹.

X asrda Qoraxoniylar davlatida islom dini rasman qabul qilindi. Bu jarayon adabiy til, yozma adabiyot, madaniy hayot va falsafiy qarashlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ayni kezlardan adabiy tilning yangi bir bosqichi boshlanadi. Mo'g'ullar saltanati davrida ham butun saltanatga qaram yerlarda,

¹ Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1995. –Б. 34.

to'rt ulusda – Chig'atoy, Jo'ji, Xulagu, O'ktoy (Ugadoy) uluslarida mo'g'ul tili emas, qoraxoniylar adabiy tili an'anasini saqlagan turkiy til amalda bo'ldi¹.

Qoraxoniylar hukmronligi davrining eng muhim xususiyati sifatida shuni aytish mumkinki, bu davrda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda taraqqiyot yuz berdi, ilm-fan ancha rivojlandi. XI asrning birinchi yarmida Sharqiy Turkiston va G'arbiy Turkistonni bir markazdan boshqarish imkoni tug'ildi.

Ayonki, Qoraxoniylar davlati turkiy kabila-urug'larning yetakchiligida barpo bo'ldi. Ularning hukmronligi davrida adabiy til masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Buning sababi shu ediki, ularning hukmronligiga qadar, asosan, forsiy til turkiy xalqlarning adabiy tili vazifasini bajarib kelayotgan edi. Qoraxoniylar hukmronligi davrida til vaziyati o'zgardi. Mazkur davrda turkiy tilning ijtimoiy-siyosiy mavqei ancha oshdi, bu tilda ijod qiluvchilarning miqdori ko'paydi va yozilgan har bir asar taqdirlandi.

Qadimgi turkiy til asosida XI-XII asrlarda Qoraxoniylar davlatida eski turkiy til shakllandi. Mazkur adabiy til XIV asrning birinchi bosqichiga qadar amalda bo'ldi. Qoraxoniylar davrida yaratilgan yozma yodgorliklar tili qadimgi turkiy til davrida yaratilgan asarlar tiliga juda yaqin. Bundan shuni anglash mumkinki, qadimgi yozma til an'analari mazkur davrda ham ma'lum farqlar bilan davom etgan.

Qoraxoniylar davrida ko'plab iste'dod egalari yetishib chiqdi. Mazkur davrning mashhur adiblaridan Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy va Ahmad Yugnakiylar shular jumlasidandir. Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarini yozib, katta ahamiyatga ega bo'lgan ishni amalga oshirdi. Adibning ushbu asarida davlatni boshqarish usuli, qonun-qoidalari, siyosati, mafkurasi, odob-axloq masalalariga oid o'z davri va hozirgi davr uchun ham zarur va foydali fikrlar ilgari surilgan. Adib jamiyatning to'rt ustuni – adolat, davlat, aql-

¹Содиқов Қ. Тарихий лексикография / Ўқув қўлланма. –Т.: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2012. –Б. 39.

zakovat, qanoatga alohida e'tibor qaratadi. Yusuf Xos Hojib ushbu asari bilan adabiy til me'yorlarini tartibga solib, turkiy adabiy til taraqqiyotiga benazir hissa qo'shdi, Asar eski turkiy adabiy tili xususiyatlarini o'zida to'liq aks ettirganligi bilan ahamiyatlidir. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari qadimgi turkiy tildan eski turkiy tilga o'tishda katta bir ko'prik bo'lib xizmat qildi; bu asari bilan adib yangi musulmon davri turk adabiy tili me'yorlarini belgilab berdi¹.

Turkiy xalqlar uchun Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari qomusiy xususiyatga ega. Asar turkiy xalqlarning tillari tarixini o'rganish, o'sha davr tili, uning morfologiyasi, fonetikasi, leksikasi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish va qadimgi turkiy so'zlarning etimologiyasini o'rganishda eng muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, asarda turkiy xalqlarining madaniyati, urf-odatlarini, turmush tarzi va etnik tarixiga oid g'oyatda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Eski turkiy adabiyot va adabiy tilining ravnaqiga katta hissa qo'shgan mualliflardan yana biri, turk didaktik adabiyotining yirik namoyandasi, buyuk faylasuf Adib Ahmad (Adib Ahmad bin Mahmud Yugnakiy)dir. Uning yashab o'tgan davri aniq emas. Asarlarining til xususiyatlariga qarab, uni taxminan XII asrda yashab ijod etgan, deyish mumkin. Ahmad Yugnakiyning bizgacha mashhur "Hibatul-haqoyiq" dostoni, pand-nasihat mazmunli to'rtligi va she'riy baytlari yetib kelgan. Alisher Navoiy "Nasoyimul-muhabbat" tazkirasida turk mashoyihlari qatorida Adib Ahmadni tilga oladi, uning ijodiga yuksak baho berib, ayrim baytlarini keltirib o'tadi.

Eski turkiy adabiy til davri quyidagi bosqichlarni birlashtiradi: 1) Qoraxoniylar davri tili (qoraxoniylar davrida yaratilgan yozma yodgorliklar tili); 2) "Chig'atoy turkiysi"; 3) Eski xorazm turkiysi (Oltin O'rda va Xorazm muhitida amal qilgan adabiy til); 4) Eski qipchoq tili (Misrda yozilgan

¹ O'sha asar, 44-bet.

grammatik asarlar va lugʻatlar hamda gʻarbiy turk oʻlkalarida qipchoqlar yaratgan asarlar tili); 5) Eski anatoʻli turkchasi (Bu XIII-XV asrlarda oʻgʻuz turklari qoʻllagan yozma adabiy tildir. Keyinchalik buning negizida usmonli turkchasi otini olgan adabiy til yuzaga keldi)¹

Oʻz davri tilini adiblardan Yusuf Xos Hojib «Bugʻroxon tili», Mahmud Koshgʻariy «xoqoniy tili», Ahmad Yugnakiy esa «koshgʻariy til» deb atagan. Maʼlumki, XIII asrning boshlarida Oʻrta Osiyo hududini moʻgʻullar istilo qilishni boshladi. Bu tarixiy voqea Oʻrta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotidagina emas, balki ularning tiliga ham katta taʼsir koʻrsatdi. Moʻgʻullar istilosi natijasida tuzilgan davlat Chigʻatoy davlati deb yuritildi va u uzoq davr – XIV asrning oxirigacha, yaʼni Temuriylar imperiyasi tuzilguncha davom etdi. Unda davlat idora ishlarini yuritishda, asosan, qoraxoniylar davridagi adabiy tilga va qisman, Xorazmdagi adabiy tilga asoslanildi. Mazkur davlat hududida qoraxoniylar davrida tashkil topgan qarluq-chigil-uygʻur va gʻarbiy xorazm (oʻgʻuz) tili asosida va ularning taraqqiy etishi natijasida chigʻatoy tili shakllandi. Bu til uzoq vaqt adabiy til sifatida amalda boʻldi.

XII-XIV asrlarda esa Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan hududda, Xorazm va Oltin Oʻrda hududlarida Sharq manbalarida xorazmiy-turkiy deb ataluvchi adabiy til paydo boʻladi. Xorazmning XI-XII asrlardagi adabiy va ilmiy hayotida faol qatnashgan oʻgʻuz va qipchoq qabilalarining tillari mazkur adabiy tilning asosini tashkil etadi.²

Oltin Oʻrda turkumidagi yodgorliklar tili qoraxoniylar davlatida yaratilgan asarlar tilidan ayrim dialektal jihatlarga koʻra farq qiladi. Mazkur yodgorliklar tilida nisbatan qipchoq lahjasi elementlari koʻp uchraydi.

Xorazm va Oltin Oʻrdada yaratilgan asarlar tilida qadimgi turk adabiyoti va tili anʼana hamda xususiyatlari saqlangan. Mazkur hududlarda nazarda tutilgan davrlarda Nasiruddin Rabgʻuziyning “Qisasi Rabgʻuziy”,

¹ Oʻsha asar, 7-bet.

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т.: ЎЗМЭ, 2006. -5-том. –Б. 8.

Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, shu asarga o’xshatma qilib undan 80 yilcha keyin (1435-yilda) yozilgan Said Ahmad ibn Mironshohning “Taashshuqnoma”, Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy”, Qutbning “Xusrav va Shirin” kabi asarlari yaratildi.

Qadimgi turkiy adabiy til va X-XII asr yodgorliklari tilida iste’molda bo’lgan, XIII asr va XIV asr boshlarida yaratilgan ayrim asarlar tilida muayyan darajada qo’llangan «d(z)»lashish hodisasi XIV asr g’arbiy adabiy til, ya’ni Oltin O’rda va Xorazm adabiy tillari ta’sirida «y»lasha boshladi. Buni Xorazm va Oltin O’rda turkumiga kiruvchi asarlar tilida kuzatish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Qoraxoniylar hukmronligi davrida adabiy til masalasini ochib bering.
2. Eski turkiy adabiy til davri qanday bosqichlardan iborat?
3. Eski turkiy adabiy til davrida yaratilgan yozma yodgorliklar va ularning til xususiyatlari bo’yicha nimalarni bilasiz?
4. Eski turkiy adabiy til taraqqiyotida Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg’ariy va Ahmad Yugnakiy kabilarning o’rni qanday bo’lgan?

YUSUF XOS HOJIB

«QUTADG`U BILIG» ASARI, UNING TILI VA USLUBI

E’tibor qaratiladigan masalalar:

1. Yusuf Xos Hojib va uning «Qutadg`u bilig» asari xususida.
2. «Qutadg`u bilig» asarining qo’lyozmalari, nashri va ilmiy jihatdan o’rganilishi.
3. Yusuf Xos Hojibning til va nutq, nutqning yozma va og`zaki shakllari xususidagi qarashlari.

4. «Qutadg`u bilig» asarining fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari.
5. «Qutadg`u bilig» asarining ayrim lug`aviy-badiiy xususiyatlari.

Shoir, mutafakkir, davlat arbobi Yusuf Xos Hojib (Yusuf Balasog`uniy) taxminan 1020-1021-yillarda qoraxoniylarning markaziy shaharlaridan biri Quz o`rdu (Bolosog`un)da tug`iladi. “Devonu lug`otit turk” asarida bu shahar arg`un lahjasida *Quz ulus*, o`g`uz lahjasida esa *Quz o`rdu* deb yuritilishini Mahmud Koshg`ariy qayd etadi. Yusuf Xos Hojibning hayoti va faoliyati haqida ma`lumotlar beruvchi yagona manba uning «Qutadg`u bilig» (“Qut berguchi, qutlantirg`uchi bilim”, “Baxtga eltuvchi bilim”, «Saodatga yo`llovchi bilim») kitobidir. Abdurauf Fitrat “Qutadg`u bilig”ni quyidagicha izohlaydi: “qut” – “baxt”, “qutadg`u” – qutayg`u – baxtliklanish, “bilik” – “bilim” bo`lub, «Qutadg`u bilig»ning ma`nosi “baxtliklanish bilimi” bo`ladir”.¹ Yusuf Xos Hojib zamonasining barcha asosiy ilmlarini atroflicha o`rgangan, arab va fors tillarini mukammal bilgan.

Adibning «Qutadg`u bilig» asari na faqat turkiy, balki jahon xalqlari adabiyoti tarixida ham muhim o`rin egallaydi. Ushbu asarning yaratilishini tasodifiy hodisa sifatida emas, balki qadimiy tarixga ega bo`lgan turkiy xalqlar adabiyoti taraqqiyotining natijasi sifatida baholash kerak. «Qutadg`u bilig» asarida o`z davrining ijtmoiy-siyosiy, ma`naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an`analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma`lumot berilgan.

Yusuf Xos Hojib asarini 1069-1070-yillarda, o`n sakkiz oyda yozadi. Uni Bolosog`unda boshlab, Qashqarda yozib tugatgan va qoraxoniylar hukmdori Tavg`och Bug`roxonga takdim etgan. Bug`roxon muallifni taqdirlab, unga «Xos Hojib» («Eshik og`asi») unvonini bergan. Shundan keyin shoir «Yusuf Xos Hojib» nomi bilan mashhur bo`lgan. Abbosiy xalifalar saroyida arab tilidagi

¹ Фитрат. Кутадғу билиг. / Танланган асарлар. 5 жилдлик. 2-жилд. –Тошкент: Маънавият, 2000. –Б. 14.

she'riyat, Somoniy va g'aznaviylar huzurida fors tilidagi adabiyot panoh topgan bo'lsa, qoraxoniylar dargohida turkiy she'riyatning buyuk namunasi dunyoga keldi.

Adib o'zi haqida asar muqaddimasida shunday ma'lumot beradi: "Bu kitobni tartib beruvchi Bolosog`unda tug`ilgan, sabr-qanoatli kishidir. Ammo bu kitobni Koshg`arda tugal qilib, Mashriq maliki Tavg`ochxon dargohiga keltiribdir. Malik uni yorlaqab, ulug`lab, o`z saroyida Xos Hojiblik lavozimini beribdi. Shuning uchun Yusuf Ulug` Xos Hojib deb mashhur nomi tarqalibdi". Kitobda nomi tilga olingan xoqon Tavg`och Bug`roxon 1070-1103-yillarda qoraxoniylar davlatini boshqargan.

Muallifning asar muqaddimasida xabar berishicha, bu kitob o`z davridayoq keng tarqalib, mashhur bo`lgan. Chin (Shimoliy xitoy)liklar uni «Adab ul-muluk» («Hukmdorlar odobi»), mochin (Janubiy xitoy)liklar «Oyin ul-mamlakat» («Hukmdorlik qonun-qoidalarini»), Sharqiy xitoyliklar «Ziyat ul-umar» («Hukmdorlar ziynati»), eronliklar «Shohnoma»i turkiy» («Turkiy «Shohnoma»), ba`zilar «Pandnomai muluk» («Hukmdorlar pandnomasi»), turonliklar esa «Qutadg`u bilig» deb ataganlar.

Asarni o`rganishda venger sharqshunosi Herman Vamberi, turkiyalik olimlar – Muhammad Kuprilazoda, Rashid Rahmati Arat, Rizo Nur, Faxri Funduk o`g`li, Notiq Orkin, Sodiq Oranlarning hissalarini nihoyatda salmoqlidir. Ayniqsa, Rashid Rahmati Aratning bu boradagi xizmatlari kattadir. Rus turkologlaridan V.V.Radlov XIX asrning 90-yillaridan bu asarni o`rganishga kirishdi va u asar bilan deyarli 20 yildan ortiqroq vaqt mobaynida shug`ullanadi. Shuningdek, rus turkologlaridan V.V.Bartold, S.E.Malov, S.N.Ivanov, A.N.Kononov, N.A.Baskakov, E.E.Bertels, D.Nasilovlar ham asarni o`rganishga harakat qilgan.

O`zbek olimlari tomonidan mazkur asarni o`rganish XX asrning yigirmanchi yillarida («Turkiston» gazetasida «Qutadg`u bilig»ning uchinchi – Namangan nusxasining topilganligi to`g`risidagi xabardan keyin) boshlandi.

Dastlab Fitratning “Maorif va o’qitg’uvchi” jurnalida “Qutadg’u bilig”, Abdurahmon Sa’diyning “Inqilob” jurnalida “Chig’atoy va o’zbek adabiyoti va shoirlari” nomli maqolalari bosiladi. Fitratning «O’zbek adabiyoti namunalari»da (1927) asarning shu nusxasidan parchalar tegishli izohlar bilan berildi. Asarni o’rganish va uni targ’ib qilishda o’zbek olimlari – Fitrat¹, Q.Karimov², B.To’xliiev³, Q.Sodiqov⁴ kabilarning katta hissalarini bor.

Dostonning 1971-yilda Q.Karimov tomonidan amalga oshirilgan nashri katta ahamiyatga ega. Olim asarning Namangan nusxasi matnini ilmiy transkripsiya va hozirgi o’zbek tiliga tavsif qilgan shaklda nashrdan chiqardi, doston tili to’g’risida qator ilmiy va ommabop maqolalar chop etdi. «Qutadg’u bilig»ning uch qo’lyozma nusxasi fanga ma’lum. Ulardan biri uyg’ur yozuvida yozilgan bo’lib, uni 1439-yili hirotlik Hasan Qora Sayil Shams baxshi ko’chirgan. “Baxshi” so’zi “kotib” ma’nosida qo’llangan, o’sha davrlarda uyg’ur xatida yozuvchi kotiblarni arab xatida yozuvchi kotiblardan farqlash uchun shunday atashgan. Qo’lyozma hozir Vena Milliy kutubxonasida saqlanmoqda. Qolgan ikki qo’lyozma nusxa esa arab yozuvida ko’chirilgan. Ikki nusxadan biri 1896-yilda Qohirada, ikkinchisi esa 1913-yilda Namanganda (u namanganlik Muhammadhoji Eshon shaxsiy kutubxonasidan olingan) topilgan. Mazkur topilgan nusxa 1925-yilda Fitrat tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. Ushbu nusxa eng mukammal va nodir qo’lyozma sifatida e’tirof etiladi va u hozir Toshkentda, O’zFA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Uchala nusxaning matni bir-biriga to’la mos kelmaydi. Qo’lyozmalarning biri boshqasidan ko’chirilgan emas. Ularga butkul boshqa-boshqa nusxalar asos bo’lgan. Mavjud qo’lyozmalarning qay biri qadimiyroq nusxadan ko’chirilgan,

¹ Fitrat. Qutadg’u bilig / Tanlangan asarlar. 5 jildlik. 2-jild. –T.: Ma’naviyat, 2010. –B. 11-15.

² Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Текст ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. (Нашрга Қ.Каримов тайёрлаган). – Тошкент: Фан, 1971; Қаюмов К. Илк бадиий дoston. – Тошкент: Фан, 1976.

³ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. (Б.Тўхлиев нашрга тайёрлаган). –Т.: Юлдузча, 1990. -187 б.

⁴ Содиков Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. –Т.: Тошкент давлат шарқшуносlik институти, 2006.

degan savolga uyg`ur yozuvli Hirot qo`lyozmasi, keyingi davrga tegishli esa-da, boshqalariga ko`ra eskiroq nusxadan ko`chirilgan, deb javob berish mumkin.

Asarning ilk nashri Herman Vamberi tomonidan 1870-yilda amalga oshirilgan. Shundan keyin bu asar V.Radlov (1890; 1910), S.E.Malov (1929; 1951), R.R.Arat (1942; 1943; 1947; 1959), Q.Karimov (1971), B.To`xliev (1989), uyg`ur olimlari (1984) tomonidan nashr etildi. Asarning ilmiy nashrini tayyorlashda turk olimi Rashid Rahmati Arat va o`zbek olimi Qayum Karimovlarning xizmati nihoyatda ulug`. Asar ingliz, nemis, fransuz, rus, chex, turk, uyg`ur, xitoy, qozoq, qirg`iz tillarga tarjima qilingan.

«Qutadg`u bilig» asari 6500 bayt, 73 fasl (bob)dan iborat. Asosiy bo`lim Kuntug`dining ta`rifi bilan boshlanadi. Bu dostonida to`rtta asosiy masala qo`yilgan va bu masalalar to`rt majoziy obraz qiyofasida ifodalangan. Bular quyidagilar: Adolat — podsho Kuntug`di (chiqqan kun, chiqqan quyosh), davlat — vazir Oyto`ldi (to`lgan oy), aql — vazirning o`g`li Og`durmish (aqlga to`lgan) va qanoat (ofiyat) — O`zg`urmish (uyg`ongan, xushyor qiluvchi, sergaklantiruvchi, qanoatli). Muallif o`z fikr-mulohazasini obrazlarning o`zaro savol-javobi va munozaralari bilan ifoda etadi. Asar qahramonlarning o`zaro suhbatiga asosiga qurilgan. Unda Kuntug`di va Oyto`ldi dunyo hodisalari haqida suhbatlashadi.

Didaktik xarakterdagi «Qutadg`u bilig» dostoni, asosan, masnaviy (qofiyalangan baytlar) shaklida yozilgan. Asarda masnaviy bilan bir qatorda to`rtlik va qasida janrida yozilgan boblar ham mavjud. Adib so`z qudratini, ona tilining ichki imkoniyatlarini nozik darajada his etadi. Uning o`zi «men turkcha so`zlarni yovvoyi tog` kiyigi singari deb bildim, shunga qaramay ularni avaylab-asrab qo`lga o`rgatdim», deb yozadi. Yusuf Xos Hojib tilni «bilim va **aql-idrok** tarjimoni» deb ataydi. Shoir hukmdor va saroy ahlini odil bo`lishga, adolat bilan ish yuritib, mamlakatni obod va elni shod-hurram qilishga da`vat etadi.

Yusuf Xos Hojib o'zining ilg'or falsafiy qarashlari, davlat va jamiyat boshqaruvi, turli mansab egalarining burchi, ularga qo'yiladigan talablar, bilimning qadri, halollik, kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, oqibat, o'g'il-qiz odobi, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi o'y-fikrlarini asar qahramonlarining so'rog'u javoblari, munozara-tortishuvlari asosida yoritib beradi.

Ma'lumki, til va nutq, nutqning yozma va og'zaki shakllari xususidagi masalalar tilshunoslikda muhim o'rin tutadi. Tilshunos Q.Sodiqov "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2010-yil 50-sonida chop etilgan "Mangu qumaru" maqolasida yozadi: "Buning haqiqatini Evropa tilshunoslari XIX yuzyillikka kelib tushunib yetgan bo'lsalar, Sharq, xususan, o'zbek tilshunosligi tarixida bu tushunchalar eskidan bor. Yorqin misolini "Qutadg'u bilig"da kuzatamiz. Yusuf Xos Hojibning til bilimida yozma til va nutq farqlanadi. U yozma tilni *bitig so'z* deb atagan edi. Qadimgi turkiy tilda bitig – "bitig, yozuv; xat, kitob; yozma hujjat" anglamiga ega. U "yozmoq, bitmak" ma'nosidagi *biti-fe* lidan yasalgan. *Bitig so'z* istilohi "bitilgan so'z; kitobiy so'z; matn", tilshunoslik tili bilan aytganda, "yozma til, adabiy til" ma'nosini beradi. Mana o'sha istilohining baytdagi misoli:

Balag`at bila xat tengashsa qali,

Edi edgu til bu bitig so'z tili.

(Mazmuni: balog`at bilan xat tenglashsa agar, yozma til juda ezgu til bo'ladi). "Yozma til fikrni ifodalashning eng yaxshi yo'lidir," deya ta'kidlaydi shoir:

Neku ter eshitkil Ila sir tengi,

Edi edgu yang bu bitig so'z yangi.

(Izohi shundayki, Ila-sir tengi (yoshi Ila daryosiday uzun, ko'pni ko'rgan donishmand) bu to'g'rida nima degan, eshitgil: yozma til usuli (ya'ni, fikrni

matnda ifoda etish yo'li) juda yaxshi usuldir). Yusuf Xos Hojib “og`zaki til, nutq”ni *til so`z* yoki *tilin so`z* deb atagan. Mana o`sha istilohning misoli:

Yo`q ersa bitig bu kishilar ara,

Tilin so`zka kim butgay erdi, ko`r-a.

(Tavsifi: bu kishilar orasida yozuv yo`q ersa, og`zaki so`zga kim ham ishongan bo`lar edi, ko`rgin). Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” dostoni eski turkiy tilning o`ziga xos jihatlari, imkoniyatlari, lug`at boyligini mujassam etishiga ko`ra alohida ahamiyat kasb etadi. Asar leksikasida XI-XII asrlar qoraxoniylar davri ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-madaniy, maishiy va diniy turmush tarziga oid tushunchalar o`z ifodasini topgan.

Doston tilida *bodun//bozun* (el, xalq), *qumardqu//qumaru* (yodgor), *otachi* (tabib), *savchi* (rasul), *ög* (aql), *bor* (sharob), *yalavach* (elchi), *qapug`* (eshik), *töri* (qonun), *bayat* (xudo), *bayig`* (past), *bayiq* (tushunarli), *äriz* (tinch) kabi qadimgi turkiy so`zlar qo`llanilgan. Asar tilida insonning ijobiy (*alp* “qahramon”, *toja* “qo`rqmas, botir” kabi) va salbiy (*yung`achqi* “sotqin”, *achuchi* (“tuhmatchi”) kabi) xususiyatlarini ifodalovchi so`zlar ko`p uchraydi.

Shoir yashagan davr tilida *-siz* qo`shimchasi so`z yasashda faol bo`lganligini kuzatish mumkin. Masalan, asarda qo`llanilgan *öd* so`zi “vaqt” ma`nosini bildirgan. Ushbu o`zakdan yasalgan *ödsiz* so`zi “bevaqt” ma`nosini ifodalaydi. Matnda quyidagi misrada ham u ayni ma`noda kelgan:

Kishi ödsiz ölmäs anadın tug`up.

“Mazmuni: kishi onadan tug`ilib bevaqt (ya`ni ajalsiz) o`lmaydi.” Mazkur misradagi *ödsiz* so`zi *vaqtsiz*, *bevaqt* ma`nolarini ifodalagan. Yusuf Xos Hojib asarida o`xshatish (tashbeh) badiiy san`atini juda o`rinli qo`llagan. U nodon, bilimsiz, ochko`z va yomon xulqli kishini *yilqi* (hayvon)ga, kuchli

lashkarboshini esa *arslonga* o'xshatgan. Shoir *yigitlikni kezuvchi bulutga, yoshlikdagi yuzni arg'uvonga, qomatni qayin va o'qqa* tashbeh qiladi.

Yusuf Xos Hojib omonim va antonimlardan asari tilini boyitish, uning ta'sirchanligini oshirish maqsadida keng foydalangan. Adib asarida *at* omolksemasi *ot hayvoni, kishi nomi va otmoq* harakati ma'nolarida qo'llanilgan. Zid ma'noli so'zlardan *yaxshi – yaman, yumshaq – qatig', achig' –tatig'* kabilar asarda tazod badiiy san'atini voqelantirishga xizmat qilgan.

«Qutadg'u bilig» asarining istioralari ham o'ziga xos. *Tun* bir o'rinda *sevuglar qoshi*, boshqa bir o'rinda *qora ko'ylak* va *qora soch* istioralari bilan ifodalangan. Tabiat tasviriga alohida ahamiyat bergan Yusuf Xos Hojib o'ndan ortiq qushlarning nomini tilga oladi: *qaz (g'oz), o'rdak, turna, kaklik, chumg'uq* (chumchuq), *sanvach* (bulbul), *aqqush* (oqqush) va boshq. Misol:

Qaz, o'rdak, qug'u, qil qalig'lig' tudi,

Qaqilayu qaynar yuqaru qudi.

(Tavsifi: *g'oz, o'rdak, oqqush, qil* quyruqlar osmonni to'ldirdi, (ular) qag'illashib yuqori va quyini to'ldirib uchmoqda). Hayvon nomlaridan *ilik-kulmiz* (erkak va urg'ochi jayron), *sig'un-muyg'aq* (erkak va urg'ochi bug'u), *tuya* kabilarni qayd etadi:

Ilik-kulmiz o'ynar chechaklar uza,

Sug'un-muyg'aq o'ynar yurir tab keza.

(Tavsifi: erkak va urg'ochi jayron chechaklar ustida o'ynamoqda, erkak va urg'ochi bug'u bog' kezib yurmoqda). Yusuf Xos Hojib asarida omonim va antonimlardan ham unumli foydalangan. Asar tilida I *at* (ot, hayvon), II *at* (ism, nom), III *at* (otmoq) kabi omonimlar; *yaruq – qaraq, yaxshi – yaman, yumshaq – qatig', achig' –tatig', beduk – qodu* kabi antonimlarni uchratish mumkin.

Asar tilida singarmonizm qonuniyati saqlangan. Asarning morfologiyasi bo'yicha ko'zga tashlanadigan hodisa shundaki, unda kelishiklar ichida vosita kelishigi ham uchraydi:

Tirig ölgü axir töshänär yerig

Kishi älsä edgün kör atı tirig.

(Izohi: tirik kishi oxiri o'ladi, yer uni yo'q etadi, Kishi yaxshilik bilan o'lsa, oti tirik qoladi." E'tiborli tomoni shundaki, asar tilida *turk* so'zi ikki ma'noda – *turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar* va *kuch-qudrat* ma'nolarida qo'llangan.

«Qutadg`u bilig» asarining tili o'sha davr turk qabilalari tillari asosini o'zida aks ettirgan. Shuning uchun ham «Qutadg`u bilig»ni XI asrda yashagan biror turkiy xalqning yoki qabilaning yodgorligi deb qat'iy fikrga kelish qiyin. Shunga qaramasdan, asarda chigil qabilalarining til xususiyatlari nisbatan ustunlikka ega.

Savol va topshiriqlar:

1. Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi hamda uning «Qutadg`u bilig» asari xususida nimalarni bilasiz?
2. «Qutadg`u bilig» asarining qo'lyozmalari, nashri va ilmiy jihatdan o'rganilishi bo'yicha ma'lumot bering.
3. Yusuf Xos Hojibning til va nutq, nutqning yozma va og`zaki shakllari xususidagi qarashlarini izohlang.
4. «Qutadg`u bilig» asarining fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini aytib bering.
5. «Qutadg`u bilig» asarining lug`aviy-badiiy xususiyatlari bo'yicha nimalarni bilasiz?

MAHMUD KOSHG`ARIY

“DEVONU LUG`OTIT TURK” ASARINING ILMYIY-TARIXIY AHAMIYATI

E`tibor qaratiladigan masalalar:

1. Mahmud Koshg`ariy va uning “Devoni lug`otit turk” asari xususida.
2. Mahmud Koshg`ariyning turkiy dialektlar haqidagi qarashlari.
3. “Devoni lug`otit turk” asari va turkiy tillarni qiyosiy o`rganish metodi.
4. Mahmud Koshg`ariyning turkiy tillar bo`yicha tasnifi.
5. “Devoni lug`otit turk” asarining ilmiy-tarixiy ahamiyati.

Turkshunoslik ilmining asoschisi Mahmud Koshg`ariy ibn Husayn ibn Muhammad ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan qoraxoniylar sulolasiga mansub bo`lgan. U XI asr boshlarida Balasog`unda (hozirgi Qirg`izistonning To`qmoq shahri yaqinida) tug`ilgan. Otasi Husayn ibn Muhammad o`sha davrdagi Barsg`an eliga amirlik qilgan. Mahmud Koshg`ariy boshlang`ich ma`lumotni o`z qishlog`ida, yuqori ma`lumotni esa Koshg`ar madrasalarida olgan, arab, fors va turkiy tilni puxta egallagan. So`ng u Buxoro, Samarqand, Marv va Nishopur kabi shaharlarda bilimni oshirgan.

Mahmud Koshg`ariy 1056-1057-yillarda mamlakatdagi ichki nizolar sabab o`z vatanini o`n besh yil davomida tark etishga majbur bo`ladi. Ana shu yillarda u turkiy xalqlar yashaydigan o`lkalarni kezib, bu yerlardagi turkiy qabila va urug`lar, ularning kelib chiqishi va nomlanishi, joylashish o`rinlari, urf-odatlarini, ayniqsa, til xususiyatlarini sinchiklab o`rganadi. So`ng Bag`dodga borib, ancha vaqt shu shaharda ijod qiladi.

Mahmud Koshg`ariy taxminan 1080-yillarda vataniga qaytib keladi. O`pal qishlog`idagi Aziq mahallasida uzoq yillar yashaydi, Hazrati Mullom tog`i etagida joylashgan madrasada dars beradi va ilmiy ijod bilan jiddiy mashg`ul bo`ladi. Izoh sifatida aytish mumkinki, hozirda mazkur madrasaning faqat poydevorlarigina saqlanib qolgan, xolos. Olim 1105-yilda (yoki 1126-yilda), 97 yoshida vafot etadi. O`pal qabristonidagi avvaldan mavjud bo`lgan ajdodlari maqbarasiga dafn etiladi. Tog`ning etagida balandligi qirq metrli tepalikda joylashgan ushbu maqbara mahalliy xalq orasida Mahmud Koshg`ariy mozori nomi bilan mashhurdir. O`pal hozir Xitoy Xalq Respublikasining Shingjon Uyg`ur avtonom rayonining Qoshg`ar viloyati tarkibiga kiruvchi qishloqlardan biridir.

Olim dafn etilgan joyga o`sha davr an`anasiga mos ravishda peshtoqlik qabr qurilib, usti uy shaklida yopilgan. Shundan beri olim qabri va uning atrofi ziyoratgohga aylantirilgan. Qabr mahalliy xalq tomonidan muntazam ta`mirlanib turiladi. Qabr joylashgan tepalikning etaklari ma`rifatparvar kishilar tomonidan manzarali va ko`rkam boqqa aylantirilgan. Mahmud Koshg`ariy maqbarasiga to`qson ikkita zina orqali chiqiladi. Buning boisi shuki, ushbu zinalar soni olimning yoshi soniga teng. Tepalikda olimning kitob ushlab turgan haykali o`rnatilgan.

Mahmud Koshg`ariy dunyoga mashxur asari «Devonu lug`otit turk» («Turkiy so`zlar devoni»)ni abbosiylardan bo`lgan Abulqosim Abdulloh binni Muhammadil Muqtadoga bag`ishlaydi. Ushbu asar turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etimologik lug`atlarning barcha unsurlarini qamrab olgan dastlabki universal lug`at bo`lib, ushbu asar o`z muallifini dunyoga ulug` tilshunos, adabiyotshunos, tarixchi, etnograf, geograf va boshqa ko`p fanlardan yaxshi xabardor bo`lgan qomusiy olim sifatida tanitdi. Olim mazkur asarida turkiy xalqlarning tillaridagi ko`plab so`zlarning ma`nosini o`sha davr tamoyiliga ko`ra arab tilida izohlab berdi. O`z fikrlarini dalillash uchun turkiy xalqlarning maqollaridan va badiiy adabiyoti

namunalaridan keng va o'rinli foydalandi. Asarda uch yuzga yaqin maqol va matallar, o'nlab she'riy parchalar keltirilgan.

Mahmud Koshg'ariy asariga o'zi tuzgan dunyo xaritasini ilova qiladi. Xaritada mamlakat, shaxar, qishloq, tog`, cho'l, dengiz, ko'l, daryo qabilarning nomlari yozilgan. Xarita, asosan, Sharqiy yarim sharga to'g'ri keladi. Ayrim kamchiliklariga qaramay, xarita o'z davri uchun mukammal, hozirgi davr uchun geografik ma'lumotlar beruvchi muhim manba hisoblanadi.

Mahmud Koshg'ariyning turkiy til grammatikasiga bag'ishlangan boshqa bir asari ham bo'lgan. Chunonchi, olim "Devonu lug'atit turk" asarining kirish bo'limida kitobda zikr etilmagan grammatik qoidalar to'g'risida so'z yuritib: "Birlik, ko'plik, oshirish, chog'ishtirish, kichraytish, kelishiklar masalasi va boshqalar ham zikr qilinmadi. Chunki biz bularni "Kitob javohir un-nahv fi-lug'at at-turk" ("Turkiy tillarning nahviga oid gavharlar kitobi") ismli asarimizda berdik. Nahvga oid qoidalar u asardan qaralishi kerak", — deb yozadi (DLT.I.62). Olimning bu asari hozircha topilgani yo'q.

Mahmud Koshg'ariyga tegishli «Devonu lug'otit turk» asarining qo'lyozmasi 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan. Bu nusxa asar yozilganidan salkam 200 yildan keyin, ya'ni Mahmud Koshg'ariyning o'z qo'li bilan yozilgan nusxadan 1266-yilda kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotihal-Soviy al Damashqiy tomonidan ko'chirilgan. Uning yozishicha, mazkur qo'lyozma Mahmud Koshg'ariyning o'z qo'li bilan bitilgan nusxadan ko'chirilgan.

«Devonu lug'otit turk» asari arablar, arab tilini biladigan Sharq xalqlari va Evropa ilm ahlini turkiy til bilan tanitish maqsadida yaratilgan. Asar ilmiy ahamiyatga egaligi bois dunyoning bir qancha tillari, jumladan, turk, o'zbek, uyg'ur, ingliz, rus va boshqa tillarga tarjima qilingan. Asarining tuzilishi xususida shuni aytish mumkinki, unda muqaddima qismidan keyin, eng avvalo, otlar, so'ng fe'llar izohlangan. Lug'atdagi so'zlar tartibi ularning tarkibidagi harflarning orta borishiga (2 harfdan 7 harfgacha) qarab amalga oshirilgan.

«Devonu lug`otit turk» asarida qabila va urug` tillariga oid lingvistik ma'lumotlar ancha batafsil berilgan, har bir turkiy so'z va uning ma'nolari chuqur tahlil qilingan, ayrim so'zlarning etimologiyasiga oid ma'lumotlar ham keltirib o'tilgan. Asarda qabila va urug` tillariga oid tovushlar (fonemalar) ancha mukammal izohlangan, unli va undosh fonemalar, cho'ziq va qisqa unlilar, fonetik hodisa va qonuniyatlar batafsil tahlil etilgan. Morfologiya sohasida so'z turkumlari, davr an'anasiga ko'ra, uch so'z turkumiga, ya'ni ismlar, fe'llar va bog'lovchiga ajratilib, ularning yasalish va turlanish yo'llari ochib berilgan.

Tilshunos olim V.I.Belyaev asar haqida shunday yozadi: «Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak, chunki u kitoblardan olib yozilmagan, balki jonli materialni shaxsan kuzatishga asoslangan».

«Devonu lug`atit turk» asarining bor-yo'g'i bitta qo'lyozmasi mavjud. U hozir Istanbuldagi Millat kutubxonasining Ali Amiriy fondida saqlanadi. Qo'lyozma 319 varaqli katta bir jilddan iborat bo'lib, varaqlari tarqoq, yirtiq, boshi-oxiri noma'lum, sahifalari qo'yilmagan. Asar qo'lyozmasi uchga bo'linib, birinchi va ikkinchi jildlari 1915-yilda, uchinchi jildi 1917-yilda Istanbulda Kilisli Rifat muharrirligida nashr etildi. Ushbu fotonusxasi asosida Bosim Atalay asarni turk tiliga birinchi bo'lib mukammal tarjima qildi va uni 1939-1941-yillarda uch jildli etib chop qiladi. Uning turk tilidagi keyingi qayta nashri 1957-yil amalga oshiriladi.

G`arbiy Evropada nemis sharqshunosi Karl Brokkelman 1920-yilda «Devonu lug`otit turk» to'g'risida birinchi maqolasini e'lon qildi, keyinchalik asardagi so'z, ism va joy nomlarining ro'yxatini tuzib, qaysi tom va sahifasini belgilab, alohida kitob (ko'rsatkich) tarzida nemischa so'z boshisi bilan 1928-yilda nashr etdi. U «Devonu lug`otit turk»ning til va adabiyot uchun ahamiyati, uning tarjimasini to'g'risida ham bir necha maqolalar yozdi.

«Devonu lug`otit turk» asariga katta ahamiyat berib, uni o'rganishga harakat qilganlardan biri atoqli turkolog S.E.Malovdir. Olim mazkur asarga doir

«Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari» nomli monografiyasini yaratdi. Unda asar xususida qimmatli fikrlar ifodalangan.

Asli falastinlik arablardan bo'lgan, Qozon universitetida ta'lim olgan, keyinchalik Qozon va Boku universitetlarida professorlik qilgan sharqshunos P.K.Juze (1871-1942) «Devonu lug'otit turk» asariga bag'ishlab 1926-1928-yillarda ikkita maqola yozadi. U maqolalarida «Devonu lug'otit turk» asariga juda yuksak baho beradi, uning katta ahamiyatini uqtirib o'tadi. U yozadi: «Mahmudning «Devonu lug'otit turk» asarida o'sha vaqtda Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan Shimoliy-Sharqiy qabilalarning deyarli hammasi to'plangan. Dadil aytish mumkinki, yaqindagina (XIX asr oxirlarida) Rossiyada va Sharqda o'rganilgan turkiy tillar fonetikasi va etimologiyasining asosiy qonunlari XI asrdayoq Mahmud tomonidan aniqlangan va o'rganilgan edi. Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chuqurki, hatto, bunday asar XIX asrda yozilganda ham unga shon-sharaf bo'lardi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk»i singari asar fan olamida keyingi asrlarda ham yaratilgan emas. Uning asari bamisoli «Turkiy qomus»dir».

O'zbek olimlari orasida «Devonu lug'otit turk» asarini ilmiy asosda o'rganishni Turkiston jadidchilik harakatining g'oyaviy rahnamosi Abdurauf Fitrat boshlab berdi. Uning «Devonu lug'otit turk» asariga oid tadqiqotlaridan biri «Eng eski turk adabiyoti namunalari» deb nomlanadi. Mazkur tadqiqot-majmua 1927-yilda isloh qilingan arab yozuvida chop etilgan bo'lib, unda Fitrat turkshunoslik ilmining asoschisi Mahmud Koshg'ariyning mashhur «Devonu lug'otit turk» asaridagi she'riy parchalarni yig'ib, ularni adabiy tur va janrlarga ko'ra tasniflagan. «Bir-ikki so'z» deb nomlangan so'z boshisida o'zbek tili va adabiyoti tarixi, turkiy tilshunoslik va o'zbek adabiyotshunosligi uchun muhim, ahamiyatli fikrlar ifodalangan. Ular jumlasiga quyidagilarni aytish mumkin:

a) Mahmud Koshg'ariy, V.V.Radlov va A.N.Samoylovichlarning turkiy tillar tasnifiga oid ilmiy qarashlari mufassal tahlil etilgan;

b) yangi o'zbek adabiy tilining asosiy manbalari to'g'ri belgilangan;

v) «Devonu lug'otit turk» asaridagi she'riy parchalar adabiy tur va janrlarga ko'ra aniq tasniflangan;

g) «Devonu lug'otit turk» asarining ilmiy-tarixiy ahamiyatiga to'g'ri baho berilgan.

Fitrat mazkur asarida dastlab turkshunoslar Mahmud Koshg'ariy, V.V.Radlov va A.N.Samoylovichlarning turkiy tillar bo'yicha tasniflariga munosabatini bildirib o'tadi.

Ma'lumki, V.V.Radlov tasnifida, asosan, hududiy-geografik nuqtai nazar asos qilib olingan va shunga ko'ra turkiy tillar to'rt guruhga bo'lingan. Ular quyidagilardir: 1) Sharqiy guruh. (Bu guruhga oltoy, chulim, xakas, shor, tuva va enasoy turklarining tili kiradi); 2) G'arbiy guruh. (Bu guruhga qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, tatar, boshqird tillari kiradi); 3) O'rta Osiyo guruhi. (Bu guruhga uyg'ur va o'zbek tillari kiradi); 4) Janubiy guruh. (Bu guruhga turkman, ozarbayjon va turk tillari kiradi).

A.N.Samoylovichning tasnifida esa turkiy tillar oltita guruhga bo'lingan. Uning tasnifida fonetik tamoyil asos qilib olingan. Tasnifda turkiy tillar guruhi quyidagilardan iborat: 1) Bulg'or guruhi. Bu **R** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga eski bulg'or va hozirgi chuvash tillari kiradi); 2) Shimoli-Sharqiy yoki uyg'ur guruhi. Bu **D** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga uyg'ur, tuva, salar tillari kiradi); 3) Shimoli-G'arbiy yoki qipchoq guruhi. Bu **Tau** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga oltoy, qirg'iz, qumiq, tatar, boshqird, qozoq tillari kiradi); 4) Janubi-Sharqiy yoki chig'atoy guruhi. Bu **Tag'liq** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga o'zbek va uyg'ur tillari kiradi); 5) O'rta yoki qipchoq-turkman guruhi. (Bu guruhga qipchoq-turkman tillari kiradi); 6) Janubi-G'arbiy guruh. Bu **Ol** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga ozarbayjon, turk, gagauz tillari kiradi).

Fitrat mazkur tasniflarni tahlil etib bo'lgach, ular bo'yicha o'z xulosalarini quyidagicha ifodalaydi: «Har holda bu tasniflarning ko'pda asosiy narsalar bo'lmag'ani ma'lum. Bulardan boshqa birda tarixiy tasnif Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'at»ida bordir». Olimning mazkur fikridan quyidagilarni anglash mumkin:

1) rus turkshunoslarining tasnifida juda ko'p kamchiliklar mavjud, ularda turkiy tillar bir tomonlama tasnif etilgan. V.V.Radlovning ilmiy ishlarida turkiy tillar hududiy-geografik nuqtai nazardan, A.N.Samoylovichning ilmiy asarlarida esa turkiy tillar bir xil lingvistik belgisiga asoslanib tasnif etilgan. Bunday yo'l tutish xatolik va chalkashliklarni keltirib chiqarishi aniq. Shu uchun ularning tasniflari mukammallikdan yiroq;

2) mazkur tasniflardan bir necha asr ilgari, ya'ni XI asrda yaratilgan tasnif ham mavjud bo'lib, u Mahmud Koshg'ariyga tegishlidir. Ayonki, olim turkiy xalqlarning hududiy-geografik jihatdan yashash manzillari va turkiy tillarning lingvistik xususiyatlarini alohida e'tiborga olib, turkiy tillarni ikkita guruhga bo'ladi:

1) turk yoki xoqoniy turkchasi tillari; 2) o'g'uz tillari.

Ma'lumki, «Devonu lug'otit turk» asarida mazkur guruhdagi tillarning fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari mufassal tahlil etilgan, shularga asoslanib ular tasnif etilgan. Bu tarixiy tasnif ancha sodda, aniq va qisman mukammal ekanligini Fitrat alohida ta'kidlab, undan keng foydalanish, yaratilajak yangi tasniflarga, albatta, asos qilib olinishi lozimligini aytadi. Asarga tarixiy fonetika, morfologiya va leksikologiya uchun qimmatli materiallar beruvchi manba sifatida yuqori baho beradi. Chindan ham unda yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha ancha keng va to'liq ma'lumotlar mavjud.

Fitrat «Devonu lug'otit turk» asarida mingdan ortiq so'zning izohi berilganligini qayd etadi. Ayrim adabiyotlarda asardagi so'zlar miqdori olti

mingdan ziyodroq deb ko'rsatilgan. «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»da esa sakkiz mingdan ortiq so'zning izohi berilganligi ko'rsatib o'tilgan (O'ME,III,230). Hozircha bu masalada aniq to'xtamli fikrga kelingani yo'q. Fitrat tadqiqotida «Devonu lug'otit turk» asarining yozilish sanasi ham ko'rsatib o'tilgan. Shu o'rinda mazkur asarning yozilish sanasi xususidagi ayrim qarashlarga to'xtalib o'tsak. Ba'zi o'quv adabiyotlarida asarning yozilish sanasi 1072-1083-yillar deb qayd etilgan bo'lsa (Muxtorov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. –T.: O'qituvchi, 1995. –B. 56), ayrim ilmiy manbalarda 1068-yil (Abdurahmonov G'., Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O'qituvchi, 1973. –B. 16), «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»ning 3-jildida 1071-1072-yillar (230-b.), 5-jildida esa 1072-yil (77-b.) deb ko'rsatilgan. Fitrat «Devonu lug'otit turk» asari hijriy 464-466-yillarda yozib tugatilganligini qayd etadi. Buni milodiy yil bo'yicha hisoblasak, 1072-1074-yillarga to'g'ri keladi. Bu borada Fitratning fikri haqiqatga yaqin.

Fitrat mazkur asarni tadqiq etish jarayonida juda ko'plab ilmiy va badiiy asarlarni o'rganib chiqadi. Shular jumlasiga V.V.Radlov va A.N.Samoylovichlarning ilmiy tadqiqotlarini, «Qutadg'u bilig», «Hibatul-haqoyiq», «Muqaddimatul-adab» kabi badiiy va lug'at asarlarni aytish mumkin. Olim shular asosida «Devonu lug'otit turk» asaridagi she'rlarni izohlagan, vazn, qofiya, mavzu bo'yicha tahlil va tasnif etgan. Fitrat o'zbek xalqining, kengroq ma'noda aytsak, turkiy xalqlarning yozma manbalarini o'rganishda, ularni targ'ib etishda alohida o'ringa ega. Undan qolgan ilmiy meros hozir ham o'z ahamiyati va dolzarbligini aslo yo'kotgan emas.

Koshg'ariyshunoslikka munosib hissa qo'shganlardan biri, shubhasiz, Solih Mutallibovdir. U o'zining o'ttiz besh yillik tinimsiz mehnati natijasida «Devonu lug'otit turk» asarini o'zbek tiliga tarjima qiladi va asarni muhim izoh

hamda tafsirlari bilan 1960-1963-yillarda uch jilddan iborat qilib chop ettiradi¹. Ushbu nashr faqat tarjima bo'lmay, turkcha tarjimaga munosabat, baho, atamalar, shaxs nomlari, shahar va joy nomlariga izoh va tafsir hamdir.

Solih Mutallibov nashrining muqaddima qismida Mahmud Koshg`ariyning lingvistik qarashlari, turkiy qabilalar, ularning shakllanishi va tillari, hozirgi turkiy xalqlar hamda ularning tiliga munosabati, shuningdek tarjima transkripsiyasi to'g`risida ma'lumotlar berilgan. Mazkur nashrning oxirida esa turkiy urug`, qabila va shaharlar to'g`risida batafsil tushunchalar keltirilgan. Asarning har bir jildida havolalar berilib, unda uchragan so'z va iboralar Alisher Navoiy asarlari tili hamda hozirgi o'zbek tili bo'yicha o'zaro qiyoslangan, keng tavsiflangan va izohlangan. Asarning tarjimasiga berilgan izohlarning o'zi alohida bir ilmiy ishdirki, bu ko'p vaqt va keng bilimni talab qiladi.

“Devonu lug`atit turk” ikki – muqaddima va lug`at bo'limlaridan tashkil topgan. Muqaddimada kitobning yozilish sababi, uning tuzilishi; turkiy urug` va qabilalar qo'llaydigan yozuv; otlarning yasalishi; fe'llarning tuslanishi; so'z tarkibi (morfem tuzilishi); kitobda e'tibor qaratilgan grammatik qoidalar; turkiy xalqlarning ta'rifi va ularning o'rnashgan o'rni; turkiy lahjalardagi farqlar xususida so'z yuritiladi.

Lug`at sakkiz bo'limdan iborat. Ular quyidagilar:

1. Hamzali so'zlar, ya'ni “alif” bilan boshlanadigan so'zlar bo'limi.
2. Solim, ya'ni “alif”, “vav”, “ya” harflari bo'lmagan so'zlar bo'limi.
3. Muzoaf, ya'ni undoshlari ikkilanadigan so'zlar bo'limi.
4. Misol, ya'ni tarkibida “alif”, “vav”, “ya” bo'lgan so'zlar bo'limi.

¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. I-III. –Т.: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. -499 б. Т. II. 1961. -427 б. Т. III. 1963. -461 б.

5. Zavatu-s-salasa (uch harfli so'zlar), ya'ni "alif", "vav", "ya" harflari qisqa unli sifatida o'qiladigan so'zlar bo'limi.

6. Zavatu-l-arba'a (to'rt harfli so'zlar), ya'ni "alif", "vav", "ya" qisqa talaffuz qilinadigan so'zlar bo'limi.

7. G`unnalilar, ya'ni tarkibida burun (dumog`) tovushlari kelgan so'zlar bo'limi.

8. Al-jam' baynas-sakinayi, ya'ni harakatsiz ikki undoshli so'zlar bo'limi.

Har bir bob ism va fe'llardan iborat ikki qismga ajratilgan. Otlar oldin, fe'llar esa keyin o'z sirasiga qarab boblarga ajratilib, oldinma-ketin beriladi. So'zlarning berilish ketma-ketligi ham arab lug`atchiligi ishlab chiqqan tamoyillarga tayanadi: oldin ikki harflilar, so'ng uch, to'rt, besh, so'ng olti harfli so'zlar keladi.

Lug`atda o'sha zamondagi turkiy tilning deyarli barcha sohalariga tegishli so'zlar jamlangan, iste'moldan chiqqan so'zlar berilmagan, faqat faol iste'moldagi so'zlargina berilgan. Lug`atda so'zlarning izohlanishi quyidagicha: avval turkiy so'z, so'ng uning arabcha tarjimasini keltiriladi. Izohlanganda esa uning fonetik variantlari, sheva so'zi bo'lsa, qanday shevada uchrashi qayd etiladi.

Agar lug`atda keltirilgan turkiy so'zga arab tilida teng keladigani bo'lmasa, ya'ni u turklarning tiriklik tarzi, dunyoqarashi, madaniyati, etnografiyasigagina tegishli tushunchani anglatsa, unday holda ushbu so'z kengroq shaklda bayon etiladi. Yanada muhimi, turkcha so'zning ma'nosini ochish uchun o'sha so'z qatnashgan turkiy jumlar, maqollar, xalq qo'shiqlari, dostonlardan olingan to'rtliklar, ushbu tushuncha bilan bog'liq etnografik marosimlar, qarashlar bilan izohlanadi. Shunga ko'ra, "Devonu lug`atit turk" tilshunoslik asarigina emas, qadimgi turk folklori, etnografiya, tarix,

madaniyatshunoslik va shuning singari o'nlab qadimiy fanlar uchun ham boy material beradi.

Masalan, *im* (belgi, yashirin so'z) so'ziga izoh berar ekan, shunday yozadi: “*im* – shoh askarlariga qo'yilgan (tayinlangan) yashirin belgi, parol; bu belgi qush yoki qurol nomi yoki biror so'zdan iborat bo'lishi mumkin; to'qnashganda uni aytib o'zlarini tanitadilar; maqolda shunday kelgan: *im bilsä er ölmäs* — Im bilsa, er o'lmas (Kishi yashirin belgini bilsa, nohaq o'lmaydi)” (DLT,I,74)¹.

Mahmud Koshg`ariy o'z davridagi dialektlarning leksik xususiyatlarini ham to'liq ko'rsatib bergan. Muallif so'zlarni izohlar ekan, o'rni bilan ularning qaysi bir dialektga mansub ekanligi, dialektlardagi o'ziga xos ma'no xususiyatlari va boshqa muhim tomonlari haqida ham to'xtalib o'tadi. Bu esa ana shu so'zning dialektal xarakterini ochib beradi. Olim ma'lum bir dialektga mansub so'zlarni alohida ajratib ko'rsatadi.

Mahmud Koshg`ariy **o'g`uzlar qo'llaydigan so'zlar** sifatida *pamuq* “momiq, paxta” (I.360), *töläk* “tinch va og'ir kishi” (I.368), *sindu* “qaychi” (I.395), *qarinchaq* “chumoli” (I.460), *sechä* “chumchuq” (III.238); **chigillar qo'llaydigan so'zlar** sifatida *quchg`undi* “piyoz” (I.454), *ud* “sigir” (I.80), *ajun* “dunyo” (I.106), *saman* “somon” (I.392); **qipchoqcha so'zlar** sifatida *ökil* “ko'p” (I.103), *aba* “ayiq” (I.113), *sulaq* “qora jigar” (I.390); **arg`ucha so'zlar** sifatida *qiz kishi* “baxil odam” (I.315), *chigit* “paxta urug`i, chigit” (I.337), *tudrich* “go'ng” (I.422), *bashtar* “o'roq” (I.424) kabilarni aniq ko'rsatib o'tadi.

Ayrim so'zlar bir dialektida ma'lum bir shaklda bo'lsa, ikkinchi dialektida uning o'rnida boshqa so'z qo'llanilgan. Bu narsa Mahmud Koshg`ariy tomonidan ham alohida qayd etilgan: Masalan, boshqa turklar idish, kosa, piyolani *ayaq* desalar, o'g`uzlar uning o'rnida *janaq* so'zini qo'llaganlar

¹ Содиков Қ. Тарихий лексикография / Ўқув қўлланма. –Т.: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2012. –Б. 11.

(DLT,I.112), turklar *almila* (ya'ni olma) desalar, o'g'uzlar *alma* so'zini qo'llaganlar (DLT,I.150)¹.

«Devonu lug'otit turk» asarida turli sohalarga doir so'zlar bilan bir qatorda zoonimlar ham **ifodalangan**. Ma'lumki, *zoonim* yunoncha so'z bo'lib, *hayvon nomlari bilan bog'liq so'zlar* ma'nosini ifodalaydi. «Devon»dagi zoonimlarni hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtai nazardan ikkita guruhga ajratish mumkin: hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan qadimgi turkiy zoonimlar va hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydigan qadimgi turkiy zoonimlar.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan qadimgi turkiy zoonimlar jumlasiga *echku* (echki), *tuya*, *ayig'*, *it*, *ilon*, *qo'y* kabilarni aytib o'tish mumkin. Ushbu so'zlarning til va lahjalarda turlicha ifodalanishini olim aniq ko'rsatib o'tadi. Yuqorida keltirilgan *tuya*, *qo'y* kabi so'zlar har bir tilda, ya'ni turkiy va o'g'uz tillarida turlicha talaffuz etilishini Mahmud Koshg'ariy shunday izohlaydi: «So'zdagi «t»ni o'g'uzlar va ularga yaqinlar «d»ga aylantiradilar, chunoni, tuyani turklar *teve* desalar, o'g'uzlar *devey* deydilar. So'z o'rtasida yoki oxirida kelgan «y»ni arg'ular «n»ga almashtiradilar. Masalan, turklar — *qoy* (qo'y) desalar, ular — *qon* (qo'n) deydilar» (DLT,I.66-68).

«Devon»da hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydigan qadimgi turkiy zoonimlar ham mavjud. Bunday so'zlar jumlasiga *eno'k* (yosh arslon, arslon bolasi), *aba* (ayiq), *erkach* (taka, erkak echki), *obko'k* (sassiqpopishak), *alavan* (timsoh), *ud* (sigir), *as* (karkas qushi; burgut) kabilarni aytish mumkin. Mahmud Koshg'ariy bulardan tashqari *arqar*, *arju* kabi zoonimlarni ham izohlaydi: «*arqar* — urg'ochi tog' echkisi; uning shoxidan pichoqqa sop qilinadi; *arju* — shoqol, chiya bo'ri deyilgan yirtqich bir hayvon».

¹ O'sha asar, 16-bet.

Mahmud Koshg`ariy ayrim zoonimlarning qaysi til (sheva va lahja)ga oidligini ham qayd etgan. Masalan, *ud*, *obko`k* kabilar chigilcha, *aba* qipchoqcha ekanligini misollar asosida aniq ko`rsatib o`tgan. Olim ayrim zoonimlarni maqollar asosida izohlagan. Chunonchi, *ordak* (o`rdak), *og`laq* (uloq, echki bolasi) so`zlarini maqol bilan shunday izohlaydi: «*Ordak* (o`rdak) maqolda shunday kelgan: *qaz qopsa, ordak kolig igano`r* — «g`oz qo`zg`alsa, o`rdak ko`lni egallaydi». Bu maqol xalq orasidan biror katta kishi ketgandan keyin, uning o`rniga undan tuban bir kishining ko`tarilishini eslatish uchun qo`llaniladi (I.129); «*Og`laq* (uloq, echki bolasi) maqolda shunday kelgan: *og`laq yiliksiz, og`lan biliksiz* — «echki bolasida ilik yo`q, yosh bolada aql yo`q» (DLT,I.141).

Mahmud Koshg`ariy zoonimlarning omonimlik xususiyatini *ingak*, *at* kabi so`zlari vositasida izohlaydi: 1) «turkiylar sigirni *ingak* desa, o`g`uzlar toshbaqaning urg`ochisini *ingak* deydilar (I.135); *at I* — ot, ism; *at II* — ot (hayvon); *at III* — laqab; unvon. *Beg angar at berdi* — bek unga unvon berdi. Qabilaning ulug`i yoki boshlig`ini ham *atlig`* deyish shundandir» (I.107). «Devon»da yuqoridagi zoonimlardan tashqari yana *bug`ra* (ikki o`rkachli tuya), *azg`ir* (ayg`ir), *taqag`u* (tovuq) kabilar ifodalangan.

Mahmud Koshg`ariy chetdan qabul qilingan so`zlarga ikki xil munosabatda bo`ladi. Predmet va tushuncha bilan bog`liq ravishda kirib kelgan so`zlarga ijobiy munosabatda bo`ladi. Tilda mavjud bo`lgan so`zlar o`rnida boshqa tildan olingan so`zni qo`llashga salbiy qaragan va bu holatni zararli holat deb bilgan. Bunga ko`ra *bilge*, *bitik*, *urag`ut* kabi turkiy so`zlar o`rnida arabiy *olim*, *kitob*, *ayol* so`zlarini qo`llamaslik kerak.

Mahmud Koshg`ariy o`sha davr fonetikasiga doir qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Shu davr alfaviti to`g`risida: «Turkiy tillarda qo`llaniladigan asosiy harflar soni 18 tadir. Holbuki, tildagi tovushlar 18 ta emas, ko`pdir. Bu 18 harf

yetishmaydi. Bulardan boshqa tilda mavjud bo'lgan tovushlarni berish uchun yana 7 ta tovushni ana shu mavjud harflar ustiga maxsus belgi qo'yib yoziladi» (I.47-48). Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy unli va undosh tovushlar, ularning xarakteristikasi, tovush almashinishi qonuniyatlari haqida o'rinli fikrlarni bayon qiladi.

Lug'atda mavjud so'z turkumlariga doir leksik birliklarning atroflicha izohiga e'tibor berilgan. Leksemalarga birlamchi (asl) ma'nosidan farqli qo'shimcha (sema) yuklatish, shu yo'l bilan yangi leksema hosil qilish ham Mahmud Koshg'ariy nazaridan chetda qolmagan. Uning mulohazasiga ko'ra, yangi so'zlar yasash faqat affikslar yoki so'zlarni bir-biriga birlashtirish, kompozitsiya bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar orqaligina amalga oshirilmaydi. Balki, quyidagi usullardan foydalangan tarzda ham yangi so'z yasash o'zini oqlaydi:

a) so'zlarni qarama-qarshi, zid qo'llash bilan. Masalan, *süchük* so'zi oldin shirinlikka nisbatangina ishlatilgan, so'ng achchiq ta'm-mazalik ichkilikka nisbatan ham qo'llanishi shunga misoldir;

b) butun o'rnida bo'lak, bo'lak o'rnida butun qo'llash natijasida yangi so'z yuzaga chiqadi. Bu erda hozirgi zamonaviy tilshunoslikdagi integral va differensial semalar nazarda tutilgan, ya'ni *saban* istilohi avval qo'sh va omochning umumiy ma'nosini bildirgan bo'lsa, keyin faqat omochga nisbatan qo'llanganligi ta'kidlangan (I,382);

v) so'zlar ma'no doirasining kengayishi yangi ma'no anglatadi. Xususan, "qiz bola" ma'nosidagi *qiz* leksemasining majoziy "qimmatbaho" ma'nosi (I.315) shular jumlasindandir.

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari o'zbek tili tarixida yaratilgan asarlar orasida o'zining ilmiy qiymatiga ko'ra alohida ajralib turadi. Turkologlar, tarixchilar. adabiyotshunoslar va arxeologlar har doim aniq va

to'g'ri manba sifatida uning asariga asoslanadilar. Xalqimizning boy tarixini har tomonlama o'rganish, uning taraqqiyot bosqichlariga xos jihatlarni umumlashtirish muhim masalalardan hisoblanadi. «Devonu lug'otit turk» asari o'zbek xalqi tarixida muhim ahamiyatga ega noyob manbadir.

Mahmud Koshg'ariy o'z davrining buyuk tilshunosi tarzida turkiy tillarda qo'llangan so'zlarni jamladi va ularni o'ziga xos bilimdonlik va chidam bilan tadqiq qildi. «Devonu lug'otit turk» qoraxoniylar davri ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy-madaniy, maishiy, etnografik turmush tarzini anglashda, shu jihatlarga doir tushunchalarni ifodolovchi leksemalar tizimini idrok etishda bebaho manba hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Mahmud Koshg'ariy va uning «Devoni lug'otit turk» asari xususida ma'lumot bering.
2. Mahmud Koshg'ariyning turkiy dialektlar haqidagi qarashlarini sharhlang.
3. Mahmud Koshg'ariyga tegishli turkiy tillar tasnifining ahamiyati nimlardan iborat?
4. «Devoni lug'otit turk» asarining tuzilishi, unda so'zlarning berilish prinsiplarini izohlang.
5. «Devonu lug'otit turk» asarida qaysi etnonimlar keltirilgan?
6. «Devoni lug'otit turk» asarining ilmiy-tarixiy ahamiyatini so'zlab bering.

AHMAD YUGNAKIY

“HIBATUL-HAQOYIQ” ASARINING TILI VA USLUBI

Eʻtibor qaratiladigan masalalar:

1. Ahmad Yugnakiy va uning «Hibatul-haqoyiq» asari xususida.
2. «Hibatul-haqoyiq» asarining ilmiy oʻrganilishi.
3. «Hibatul-haqoyiq» asarining til xususiyatlari.
4. «Hibatul-haqoyiq» asarining ayrim lugʻaviy-badiiy xususiyatlari.

Shoir, mutafakkir Ahmad Yugnakiy taxminan XII asrning oxirlarida Samarqand atrofidagi Yugnak qishlogʻida tugʻilgan. Uning hayoti va ijodi haqida maʼlumotlar juda oz. Undan yagona asar – «Hibatul-haqoyiq» («Haqiqatlar tuhfası» yoki «Sevimli haqiqatlar») asari bizgacha yetib kelgan boʻlib, unda shoir haqida ayrim maʼlumotlar keltirilgan. Asar oxirida shoirning ismi Adib Ahmad ekanligi aytiladi. Shuningdek asarda temuriy amaldorlardan Arslonxoja Tarxon tomonidan ilova qilingan 10 baytli masnaviyda Yugnakiy haqida baʼzi maʼlumotlar mavjud. Undan maʼlum boʻlishicha, Adib Ahmad Yugnak degan soʻlim va bahavo joyda tugʻilgan, otasining ism Mahmud Yugnakiy boʻlgan, asari adabdan iborat, uning nomi «Hibatul-haqoyiq» boʻlib, “koshgʻariy til”da sheʼriy yoʻl bilan yozilgan.

Arslonxoja Tarxonning bu sheʼriy ilovasi keyingi asrlarda qoʻshilgan boʻlib, til xususiyatlariga koʻra Adib Ahmad asaridan farq qiladi. Arslonxoja Tarxon Ahmad Yugnakiy asarini «qashqariy til bila» yozilgan deydi, ammo muallifning oʻzi asarini turkiy tilda yozganligini taʼkidlaydi: «*Annin ush chiqartim bu turkcha kitab, Kerak qil tayyib e doʻst kerak qil itob*». (Istagil qadrla, ista taʼna qil, Shu turkcha kitobni Senga bitdim, bil.) Anglashiladiki,

Ahmad Yugnakiy yashagan davrdagi til “turkcha til” nomi bilan atalgan bo’lsa, Ulug`bek davridagi til esa “koshg`ariy tili” nomi bilan yuritilgan.

Ahmad Yugnakiy nomiga “Adib” so’zi qo’shib aytilishi ma’lum sababga ega. U o’zini shoir emas, balki “adab ilmi namoyandasi” deb biladi. Uning dostoni turkiy elatlarga islomiy odob qoidalari, ma’naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta’lim berishga mo’ljallangan. Ahmad Yugnakiy bu xususda quyidagilarni yozadi:

Adib Ahmad atim adab pand sözüm,
Sözüm munda qalur barur bu özüm.

(Otim Adib Ahmad, so’zim pand-nasihat, so’zim bu dunyoda qolib, o’zim u dunyoga ketaman).

Alisher Navoiy «Nasoyimul-muhabbat» tazkirasida Ahmad Yugnakiyni O’rta Osiyoning mashhur shayxlari qatoriga qo’yib, uning onadan ko’zi ojiz tug`ilganligini, ammo ko’ngil ko’zi bag`oyat yorug` bo’lganligini yozadi: “Haq subhonahu va taolo agarchi zohir ko’zin yopuq yarattandur, ammo ko’ngil ko’zin bag`oyat yoruq qilg`ondur”. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning o’g`li Badiuzzamonga yozgan xatlaridan birida «Hibatul-haqoyiq»dan parchalar keltiradi. Bundan anglashiladiki, Alisher Navoiy uchun mazkur asar katta ahamiyatga ega bo’lgan.

Ahmad Yugnakiyning tug`ilgan joyi masalasida turlicha qarashlar mavjud. Sababi shuki, Yugnak nomidagi qishloqlar qadimgi Samarqand atrofi, Farg`ona vodiysi va Sirdaryo bo’ylarida mavjud bo’lgan. Shunday bo’lsa ham, ko’pchilik uni Samarqand atrofida deb hisoblaydi. Bunga dalil sifatida XII asrda yashagan muarrix Abulkarim as Sam’oniyning «Al Ansob» («Nasabnoma») kitobidagi quyidagi fikrni keltirib o’tishadi: «Bu nisba (taxallus) «Yug`anak»dan va bu (joy) Samarqand qishloqlaridan. Bu nisba bilan Abuhomid Ahmad ibn Abu Ahmad al Yug`anakiy mashhurdirlar».

Shoir «Hibatul-haqoyiq» asarini yozib tugatgandan so'ng uni hukmdori Dod Sipohsolorbekka taqdim etadi. Bu asarning bugungacha beshta qo'lyozma nusxasi – uchta to'liq qo'lyozmasi va ikkita asarning ayrim parchalaridan iborat nusxasi saqlanib qolgan. Ulardan eng qadimgisi 1444-yilda Samarqandda Ulug`bekning nufuzli amirlaridan Arslonxoja Tarxon topshirig`iga ko'ra, Zaynulobidin baxshi tomonidan uyg`ur yozuvida ko'chirilgan. Matn orasidagi o'ayat, hadis va ayrim baytlar arab yozuvida bitilgan. Asar nomi mazkur nusxada «Atabat ul-haqoyiq» («Haqiqat eshiklari») deb ko'rsatilgan.

Keyingi nusxa uyg`ur va arab yozuvlarida bo'lib, 1480-yilda Turkistondan Istanbulga borib qolgan iste'dodli kotib Shayxzoda Abdurazzoq baxshi tomonidan ko'chirilgan. Uchinchi qo'lyozma esa arab xatida bo'lib, unga Turkiya sultoni Boyazid II (1481-1512)ning muhri bosilgan. Mazkur qo'lyozma noma'lum kotib tomonidan ko'chirilgan bo'lib, u Turkiyaning To'pqopi kutubxonasidan topilgan. Bu nusxa XV asr oxiri XVI asrning boshida ko'chirilgan.

Asarni turk olimi Najib Osimbek bir necha marta (1906, 1916, 1925-yillarda) nashr ettirgan. Dostonning ilmiy-tanqidiy matnlari 1951-yilda turkiyalik olim Rashid Rahmat Arat, 1971-yilda o'zbek olimi Qozoqboy Mahmudov tomonidan turli qo'lyozmalarni chog`ishtirish asosida tayyorlangan va chop etilgan.

O'zbekistonda Fitrat, Oybek, Porso Shamsiev, Solih Mutallibovlar tomonidan «Hibat ul-haqoyiq» asari o'rganilgan va undan ayrim parchalar e'lon qilingan. Asarni 1968 va 1971-yillarda Qozoqboy Mahmudov alohida kitob holda nashr ettirgan va u bo'yicha ayrim tadqiqiy ishlarni amalga oshirgan¹. Fitrat 1928-yilda “Maorif va o'qitg`uchi” jurnalida “Hibat ul-haqoyiq” maqolasini nashr ettirdi. Unda 1916-yilda turk olimi Najib Osimbey tomonidan

¹ Ахмад Югнакий. Хибатул-хақойик. (Нашрга Қ.Маҳмудов тайёрлаган). -Т.: 1968, 1971; Маҳмудов Қ. Ахмад Югнакийнинг «Хибат ул-хақойик» асари ҳақида. – Тошкент: Фан, 1972.

chop etilgan asarning bu nashrida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni ko'rsatib beradi. Mazkur asar xususida ayrim fikrlarini bildirib o'tadi. U yozadi: "Hibat ul-haqoyiq"ning vazni aruzdagi "mutaqoribi musammani maqsur" (faulun, faulun, faulun, faul) bo'lub, "Shohnoma" va "Qutadg'u bilig" bilan bir vazndadir. Bu asar san'at e'tibori bilan "Qutadg'u bilig"dan tubandir. Tashbehtar ibtidoiy, ohangi yoqimsizdir." Fitrat asarni til tarixi nuqtai nazardangina ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi.

Asar ba'zi manbalarda 235 bayt, ayrim manbalarda esa 254 bayt deb ko'rsatiladi. Dostonning umumiy hajmi ba'zi manbalarda 484 misra, ayrim manbalarda esa 512 misra deb qayd etilgan. «Hibatul-haqoyiq» o'n to'rt bobdan iborat. Buni Ahmad Yugnakiy asarida aytib o'tadi:

Tug'a ko'rmas erdi adibning ko'zi,

Tuzattim bu on tort bob ichra so'zi.

Dostonning birinchi bobi Allohga hamd bilan boshlangan. Ikkinchi bob Muhammad (sav) na'ti va choryorlar ta'rifiga, uchinchi bobi Dod Sipohsolorbek madhiga bag'ishlangan. To'rtinchi bobda kitobning yozilish sabablari bayon qilingan. Beshinchi bob ma'rifatning foydasi va jaholatning zarari, oltinchi bob til odobi, yettinchi bob dunyoning o'tkinchiligi, sakkizinchi bob saxiylik va baxillik, to'qqizinchi va o'ninchi boblar esa turli masalalarga bag'ishlangan. Asar mazmuniga Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolari singdirilgan. U islom dini doirasidagi ahloqni tashviq qilish, komil insonni tarbiyalab yetishtirish maqsadi bilan yozilgan.

Asarning o'ziga xos fonetik xususiyatlari mavjud. Asar tilida $d(z)$ va y li fonetik hodisani muvoziy tarzda qo'llanganini kuzatish mumkin: *ke~~d~~in//keyin*, *ki~~d~~im//kiyim* kabi. Asarning ayrim morfologik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) asar tilida vosita kelishigi affiksi *-n* (*-in*, *-in*, *-un*) oz uchraydi, u ancha arxaiklashgan. Misol:

Asal tatrub eligin tamag` tatir tib.

(Mazmuni: qo`li bilan asal yedirib, taom berib.)

2) asar tilida olmoshlardan *san//sen*, *man*, *shul*, *ul*, *kändu*, *o`z*, *nägu*, *neluk*, *qamug`* kabilar qo`llangan. Misol:

Qamug` til axi er sanosin ayur,

Axilliq qamug` er kirini yuyur.

(Izohi: hammaning tilida saxiyning maqtovi takror, saxovat kishining barcha aybini yuvadi.)

3) asar tilida *-siz* va *-lik//liq //luk* qo`shimchalari asosida yasalgan so`zlar ko`pchilikni tashkil etadi. Bundan shuni anglash mumkinki, shoir yashagan davrda mazkur qo`shimchalarning so`z yasash imkoniyati juda keng bo`lgan. Ularga doir *biliksiz*, *bahosiz*, *yiliksiz*, *hisobsiz*, *tovarsiz*, *biliklik*, *baholiq*, *umrliq*, *asig`liq*, *xiradliq* (aqllilik), *axilliq*, *harisliq* (hirsli, ochko`zlik), *baxilliq*, *vafoliq*, *ko`nilik* (to`g`rilik), *ezguluk* (ezgulik) kabi so`zlarni aytish mumkin. Misol:

Baxilliqni qoni ökär til qayu,

Axilliqni ham xos turuhaq ökär.

(Tavsifi: baxilni maqtovchi til topilmagay, saxiyning madhini barcha eshitur.) Baytdagi izohtalab so`zlar quyidagilar: *o`kar til* – maqtaydigan til, *xos* – maxsus odamlar, katta odamlar, *turuhaq* – umumxalq.

Asar tilida (*d*)z li dialekt xususiyati saqlangan. Ayrim o`rinlarda y li dialekt xususiyatini ham kuzatish mumkin: *qazg`u* – *qayg`u*, *kizim* – *kiyim*, *kezin* – *keyin* kabi.

Asarda tushum kelishigi affiksining *-ug`*, *-üg* varianti arxaik shakl sifatida ancha siyrak uchraydi, asosan, *-im*, *-ni* shakllari qo'llanilgan: *yüzüg* *yüzni*, *qamug`ug`* – *qamug`ni* (eshikni) kabi.

Jo'nalish kelishigining *-gä*, *-g`a*, *-kä*, *-qa* affiksli shakllar ishlatilgan: *baxilg`a*, *alikkä* (qo'lga) kabi.

Asarda umumturkiy so'zlar asosiy leksik qatlam sifatida namoyon bo'lgan. Bunday so'zlar jumlasiga *kuz*, *so'z*, *yo'l*, *ko'rk*, *til*, *bosh*, *tish*, *kishi*, *bir*, *og`iz*, *asal*, *kun*, *ko'ngul*, *to'n*, *tun*, *yoz*, *tuproq* kabilarni aytib o'tish mumkin. Ular hozirgi o'zbek adabiy tilida faol qo'llaniladi.

Asar tilida o'zlashma qatlamga oid so'zlar ham anchagina uchraydi. Ular orasida arabiy va forsiy o'zlashma so'zlar sezilarli miqdorni tashkil etadi. Forsiy o'zlashma so'zlarga *do'st*, *dil*, *oshkoro* (oshkora), *ro'z* (kun), *dushman*, *zahar* kabilarni misol tarzida aytish mumkin.

Asar tilidagi o'zlashma so'zlar tarkibida arabiy o'zlashmalar nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Arab tiliga tegishli bunday so'zlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: *saodat*, *dinor* (tilla pul; oltin, tilla), *aql*, *nasihat*, *johil*, *adab*, *ajam* (arab xalqidan boshqa hamma halqlar), *arab*, *hisob*, *umr*, *masal*, *xaloyiq*, *murod*, *mol*, *harom*, *haris*, *sahv* (kamchilik, xato), *hunar*, *suhbat*, *amonat* (omonat), *kitob*, *baxil* va boshqalar.

Asar tilida juda ko'plab eskirgan, hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'moldan chiqqan, izohtalab so'zlar uchraydi. Ular jumlasiga *ayurman* (ayturman), *eran* (er kishi), *qoli* (holi), *alik* (ilik, qo'l), *asig`liq* (foydali), *o'ngin* (boshqa), *o'sanma* (g'ofil bo'lma), *tatiqsiz* (lazzatsiz), *o'kunch* (pushaymon), *adin* (boshqa), *o'gdi* (maqtadi), *o'kush* (ko'p), *yag`i* (dushman), *ko'ni* (to'g`ri), *basal* (piyoz, achchiq), *ik* (kasallik), *ush* (bu), *kali* (agar), *qiz* (qadrli, qimmatli), *ujuz* (arzon) kabilarni aytib o'tish mumkin.

Asarda oz bo'lsa ham badiiy vositalar, xalq maqollari uchraydi. Ahmad Yugnakiy o'xshatish va tazod kabi badiiy san'atlardan muayyan darajada foydalanilgan. Shoir ayrim o'xshatishlar orqali ilm va ilmli kishilarni ulug'laydi. Ilmsiz kishini yemishsiz mevaga, bilimsiz insonni iliksiz suyakka, u tirik bo'lsa ham o'lik kimsaga o'xshatadi. Misol:

Biliksiz – yiliksiz söngaktak qoli,

Biliksiz söngakka sunulmas älik.

(Mazmuni: ilmsiz — iliksiz so'ngak kabi bo'sh, iliksiz so'ngakka kim qo'l urar, xo'sh). Shoir to'g'ri so'zni asalga, achchiq so'zni esa *basal*, ya'ni piyoz, sarimsoqqa o'xshatgan:

Köni söz asaltek, bu yalg'an basal,

Basal yeb achitma ag'izni asal.

(Izohi: to'g'ri so'z asaldur, sen asal yegil, yolg'on so'z aytmayman, sarimsoq, degil). Ma'lumki, asalda shirinlik, piyozda esa achchiqlik belgisi mavjud. Mazkur baytda, *to'g'ri* (shirin) so'z bilan *yolg'on* (achchiq) so'z, *asal* so'zi bilan esa *piyoz* so'zi zidlantirilib, tazod badiiy san'ati voqelantirilgan. Shoirning quyidagi baytida *yolg'on* va *ko'ni* (to'g'ri), *ik* (kasallik) va *shifo* so'zlari zidlantirilib, tazod badiiy san'ati yuzaga keltirilgan:

Yo yalg'an söz iktäk, köni söz shifa,

Bu bir söz azag'i urilmish masal.

(Mazmuni: yolg'on so'z kasallik, tashvish keltiradi, to'g'ri so'z esa shifodur, dardingni ketdiradi). Baytning aniq mazmuni shundayki, *o'zog'i*, ya'ni ilgarigi (qadimgi) maqollarda aytilganidek, yolg'on so'z *iktak*, ya'ni kasallik kabidir, kishiga tashvish, g'am keltiradi, *ko'ni* (to'g'ri) so'z esa shifo kabidir, kishiga salomatlik olib keladi.

Vafo köli sug'ilub quvrub yollari,

Jafo toldi, toshti tengiztin odiz.

(Tavsifi: vafo ko'li qaqrab, yo'li quridi, jafolar mo'l bo'ldi, misoli dengiz). Shoir ushbu bayti orqali aytmoqchiki, vafo ko'li suvlarining yo'li buzildi, ko'l qurib, qaqradi, jafo dengizidan esa suv toshib, butun adir, balandliklarni egalladi. Sadoqatli, ahd-paymonini muqaddas tutadiganlar kamaydi, jafo (zulm) qiluvchilar dengiz suvi kabi hamma yoqni egalladi. Shoir arabiy *vafo* va *jafo* so'zlarini matnda zidlantirib, tazod badiiy san'atini yaratgan. Shoirning quyidagi baytida *yaxshi so'z* qimmatli *atlasga* tashbih etilgan:

Navodir sozug az bolur azl öküsh,

Juz atlas bolur qiz ujuzi bözük.

(Izohi: kamyob, qimmatli atlas kabi yaxshi so'z oz, hazil so'z esa ko'p bo'ladi). Asarda juda ko'p xalq maqollari keltirilgan. Ularning ayrimlarini quyida keltirib o'tamiz:

Biliklik biringa biliksiz mingil,

Tengakli tengadi bilikning tengin.

(Bir bilimli bilimsizning mingiga teng, Ming bilimsiz bilimliga bo'lolmas teng). Shoir mazkur maqol orqali aytmoqchi bo'lgan fikr shundayki, bir bilimli kishi mingta bilimsiz kishiga barobar keladi, shu uchun ilmli kishilar ilma'rifatning qadriga etadi).

Ming er dostung ersa öküsh kömägil,

Bir er dushman ersa ana azlama.

(Mingta do'sting bo'lsa, ularni aslo ko'p ko'rma, Bitta dushmaning bo'lsa, uni oz, dema). Asar tilida *esh-do'st*, *yag'i-dushman*, *ko'ngil-dil*, *pand-nasihati*, *tovar-mol*, *bitig-kitob*, *ochun-olam* kabi sinonimlar qo'llangan. Misol:

Biliklik sözi *pand*, *nasihat*, adab,

Biliklikni ögdi ajam ham arab.

(Bilimli kishining so'zi pand, nasihatdan iborat bo'lganligi uchun uni hamma olqishlaydi, maqtaydi).

Ahmad Yugnakiy asarida turli badiiy vositalar, xalq maqollari ko'p uchraydi. U o'xshatish, takrir, tazod kabi san'atlardan keng foydalanilgan. Uning mazkur bebaho asari bir necha asrlardan beri kishilar qalbiga ezgulik tuyg'ularini singdirib kelmoqda. Alisher Navoiy o'z davrida bu asarning katta ahamiyatga egaligini anglab, adib va uning asari haqida shunday yozadi: «Xeyli elning muqtadosi ermiş. Balki aksar turk ulusinda hikmat va nuqtalari shoedur. (Ko'pgina el unga iqtido qiladilar, ya'ni ergashadilar. Uning hikmatli satrlari va nozik ishoralari aksariyat turkiy xalqlar orasida tarqalgandir). Ahmad Yugnakiy turkiy elatlar madaniyati va adabiyotini yuksaltirishda katta xizmat qildi. Undan keyin yashagan adiblarning ijodiga uning ijobiy ma'nodagi ta'siri beqiyos bo'ldi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ahmad Yugnakiy va uning «Hibatul-haqoyiq» asari xususida so'zlab bering ?
2. «Hibatul-haqoyiq» asarining ilmiy o'rganilishi xususida nimalar bilasiz?
3. «Hibatul-haqoyiq» asarining til xususiyatlarini aytib bering?
4. «Hibatul-haqoyiq» asarining lug'aviy-badiiy xususiyatlari nimalardan iborat?

“ATTUHFA” ASARIDA SO’ZLARNING IZOHLANISH TAMOYILLARI

Eʼtibor qaratiladigan masalalar:

1. Arab dunyosida turkiy tilni oʻrganishga boʻlgan ehtiyojning ijtimoiy-siyosiy sabablari.
2. “Attuhfatuz zakiyatu fillugʻatit turkiya” asariga umumiy tavsif.
3. “Attuhfa” asarining tuzilishi va unda soʻzlarning izohlanish tamoyillari.
4. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining “Attuhfa” lugʻatidagi leksik birliklarga munosabati.
5. “Attuhfa” asarining ilmiy-tarixiy ahamiyati.

Turkiy tillar tarixini oʻrganishda “Attuhfatuz zakiyatu fillugʻatit turkiya” (“Turkiy tillar haqida noyob tuhfa”) asari muhim oʻrin tutadi¹. U qipchoq tiliga xos maxsus asar boʻlib, arab tilida yaratilgan lugʻatdir. Arab dunyosida XIII-XIV asrlarda maʼlum ijtimoiy-siyosiy sabablarga koʻra turkiy tilni oʻrganishga ehtiyoj yuqori darajadali tufayli mazkur asar yozilgan. Fanda uning qachon, qaerda, kim tomonidan yaratilganligi nomaʼlumligicha qolmoqda. Kitobda muallifning nomi qayd etilmagan. Muallif “bu asarni qipchoq tili asosida tuzdim” deganiga koʻra asar XIII-XIV asrlarda Misrda qipchoqlarning saltanati davrida yozilgan deb taxmin qilinadi. Ayonki, 1250-1517-yillarda Misrda davlatni mamluklar boshqargan. *Mamluk* soʻzi arabcha boʻlib, *qul*, xususan, *oq qul* maʼnosini ifodalaydi. Mamluklarning asosini nasl nasabi turkiy va Kavkaz xalqlaridan boʻlgan qul jangchilar tashkil etgan. Ularni yoshligidan oʻgʻirlab olib ketishgan va maxsus harbiy ilmga oʻrgatishgan. Ular nihoyatda jasur boʻlgan. Ayrimlari oddiy mamlukdan sarkarda, podsho darajasigacha

¹ Attuhfatuz zakiyatu fillugʻatit turkiya (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa). / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Solih Mutallibov.. –T.: Fan, 1968. -280 b.

ko'tarilgan. Mamluklarning ikki sulolasi – Bahriylar va Burjiylar Misr va Suriyani uzoq vaqt boshqargan. Bahriylar, asosan, turkiy qavmlardan bo'lib, 1250-1390-yillarda hukmronlik qilgan bo'lsa, Burjiylar esa, asosan, kavkazliklardan iborat bo'lib, 1390-1517-yillarda hukmronlik qilgan. “Attuhfa” asari Bahriylar hukmronligi davrida yaratilgan deb faraz qilish mumkin¹.

“Attuhfa” asarining nasx xati bilan yozilgan bitta qo'lyozmasi ma'lum. Qo'lyozma hozir Istanbulda Validuddin afandi kutubxonasida saqlanmoqda. Asarni o'zbek tiliga Solih Mutallibov tarjima etgan.

“Attuhfa” asari, asosan, qipchoq tilining fonetik, morfologik va leksik xususiyatlariga bag'ishlangan. Bu to'g'rida muallif asarning kirish qismida quyidagilarni yozadi: “Men bu asarda qipchoq tiliga asoslandim. Chunki eng ko'p qo'llanadigan til qipchoq tilidir. Turkman tilini bu ishda bayon qilmadim. Faqat juda zarurat bo'lgandagina ko'rsatdim” [AZ,8].

Bundan anglashiladiki, oldingi davrlardagidek XIII-XIV asrlarda ham qipchoqlarning ijtimoiy mavqei yuqori bo'lgan. Ma'lumki, qipchoqlar turkiy tillar tarixida alohida o'ringa ega bo'lib, juda ko'p turkiy xalqlarning shakllanishi hamda taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Qipchoq tili turkiy tillar oilasiga mansub o'lik tildir. Qipchoqlar qadimda yirik qabilalar ittifoqini tashkil etishgan. Ular Dashti Qipchoq cho'llaridan Qora dengiz bo'yi cho'llarigacha bo'lgan ulkan hududda yashagan va musulmon manbalarida «qipchoq», «qifchoq», yevropa manbalarida «kuman», «koman», «kun», rus manbalarida esa «polovest» deb atalgan².

“Attuhfa” asari tuzilishiga ko'ra uch qism — kirish, lug`at (arabcha-turkiy) va grammatik qoidalardan iborat. *Kirish* qismida kitobning yozilish sababi, unda turkiy tilning qay lahjasiga asoslanganligi bayon etilgan. So'ng turkiy

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик, 3 жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. Б. 157.

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик, 3 жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. –Б 149.

alifbo va imlo qoidalari, turkiy yozuvning imlo xususiyatlari to'g'risida ayrim ma'lumotlar berilgan. Muallif qipchoq tilida qo'llaniladigan harflar miqdorini 23 ta deb aytadi va unda keng qo'llaniladigan 18 ta harfni keltirib o'tadi: *alif, yay, vov, pe, nun, mim, lom, kof, qof, g'ayn, to, sod, sin, ze, re, jim, te, be* [AZ,9].

Muallif o'ziga qadar yaratilgan juda ko'p lug'atlarni, ularning mazmuni va tuzilishini o'rganganligini alohida ta'kidlab, turkiy tillarning grammatikasi va leksikasiga doir qimmatli asarlar yozgan Abu Hayyon (1256-1334) asarlarining biridan quyidagi iqtibosni keltirib o'tadi: "Har bir tilni bilish, uch narsani o'zlashtirish bilan hosil qilinadi. Birinchisi: har bir so'z ma'nosini aniqlab bilish. Bu qism "lug'atshunoslik" deb ataladi. Ikkinchisi: so'zlarning ayrim-ayrim holdagi xususiyatlarini o'rganish. Bu qism "ilmi sarf" deb yuritiladi. Uchinchisi: so'zlarning bir-biriga bog'lanishiga doir xususiyatlarini o'rganish. Bu qism arabcha "ilmi nahv" deyiladi" [AZ, 9-10].

Anglashiladiki, "Attuhfa" asarining muallifi, birinchidan, Abu Hayyonning tilshunoslikka doir asarlaridan xabardor bo'lgan, ularni qunt va sinchkovlik bilan o'qigan, ikkinchidan, uning tilshunoslik borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarini e'tirof etib, ularni to'g'ri deb bilgan, lug'atni yaratishda uning g'oya va tajribalarini asos sifatida qabul qilgan.

"Attuhfa" asarida arab alifbosi negizidagi turkiy yozuvning imlo xususiyatlari to'g'risida aniq ma'lumot berilgan. Muallif yozadi: "Bilgilki, turk tilida shakl yo'q. Shakl yo'qligi uchun bir qancha aniqsizlik va xatolar paydo bo'lar edi. Shuning uchun ana shu aniqsizlikdan qutilish uchun ot, fe'l va hurufni yozishda maxsus shakl qo'llash usulini qabul qildilar. Ya'ni fatha o'rnida "alif", kasra o'rnida "yay", zamma o'rnida "vav" qo'llay boshladilar" [AZ,10].

Mazkur fikrdan anglashiladiki, turkiy til yozuvida unlilarni ifodalashga xizmat etadigan arab tilidagi fatha, kasra va zamma haraktlari yo'q. Bu o'z navbatida yozuvda qator aniqsizlik va xatoliklarni keltirib chiqaradi. Ana shu

aniqsizlikdan qutulish uchun turkiy soʻzlarni yozishda unilarni harflarda toʻliq berish qoidasi joriy etilgan.

Lugʻat boʻlimida avval arabcha soʻzlar, keyin esa uning turkiy tarjimasini berilgan. Shuning uchun fasllarning tuzilishida soʻzning arab tilidagi shakli inobatga olingan. Ayrim soʻzlar tarjimasida arabcha soʻzlar emas, balki forscha soʻzlar keltirilib, keyin uning turkiy tarjimasini berilgan oʻrinlar ham mavjud. Asarning lugʻat qismida dastlab hamzalik soʻzlar berilgan. Keyin hamzali soʻzlarga tegishli qolgan boʻlimlar mavzuiy guruhlarga koʻra turkumlashtirilgan: otlarning ranglari, ot asboblari, yer va unga bogʻliq narsalar, yeyiladiganlar, tomonlar, oʻtgan zamon feʼllari singari.

Soʻng arab alifbosidagi harflarning joylashish oʻrniga koʻra soʻzlar izohlangan. Masalan, hamzalik soʻzlardan keyin *be*, undan keyin *pe*, undan keyin esa *te* harfli soʻzlar keltirilgan. Lugʻatda dastlab har bir harf bilan boshlanuvchi otlar, undan keyin esa feʼllar izohlangan. Harflarni tartib boʻyicha belgilashda arabcha va forscha-tojikcha soʻzlar eʼtiborga olingan. Masalan, *se* harfli soʻzlar izohida *sano*, *sub* kabi soʻzlar keltirilib, ularning muqobili sifatida turkiy *alqish*, *tun* soʻzlari izohlangan. Asarning tuzilishi boʻyicha umumiy tasavvurga ega boʻlish uchun ت — t harfli otlardan olingan ayrim misollarni quyida keltirib oʻtamiz:

ت — t harfli otlar

Arabchasi	Turkiysi	Hozirgi maʼnosi
تلس	شو وال (shuval)	qop
تحت	طابچاق (tapchaq)	beshik
تاجر	طارطيق (tartiq)	sovgʻa
تلس	تاکا (täkä)	echki
تکه	ائلارسک (elärsig)	toʻn bogʻichi

Ayrim turkiy soʻzlar tarjimasiz berilgan. Bunga misol sifatida *itlaqaz* (qush) [AZ,15], *sülük* (zuluk) [AZ,56], *chumuq* (chumchuq) [AZ,56], *doqmaq* (toʻqmoq) [AZ,65], *pïchaq* (pichoq) [AZ,56] kabilarni aytib oʻtish mumkin. Lugʻatda qipchoq tillari va lahjalariga xos muhim dialektal xususiyatlar ham oʻz ifodasini topgan. Maʼlumki, mazkur tillar va lahjalardagi ayrim soʻzlar oxirida *q* va *k* tovushi tushib qolish hodisasi mavjud. Bu hodisani lugʻatdagi *sari* (sariq) [AZ,11], *ïccï* (issiq) [AZ,45], *tari* (tariq) [AZ,55], *tiri* (tirik) [AZ,55] kabi soʻzlarda uchratish mumkin. Soʻzlikda ayrim soʻzlarning tarixiy-etimologik qatlamlari notoʻgʻri belgilangan. Bunga arabiy *odam* [AZ,11], forsiy *jahon* [AZ,55] soʻzlarini misol sifatida aytish mumkin. Ular lugʻatda turkiy soʻzlar sifatida qayd etilgan.

Ayrim turkiy soʻzlar izohlanganda, oʻrni bilan ularning sinonimlari ham berilgan. Masalan: arabcha امرأة soʻzi turkiy *avrat* va *epchi*; arabcha امه soʻzi esa turkiy *qarnaq* va *qaravash* sinonim soʻzlari orqali ifodalangan. Muhimi, lugʻat qismida turkiy soʻzlarni berganda eʼtiborni oʻziga tortuvchi yozuv xususiyatlari kuzatiladi. Masalan, “alif” bilan boshlanuvchi ayrim soʻzlar qoʻshaloq “alif” bilan beriladi. Yoki kelib chiqishi asl turkiy boʻlgan ayrim soʻzlar arab tiliga xos itboq ص, ط harflari bilan ham yozilgan. Buning oʻziga yarasha sababi bor. Chunonchi, qoʻshaloq “alif” unlilardagi “birlamchi choʻziqlik”ni ifodalashga xizmat qilgan: الو – *a:v* (“ov; tuzoq”); القين – *a:qin* (“sel, oqin”) singari. Turkiy tilga xos boʻlmagan itboq harflar esa, [c], [t] tovushlarining “yoʻgʻon” variantini bildirgan: صوغان – *sogʻan* (“piyoz”); طامغا – *tamgʻa* (“tamgʻa, muhr”) singari¹.

Ayonki, turkiy tillarda singarmonizm hodisasi muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif ana shu hodisani oʻziga xos xususiyatlari boʻyicha ham ayrim nazariy maʼlumotlarni berib oʻtgan. U qipchoq tilidagi jumla va uning tuzilishini tahlil etish jarayonida mazkur hodisani izohlab, quyidagilarni yozadi:

¹ Содиқов Қ. Тарихий лексикография. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2012. –Б 33.

“Jumla ikki xil: ismli jumla, fe’lli jumla bo’lishi mumkin. Mavsul zarfda va majrurlarda *-g’i*, *-qi*, *-ki*, *-gi* qo’shimchalari bilan ifodalanadi. Bu qo’shimchalar bir xil ma’noda bo’lib, *-g’i* va *-qi* yo’g’on so’zlarda, *-ki* va *-gi* ingichka so’zlarda keladi”. Muallif turli tipdagi bog’lanishlar va aniqlovchili birikmalarni *mavsul*, qaratqich hamda o’rin-payt kelishiklarini *majrur* va *zarf* deb atagan. Masdar to’g’risida fikr yuritganda ham singarmonizm masalasiga to’xtalib o’tadi: “Masdarning belgilari ko’pdir. Ulardan biri yo’g’on so’zlarda *-maq*, ingichka so’zlarda *-mäk* shaklini qo’shish orqali yasaladigan turidir,” – deb yozadi muallif. Bunga misol sifatida *almaq*, *turmaq*, *ketmäk*, *kelmäk* kabi so’zlarni keltirib o’tadi [AZ,117].

Hozirgi o’zbek adabiy tilining lug’atdagi leksik birliklarga munosabatiga ko’ra so’zlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhdagilarni hozirgi o’zbek tilida qo’llanuvchi so’zlar tashkil etadi. Bunga *täñri* (tangri) [AZ,11], *qizil* (qizil) [AZ,11], *qara* (qora) [AZ,11], *burun* [AZ,13], *qulaq* (quloq) [AZ,14], *arслан* (arslon) [AZ,15], *aniqladi* (aniqladi) [AZ,19], *körgäzdi* (ko’rgazdi, ko’rsatdi) [AZ,21], *qiz* (qiz) [AZ,23], *savug* (sovuq) [AZ,24] kabi so’zlarni aytib o’tish mumkin. Mazkur guruhga kiruvchi leksik birliklar hozirgi o’zbek adabiy tilida ham, jonli so’zlashuv tilida ham faol qo’llaniladi.

Ikkinchi guruhdagilarni hozirgi o’zbek adabiy tilida qo’llanilmaydigan, eskirgan, iste’moldan chiqqan so’zlar tashkil etadi. Bunga doir so’zlar jumlasiga *tamaqsav* (ochko’z) [AZ,12], *käshäl* (sochi to’kilgan odam) [AZ,12], *taz* (kal) [AZ,12], *sangrav* (kar, soqov) [AZ,13], *muñ* (befahm) [AZ,24], *sug’an* (piyoz) [AZ,26], *baqcha* (bo’ston) [AZ,28], *qapu* (eshik, darvoza) [AZ,28], *tilmach* (tarjimon) [AZ,31], *quna//duna* (ikki yoshli ho’kiz bolasi) [AZ,38], *uchmaq* (jannat) [AZ,38], *tamu* (do’zax) [AZ,38], *buz* (qirov) [AZ,38], *käshir* (sabzi) [AZ,41], *yaziq* (kamchilik, ayb) [AZ,50], *tabu* (xizmatchi) [AZ,50], *igi* (yaxshilik) [AZ,50], *shag’ir* (may) [AZ,51], *bursh* (qarz) [AZ,55], *susmor* (to’qmoq) [AZ,56] kabilarni aytib o’tish mumkin.

Mazkur guruhdagi soʻzlarning aksariyati hozirda oʻzbek xalq shevalari, chunonchi, qipchoq-oʻgʻuz shevalarida qoʻllaniladi. Bunga misol sifatida *kent*, *kärvich//kärbich*, *qapu*, *sürüg*, *käshir* soʻzlarini aytish mumkin. *Kent* soʻzi Janubiy Xorazm shevalarida *qishloq* [OʻXShL,141], *kärvich* soʻzi Xiva, Urganch shevalarida *gʻisht* [OʻXShL,142], *qapu* soʻzi Xorazm shevalarida *eshik* [OʻXShL,156], *sürüg* soʻzi Janubiy Xorazm va Qashqadaryo shevalarida *guruh*, *toʻda* [OʻXShL,244] va *käshir* soʻzi Janubiy Xorazm shevalarida *sabzi* [OʻXShL,66] maʼnolarida hozirda ham qoʻllanishda davom etmoqda.

Alohida taʼkidlab oʻtish lozimki, “Attuhfa” soʻzligida keltirilgan koʻplab soʻzlar Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida uchraydi. Bunga misol sifatida *tuturgʻan//birinch* (guruch) [AZ,16], *üki//uxi* [AZ,25], *bäsräk* (erkak tuya) [AZ,26] kabi soʻzlarni aytib oʻtish mumkin. “Attuhfa”da keltirilgan *sinäk* soʻzi [AZ,26] “Devonu lugʻotit turk” asarida ham mavjud boʻlib, Mahmud Koshgʻariy uni “shaharda *pashsha*, sahroda *chivin* maʼnosida tushunadilar”, deb aytadi [DLT,I,378].

Lugʻatda *sart* soʻzi *qora xalq* maʼnosida izohlangan. Uning arabcha nomi *omi* (savodsiz, oʻqimagan; avom) deb keltirilgan [AZ,85]. Boshqa bir oʻrinda *sart//tat* shaklida qoʻllanilgan boʻlib, uning izohi *shaharli* deb izohlangan [AZ,44]. “Attuhfa” asari muallifi qipchoq tilida *olam* maʼnosida *el* va *elkun* soʻzlari qoʻllanilganligini aytib oʻtadi [AZ,24].

Grammatikaga bagʻishlangan uchinchi bobda qipchoq tiliga xos morfologik va sintaktik xususiyatlar arab tili grammatikasi asosida talqin etilgan. Unda nazarda tutilgan tilga xos morfologik va sintaktik xususiyatlar alohida-alohida mavzular boʻyicha oʻrganilgan. Mavzularning nomi “Olmoshlar”, “Ishorat ismlari”, “Kichraytirish”, “Ismi foil”, “Joy nomi”, “Qurol ismi”, “Masdar”, “Koʻpliklar”, “Sonlar”, “Gap tarkibi”, “Ega va kesimlar”, “Hol” kabilardan iborat. Masalan, muallif “Sonlar boʻlimi”da qipchoq tilidagi sonlarni toʻrtta darajaga ajratadi: *birlar* (birdan oʻnga qadar

bo'lgan sonlar) – *bir, ikki, uch, dort, besh, alti, yadi, segiz, tog`uz*; o'nlar (o'ndan yuzga qadar bo'lgan sonlar) – *on, yegirmi, ottuz, qirq, elli, atmish, yetmish, sksan, toqsan* [AZ,9].

Shundan so'ng muallif yuzdan mingga qadar bo'lgan sonlar haqida fikr yuritadi. Bunday sonlar sifatida *ikki yuz, ych yuz* kabilarni misol sifatida aytib o'tadi. Mingdan katta miqdorni bildiruvchi sonlar xususida ma'lumot bermagan. Tartib, jamlovchi va taqsim sonlar to'g'risida qisqacha izoh berib, taqsim sonlarning –*ar//är* affiksi bilan yasalganlari bo'yicha misollarni keltirib o'tadi: *ikishar* (ikkitadan), *beshar* (beshtadan) [AZ,128]. Izoh sifatida aytish mumkinki, mazkur shakl taqsim son ifodalanishining qadimgi usuli bo'lib, o'zbek tilida uning qo'llanishi, asosan, XV asrgacha davom etgan¹.

Asarning qimmatli tomoni shundaki, unda turli soha va yo'nalishlarga oid leksik birliklar keltirilgan. Ularni ayrim mavzu guruhleri bo'yicha quyida tasniflashga harakat qilamiz:

1. Qon-qarindoshlik va yaqinlik tushunchasini anglatuvchi so'zlar: *ata//ada//äbä//dada* (ota), *ana* (ona), *qardash* (yor-birodar), *qizqardash* (singil) [AZ,11]; *qiz* [AZ,23]; *küyäv* (kuyov), *qaynana* (qaynona) [AZ,44]; *avrat* (xotin) [AZ,13] va boshq.

2. Hayvon va parranda nomlari – zoologik terminlar: *arслан* (arslon), *itlaqaz* (bir xil qush), *tavshan//qiyän* (quyon), *zag`isg`an* (zag`izg`on) [AZ,15]; *tog`an* (lochin), *ükü* (uki), *ördäk* (o'rdak), *avug`az* (bir xil qush), *qutan* (qush), *qalak* (burni uzun qush), *qaraqaz* (xonaki g`oz), *talaqaz* (yovvoyi g`oz) [AZ,25]; *sig`ir* (sigir), *qatir* (xachir), *qarsaq//shaqal* (chiya bo'ri) [AZ,26]; *täkä* (echki), *goduq* (xo'tik), *tüvä* (tuya) [AZ,31]; *eshäk*, *yapag`li* (toycha), *bota* (bo'taloq), *shishäk* (echki bolasi) [AZ,46]; *oqarchin* (kaptar), *shörshäk* (qari tuya), *keklik* [AZ,47]; *ayu* (ayiq), *tavuq*, *chumuq* (chumchuq) [AZ,55] va h.k.

¹ Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973. – Б. 87.

3. Shaxsning xarakter-xususiyatini ifodalovchi soʻzlar: *kösä*, *tamaqsav* (ochkoʻz), *shashi* (kunduz koʻrmovchi), *käshäl* (sochi toʻkilgan odam), *taz* (kal), *kör*, *soqur* (bir koʻzli), *shapaqli* (koʻz yoshi tinmay oquvchi) [AZ,12]; *sangrav* (kar), *qingirayäk* (qiyshiq ogʻizli), *sholaq* (choʻloq), *bükri*, *aqsaq* [AZ,13] va boshq.

4. Rang maʼnosini bildiruvchi soʻzlar: *aq*, *qara*, *qizil*, *sari*, *yashil*, *kök*, *ala* [AZ,11]; *yilmanik* (moviy rang), *qara yuruz* (xira qora) [AZ,12] va h.k.

Bulardan tashqari lugʻatda yana quyidagi mavzuiy guruhlariga kiruvchi soʻzlar keltirilgan: kishi yoshini, vaqt, zamon tushunchasini ifodalovchi soʻzlar, fitonimlar, uy-roʻzgʻor buyumlari nomi, oziq-ovqat va ichimlik anglatuvchi soʻzlar, tabiat hodisalari va koinot jismlari nomlari, etnonimlar, narsa-buyum, miqdor, hajm, oʻlchov nomlari, harakat-holat hamda mavhum tushunchalarni anglatuvchi soʻzlar.

Soʻzlikda *-chi* affiksi bilan yasalgan soʻzlar koʻp uchraydi. Bundan anglash mumkinki, mazkur davrda ushbu affiksning soʻz yasash imkoniyati keng boʻlgan. U otga qoʻshilib, kasb-hunar, mansab maʼnosini ifodalovchi ot yasagan. Bunga doir ayrim misollarni keltirib oʻtamiz: *tamgʻachi*, *kemächi*, *elchi* (tez chopar, pochtachi) [AZ,8]. Soʻzlikda *-chi* affiksi feʼlga qoʻshilib, kasb-hunar, mansab maʼnosini ifodalovchi otlar yasalgan soʻzlar ham uchraydi: *avlavchi* (ovchi) [AZ,22], *toquvchi* (toʻquvchi) [AZ,46].

Shuningdek, *-lik* affiksi bilan yasalgan soʻzlar ham asarda koʻp miqdorda mavjud. Maʼlumki, Mahmud Koshgʻariy “Devonu lugʻotit turk” asarida bu affiksning jarangsiz [q, k] undoshlari bilan kelgan variantlari ot yasash uchun, jarangli [gʻ, g] undoshlari bilan kelgan variantlari esa sifat yasash uchun xizmat qilishini aytib oʻtgan [DLT,I,167]. Lugʻatda mazkur affiks bilan yasalgan quyidagi kabi soʻzlar izohlangan: *iglig* (xastalik), *qalinliq* (qalinlik), *aydinlik* (yorugʻlik) [AZ,36].

“Attuhfa” asarida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, diniy va ma’rifiy sohalarga doir ko’plab qipchoq tili so’zlari keltirilgan bo’lib, ular asosida turkiy xalqlarning tarixini atroflicha bilish, o’sha davrga xos turmush tarzi xususiyatlarini aniq anglash imkoniyati mavjud. Alohida ta’kidlash o’rinliki, so’zlik turkiy leksikografiya tarixida katta ahamiyatga ega bo’lib, uning rivojida muhim o’rin tutadi. Shunga ko’ra asar turkiy tillar tarixini, uning taraqqiyot bosqichlarini o’rganishda, leksikasida yuz bergan semantik va miqdor o’zgarishlarini belgilashda asosiy manbalardan biri bo’lib qoladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Arab dunyosida turkiy tilni o’rganishga bo’lgan ehtiyojning ijtimoiy-siyosiy sabablarini tushuntiring.
2. “Attuhfatuz zakiyatu fillug`atit turkiya” asarini tavsiflang.
3. “Attuhfa” asarining tuzilishi va unda so’zlarning izohlanish tamoyillari bo’yicha ma’lumot bering.
4. Hozirgi o’zbek adabiy tilining “Attuhfa” lug`atidagi leksik birliklarga munosabatini so’zlab bering.
5. “Attuhfa” asarining ilmiy-tarixiy jihatdan ahamiyatini tushuntirib bering.

«O’G`UZNOMA» ASARI VA UNING TILI

E’tibor qaratiladigan masalalar:

1. “O’g`uznoma” asari va uning qo’lyozma nusxalari.
2. Asarda qadimiy turkiy qavmlar nomi va izohi.
3. Asarning til xususiyatlari, lug`at tarkibi va undagi so’zlarning tarixiy-etimologik qatlamlari hamda mavzuiy guruhlari.

4. “O’g’uznoma” asarining ayrim lug’aviy-badiiy xususiyatlari.

Turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, adabiyoti va tili bilan bog’liq masalalarni o’rganishda barcha turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi “O’g’uznoma” asari muhim ahamiyatga ega. Mazkur asarning, asosan, ikkita qadimiy qo’lyozma nusxasi mavjud. Birinchisi, qarluq-uyg’ur tili xususiyatlarini o’zida aks ettiradi. Ushbu epik asar turkiy xalqlarning asosiy o’zak qismlaridan birini tashkil etuvchi o’g’uzlar, ularning shakllanishi, shajarasi va afsonaviy hukmdori O’g’uz xoqon haqida bo’lib, uyg’ur yozuvida bitilgan. Qirq ikki sahifali asarning asl nusxasi taxminan XV asrda ko’chirilgan, Oltin O’rda xoqoni To’xtamishning kutubxonasida saqlangan, hozir Parijdagi Milliy kutubxonaning “Turkiy asarlar” bo’limida saqlanadi. Mazkur qo’lyozma nusxasida Ko’k Tangri diniga doir ayrim xususiyatlar mavjud bo’lib, islom va buddizm diniga oid elementlar deyarli uchramaydi. Shunga ko’ra bu nusxani mutaxassislar eng qadimiy nusxa sifatida belgilaydilar.

O’g’uzxon haqidagi afsonaning ikkinchi qadimiy nusxasi XIV asrda yashagan Rashiddidinning “Jome’ at-tavorix» kitobida mavjud. Asarda turkiy qavmlarning yuzaga kelishi hamda yigirma to’rtta turk qavmiga nom berilishi bilan bog’liq bir necha rivoyat hamda afsonalar keltirilgan. Ular orasida O’g’uz xoqonga bag’ishlangan afsona ham bor. Shuningdek, asarning arab yozuvida tartib qilingan ikkita qo’lyozma nusxasi O’zbekiston Fanlar akademiyasining Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Bular keyingi davrlarda ko’chirilgan nusxalardir.

«O’g’uznoma»ning turli variantdagi versiyalari bor. Uning eng ko’p tarqalgan varianti Abulg’ozi Bahodirxonning «Shajarayi turk» (1669) asarida saqlangan. «Kitobi dadam Qo’rqut» (“Qo’rqut ota kitobi”)ning o’n ikkita bobidan biri ham «O’g’uznoma» nomi bilan ataladi. «O’g’uznoma» ko’p tillarga, jumladan, nemis (1815), rus (birinchi marta – XIX asrning oxiri;

ikkinchi marta –1959) va boshqa tillarga tarjima qilingan. “O’g’uznoma”ning uyg’ur yozuvidagi asl matni va uning o’zbek tiliga o’girilgan variantini tilshunos Baxtiyor Isabekov nashrga tayyorlab, uni 2007-yilda chop ettirdi¹.

Asarning yaratilish vaqtini dostonning ko’chirilgan davri, ya’ni XV asr bilan bog’lab bo’lmaydi. Asarda tasvirlangan voqealar, undagi miflar ancha qadimiydir. Shunga ko’ra tadqiqotchilar tomonidan asarning miloddan avvalgi II asrlarda yaratilganligi bo’yicha qarashlari ilgari surilgan².

Dostonda turkiy xalqlarning eng qadimgi davrlaridan milodimizgacha bo’lgan hayotining turli belgilari umumlashgan. Unda turkiy qabila va urug’lar tarixi haqidagi mifik tasavvur ifodalari muhim o’rin olgan. «O’g’uznoma» O’g’uz xoqonning tug’ilishidan keksaygan so’nggi davrigacha bo’lgan voqealarni qisqa syujetlarda tasvirlab beradigan dostondir. Shunga ko’ra, bu asarni katta bir eposning bo’laklari yoki bir necha qahramonlik eposlaridan olingan parchalar O’g’uz xoqon nomi bilan bog’langan deyish mumkin. *O’g’uz* so’zining dastlabki shakllari *o’kuz*, *ho’kuz* bo’lgan degan qarashlar mavjud.

Ayonki, qadimgi miflarda beligacha ho’kiz bo’lgan Ho’kiz odam obrazi tasvirlangan. Mifologiyaga ko’ra, Kayumars (Govmard) yer yuzida paydo bo’lgan birinchi odam bo’lib, go’yo u ikki vujudan: ho’kizdan va odamdan tashkil topgan. Insoniyatning ashaddiy dushmani Ahriman Kayumarsni o’ldiradi. Kayumars jasadining ho’kiz qismidan turli xil don va o’simlik, sigir va ho’kiz, ulardan esa juda ko’p foydali hayvonlar paydo bo’ladi; odam qismidan esa insonning erkak va ayol jinsi hamda metall vujudga keladi.

“O’g’uznoma” asarida O’g’uzning tug’ilganiga qirq kun bo’lganligidagi tasvirida uning oyoqlari ho’kizga o’xshatilishini mazkur mifologik obraz bilan bog’lash mumkin. Belining bo’ri beliga o’xshatilishi esa o’zlarini bo’ri

¹ Ўғузнома (Б.Исабеков нашрга тайёрлаган). –Т.: Ўзбекистон, 2007. -40 б.

² O’sha asar, 4-bet.

avlodidan hisoblagan turkiylarni eslatadi. Izoh sifatida aytish mumkinki, bo'ring erkin hayot tarzi, erkinlikdan boshqa sharoitda, chunonchi, tutqinlikda aslo yashay olmasligi, mardligi, sadoqati sabab turkiylar uni o'zlarining totemi deb bilgan.

Aytilganidek, "O'g'uznoma" asarida voqealar bayoni qisqa-qisqa jumlar vositasida berilgan. Har bir jumla ifodalanayotgan voqea haqida muhim ma'lumot berish vazifasini bajargan. Asarning qisqacha mazmuni quyidagicha: Tangri olamni yaratadi, unga Oy xoqonni hukmdor etadi. Kunlardan bir kun Oy xoqon o'g'il tug'adi. Doston mazmunidan anglashilishicha, tug'ilgan chaqaloq – O'g'uz yer yuzidagi birinchi inson, u g'ayritabiiy tug'ilgan. Izoh sifatida aytish mumkinki, qadimgi afsona va rivoyatlarning deyarli barchasida birinchi inson g'ayritabiiy tug'ilgan.

Oy xoqondan tug'ilgan o'g'ilning yuzi ko'k, og'zi otashday qizil, sochlari qora va farishtalardan ham chiroyliroq edi. O'sha o'g'il onasining ko'ksidan bir marta sut emib, undan so'ng boshqa ichmadi, tilga kirib, yaxshi go'sht, ovqat, ichimlik so'radi. Qirq kundan so'ng ulg'aydi. Oyog'i ho'kiz oyog'idek, bellari bo'ring bellaridek, yag'rini burgut yag'riniday, ko'kragi ayiq ko'kragiday edi. Ko'p kunlar, ko'p tunlardan so'ng yigit bo'ldi. O'rmonda bahaybat bir yirtqich bor edi, otlarni, odamlarni yer edi. O'g'uz nayza bilan yirtqichning boshiga urdi, uni o'ldirdi.

Kunlardan bir kun O'g'uz xoqon tangriga yolvordi. Ko'kdan bir yorug' nur tushdi. O'sha nurning orasida bir qiz bor edi. O'g'uz xoqon uni ko'rib o'zidan ketdi, sevib qoldi, uni oldi. U uch o'g'il tug'di. Ularga Kun, Oy, Yulduz otini qo'ydilar.

Kunlardan bir kun O'g'uz xoqon ovga ketdi. Bir daraxtning ostida chiroyli bir qiz yolg'iz o'tirar edi. Uning ko'zi ko'm-ko'k, sochi daryoning oqimidek, tishi inju kabi edi. O'g'uz xoqon uni sevib qoldi, unga uylandi. U

uchta o'g'il tug'di. Birinchisiga Ko'k, ikkinchisiga Tog', uchinchisiga Dengiz ismini qo'ydilar. O'g'uz o'zini xon deb e'lon qildi. Itil daryosidan o'tib ko'p yerlarni bosib oldi. Unga butun safari davomida ko'k bo'ri rahnamolik qildi. Bir kun tush ko'rdi. Tushida oltin yoy va uchta kumush o'q ko'rdi. Yoyni va o'qni farzandlariga berib, yurtni ularga meros qoldirdi.

«O'g'uznoma»da Ko'k bo'ri asar syujetini rivojlantiruvchi asosiy obrazdir. U O'g'uzxonga bir necha marta yo'l-yo'riq ko'rsatadi, uni xavfdan ogoh qiladi, unga g'alaba xabarini beradi. Asar tilida qadimiy turkiy qavmlar nomi ko'p uchraydi. Bunga misol sifatida *Qang'li* urug'ining nomini aytib o'tish mumkin. Qang'li turkiy xalqlarning miloddan avvalgi asrlarda shakllangan qabilalaridan biridir. Afsonada bu nomning kelib chiqish sababi quyidagi voqea bilan izohlanadi: “Jurjit xoqonining xalqi O'g'uz xoqonga qarshi turadi. Urush boshlanadi. O'g'uz xoqon g'alaba qiladi. Jangdan so'ng O'g'uz xoqonning qo'shini shunday katta o'ljaga ega bo'ladiki, ularni yuklashga, olib ketishga ot, xachir, ho'kiz kamlik qiladi. O'g'uz xoqonning qo'shinida chaqqon, gavdali bir yaxshi odam bo'ladi. U bir arava yasaydi. Arava ustiga o'lik o'lja (mol-mulk)ni yuklaydi, aravaga esa tirik o'lja (asir)ni qo'shadi. Navkarlarning hammasi buni ko'rib, ular ham aravalar yasaydilar. Aravalar yurganda «qang'a, qang'a» degan ovoz chiqaradi. Shuning uchun ularga *qang'a* deb ot qo'ydilar. O'g'uz xoqon aravalarni ko'rdi, kuldi. Aytdiki, o'lik (mol)ni tirik (mol) tortib borsin. “Qang'alug'” senga nom bo'lsin, «qang'a» senga nishon bo'lsin, seni bildirsin” [O'N, 29].

Ma'lumki, turkiylar qadimda aravani *qang'li* deb atashgan. Asarda qadimiy turkiy qabilalardan biri *qang'li* urug'i nomidan tashqari *uyg'ur* [O'N,14], *churchit* [O'N,26], *qipchaq* [O'N,22] kabi urug'larning nomi ham qayd etilgan. Asarda juda ko'plab kishi ismlari (antroponimlar) ham uchraydi. Ular jumlasiga *Oy qag'an* [O'N,8], *O'g'uz qag'an* [O'N,10], *Kun* [O'N,12], *Ay* [O'N,12], *Yulduz* [O'N,12], *Ko'k* [O'N,14], *Tag'* [O'N,14], *Tengiz* [O'N,14],

Altun qag`an [O`N,16], *Urum qag`an* [O`N,16], *Urus beg* [O`N,20], *O`rdubek* [O`N,22], *To`murdu kag`ul* [O`N,26], *Churchit qag`an* [O`N,26], *Barmaqlug` Yo`sun Billik* [O`N,28], *Masar qag`an* [O`N,30], *Ulug` Turuk* [O`N,30] kabilarni aytib o`tish mumkin. Ko`rinib turibdiki, ismlarning barchasi tarixiy-etimologik nuqtai nazardan umumturkiy qatlamga xos. Asarda Islom dini bilan bog`liq arabiy ism deyarli uchramaydi. Bundan anglashiladiki, asarda tasvirlangan afsonaviy voqealarning badiiy mazmuni VIII asrdan ancha oldin, Islom dini turkiylar hayotiga kirib kelishiga qadar shakllangan.

Asarda keltirilgan ismlardan qadimda kishilar o`zlarini olam va tabiat bilan uyg`un, ular bilan o`zaro bog`liq holatda tasavvur qilganliklarini bilib olish mumkin. O`g`uz xoqon farzandlariga *Kun*, *Ay*, *Yulduz*, *Ko`k*, *Tag`* va *Tengiz* ismlarining qo`yilishiga e`tibor berilsa, ular osmon jismlari, tabiat, tog` va dengiz nomlari asosida qo`yilgan: quyosh (*Kun*), oy (*Ay*), yulduz (*Yulduz*), osmon (*Ko`k*), tog` (*Tag`*), dengiz (*Tengiz*) kabi. Asarda uchta tog` nomi – *Muztag`* [O`N,16], *Sindu* [O`N,28], *Tangut* [O`N,28]; bitta daryo nomi – *Itil* [O`N,19]; bitta joy nomi – *Barqan* [O`N,28] qo`llanilgan. Daryo ma`nosi asarda *muran*, *talun* va *o`kuz* so`zlari orqali ifodalangan bo`lib, ba`zan *muran* so`zi *irmoq* ma`nosida ham qo`llanilgan [O`N,8].

Asarda umumturkiy [*kun*, *ko`k*, *o`g`il*, *til*, *bel*, *ot*, *yigit*, *tong*, *ko`krak*, *tish*, *soch* kabi], qadimgi turkiy [*chirag`* (yuz, aft), *o`kuz* (daryo), qaliq (eshik), *emgak* (mehnat, mashaqqat), *qabuchaq* (qobiq, kovak), *to`ruluk* (hokimiyat), *al* (olovrang) kabi] so`zlar asosiy qatlam sifatida namoyon bo`lgan. Shu bilan birga asar tilida oz miqdorda bo`lsa ham forsiy va arabiy so`zlar uchraydi. Bunday so`zlar jumlasiga arabiy *salla* [O`N,30], *shag`am* (shom) [O`N,28]; forsiy *do`st* [O`N,16], *kish* (qunduzning bir turi) [O`N,8] kabilarni aytish mumkin. Arabiy *xalq* so`zi ma`nosida *el-kuni* so`zi qo`llangan: *Andag` ko`ruklik erdikim*, *yerning el-kuni ani ko`rsa*, *ay-ay*, *ah-ah*, *o`larbiz tep*.

(Shunchalik chiroyli edikim, uni ko'rgan xalq "hoy-hoy, voh-voh, o'lib qolamiz" der) [O'N,12].

Bitikda ov va urush lavhalari asosiy o'rin tutadi. Shunga ko'ra asar tilida hayvon va qurol-aslaha nomlari ko'p uchraydi. Hayvon nomlaridan *bo'ri* [O'N,8], *kish* (qunduzning bir turi) [O'N,8], *adug`* (ayiq) [O'N,8], *at* (ot) [O'N,8], *kik* (yovvoyi hayvon, mahluq) [O'N,8], *yilqi* [O'N,8], *qush* [O'N,8], *qiat* (katta mahluq, karkidon) [O'N,8], *bug`u* [O'N,10], *shunqar* [O'N,10], *qulan* (qulon) [O'N,14], *buzaq* (buzoq) [O'N,26], *ud* (ho'kiz, sigir) [O'N,22], *qag`atir* (xachir) [O'N,28], *tag`uq* (tovuq) [O'N,34], *qo'y* [O'N,30] kabilarni aytib o'tish mumkin. E'tiborli jihati shundaki, *kik* so'zi bir o'rinda *yovvoyi hayvon*, *mahluq* ma'nosida, boshqa bir o'rinda *kiyik* ma'nosida qo'llangan.

Qurol-aslaha terminlardan *yida* (cho'qmor, gurzi) [O'N,10], *o'q* [O'N,10], *qilich* [O'N,10], *qalqan* [O'N,10], *ya* (yoy, kamon) [O'N,10], *cherig* (askar, lashkar) [O'N,16] kabilar istifoda etilgan. Urush, jang ma'nosini ifodalash uchun *atlag`u*, *to'qush//to'qushg`u*, *tutrulunch*, *urushunch*, *urushg`u//urushqu* va *so'g`urg`u* so'zlaridan foydalanilgan.

Asar tilida daraxt va uning qismlari nomlari – *tal* (tol) [O'N,10], *chubug`* (novda) [O'N,10], *ig`ach//yig`ach* (daraxt) [O'N,10]; ichguliklar nomi – *sut*, *qumuz* (qimiz) [O'N,12]; qimmatbaho toshlar nomi – *altun* [O'N,16], *kumush* [O'N,16], *yaqut* (yoqut) [O'N,16], *erdan* (qimmatbaho narsalar) [O'N,30] kabilar uchraydi. Qa'la, shahar, kent ma'nosini ifodalash uchun *baluq* [O'N,20], og`iz, birinchi sut ma'nosida *o'g`uz* [O'N,8], tomon, yo'nalish ma'nosida *kundunki* (janub), *sari* (tomon, yo'nalish), *cho'ng* (chap, so'l), *bulung* (tomon, taraf) kabi so'zlar qo'llangan. *Qiz* so'zi *ayol jinsli kishi* ma'nosidan tashqari *noyob*, *nodir* ma'nosini bildirgan.

Asarda ayrim so'zlar o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda ham qo'llanilgan. Bunga misol sifatida qadimgi turkiy *yig`ach* so'zini aytish

mumkin. O'g'uz xoqon o'rmondagi bahaybat yovvoyi hayvonni daraxt tagida poylab turishi holatida *yig'ach* so'zi *daraxt* ma'nosida qo'llanilgan: *Kena o'sha yig'achning tubinda turdi* (O'zi o'sha daraxtning tagida kutib turdi) [O'N,10]. O'g'uz xoqon O'rusbek yurtiga qo'shin tortib borganda, O'rusbek o'g'li O'g'uz xoqonga "bizning urug'imiz – sening urug'ing", ya'ni mening sen bilan urug'imiz bitta, shu uchun sen bilan jang qilmayman, senga soliq to'layman, sen bilan sodiq do'st bo'lib qolaman, deydi: *Bizning urug'ibiz sening yig'achning urug'i bo'lmish bo'lup turur* (Bizning urug'imiz sening shajarangning bir tarmoq urug'idir). Bu erda *yig'ach* so'zi majoziy ma'noda, ya'ni *shajara, avlod* ma'nosida istifoda etilgan [O'N,22].

Asar tilida o'xshatish (tashbih)lar juda ko'p qo'llangan. Masalan, O'g'uz xoqon tug'ilganda uning og'zi qizil olov (otash)ga o'xshatiladi: *Ag'izi atash qizil erdi* (Og'zi otash kabi qizil edi) [O'N,8]. O'g'uz xoqon qirq kunlikdagi holati tasvirida esa uning beli bo'rining beliga, yag'rini silovsin yag'riniga tashbih qilinadi: *Bellari bo'ri bellaridek, yag'ri kish yag'ritek* (Bellari bo'ri bellaridek, yag'rini kish (silovsin) yag'ridek) [O'N,8]. O'g'uz xoqon sevib qolgan nur, yorug'lik ichidagi qizning tasvirida uning yuzidagi katta xoli oltin qoziq yulduziga o'xshatiladi: *Bir mengi bar erdi, altun qaziqteg erdi* (Bir katta xoli bor edi, xuddi oltin qoziq yulduzidek edi) [O'N,12].

Asarda *aq* (oq) [O'N,8], *al* (qizil) [O'N,8], *qara* (qora) [O'N,8], *ko'k* [O'N,8], *ko'krak* (ko'kroq) [O'N,12], *qip-qizil* [O'N,20], *apaq* (oppoq) [O'N,24] kabi rangni bildiruvchi so'zlar qo'llangan bo'lib, ular orasida ko'k rangga alohida e'tibor berilgan. Shunga doir ayrim misollarni quyida keltirib o'tamiz:

1. O'g'uz xoqon ikkinchi marta sevib qolgan qizning ko'zlari tasvirida uning ko'zlari "ko'ktun ko'krak" deb berilgan: *Ko'ruklik qiz erdi. Anung ko'zi ko'ktun ko'krak erdi* (Ko'rkam bir qiz edi. Uning ko'zi ko'kdan ham ko'kroq edi) [O'N,12].

2. O'g'uz xoqonga yo'l boshchilik qilgan bo'ri ko'k tukli, ko'k yolli sifatida tasvirlangan: *Ko'k tuluklug, ko'k yallug', beduk bir erkak bo'ri yuruguda turur* (Ko'k tukli, ko'k yolli, katta bir bo'ri ketmoqda) [O'N,18].

3. Asarda keltirilishicha, O'g'uz xoqon tug'ilganida uning yuzi ko'k bo'lgan: *O'shul o'g'ulning o'nnglugi chiraqi ko'k erdi* (O'sha o'g'il yuzining rangi ko'k edi) [O'N,8].

O'g'uz xoqon va uning eli Ko'k Tangriga sig'ingan. Asardagi bir lavhada bu yaqqol o'z ifodasini topgan. O'g'uz xoqon tun qorong'uligida kundan yorug'roq, oydan ravshanroq nur ichida o'tirgan bir qizni sevib qolishi voqeasida qizning tasviri quyidagicha berilgan: *O'shul qiz andag' ko'ruklug' erdikim, kulsa Ko'k Tangri kula turur, yig'lasa Ko'k Tangri yig'layu turur* (Bu qiz shunchalik ko'rkam edikim, kulsa Ko'k Tangri ham kular, yig'lasa Ko'k Tangri ham yig'lar edi) [O'N,12].

Ayonki, qadimgi turkiy tilda *ko'k* omonimi, aniqroq qilib aytsak, omoleksemasi *ko'k rang; osmon, koinot; ko'kat; chok chizig'i; ko'zning rangdor pardasi (ko'k ko'z); qush nomi; erkak mushuk nomi; biror shaxsning xizmati uchun beriladigan nom; unvon* ma'nolaridan tashqari *erk, erkin, ozod, mustaqil* ma'nosida ham qo'llangan [DTS,312]. Muhim jihat shundan iboratki, insonning ko'zi va yuzi, bo'rining esa tuki hamda yoli ko'k rangda ifodalanishi bilan *Ko'k Tangridagi ko'k* so'zida o'zaro bog'liqlik bor.

“O'g'uznoma” asarida turkiy xalqlarning turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli, ma'naviy olami, diniy qarashlari va orzu-umidlari ma'lum darajada aks etgan. Uning tilida qo'llangan leksik birliklar buni to'liq dalillaydi. Bu so'zlar orqali turkiy xalqlarning uzoq o'tmishdagi tarixi, adabiyoti va tilini o'rganish mumkin. Shunga ko'ra mazkur asarning til xususiyatlari, lug'at tarkibi, so'zlarning tarixiy-etimologik qatlamlari, mavzuiy guruhlari, undagi

o'z va ko'chma ma'noli so'zlarni o'rganish hamisha ahamiyatli hamda dolzarb bo'lib qoladi.

Savol va topshiriqlar:

1. "O'g'uznoma" asari va uning qo'lyozma nusxalari bo'yicha ma'lumot bering.
2. Asarda qadimiy turkiy qavmlar nomi va izohi xususida nimalarni bilasiz?
3. Asarning til xususiyatlari, lug'at tarkibi va undagi so'zlarning tarixiy-etimologik qatlamlari hamda mavzuiy guruhlari bo'yicha tushuncha bering.
4. "O'g'uznoma" asarining o'ziga xos lug'aviy-badiiy xususiyatlari nimalardan iborat?

NOSIRUDDIN BURHONUDDIN RABG`UZIY

"QISASI RABG`UZIY" ASARI VA UNING TIL XUSUSIYATLARI

1. Burhonuddin Rabg`uziy va uning "Qisasi Rabg`uziy" asari xususida.
2. "Qisasi Rabg`uziy" asarining qo'lyozmalari, nashri va o'rganilishi.
3. Asarning o'ziga xos morfologik va leksik-semantik xususiyatlari.
4. Asar tilida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy sohalarga oid so'zlar.
5. Hozirgi o'zbek adabiy tilining asar tilidagi leksik birliklarga munosabati.

Nosiruddin Burhonuddin o'g'li Xorazmning Raboto'g'uz degan joyidan bo'lib, XIII asr oxiri – XIV asr birinchi yarmida yashagan. Uning Rabg'uziy taxallusini olishi ham tug'ilib o'sgan joyi nomi bilan bog'liq. Allomaning hayoti hamda ijodiy faoliyati haqida juda kam ma'lumot saqlanib qolgan. Uning bizgacha “Qisasi Rabg'uziy” asarigina etib kelgan, xolos.

Asarning turli davrlarda ko'chirilgan bir necha qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lib, ular dunyoning qator kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda. Qo'lyozmalarning dastlabkisi XV asrda kitobat qilingan bo'lib, hozir Britaniya muzeyida saqlanadi. Jami 248 varaq, har bir betida 21 qator yozuvdan iborat bu nusxa adibning tirikligi chog'ida – 1340-(hijriy 740-) yilda ko'chirilgan degan fikr ham mavjud¹.

Eski qo'lyozmalardan yana biri Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida saqlanayotgan nusxa bo'lib, u XV–XVI asrlarga mansub deya taxmin qilinadi. Asarning boshqa qo'lyozmalari keyingi yuzyilliklarga oid, turli saviyadagi kotiblar tomonidan ko'chirilgan, o'z davri adabiy tiliga muvofiqlashtirilgan. Ya'ni qo'lyozmalar kitobat qilingan paytdagi tilning ta'siri katta. Oxir-oqibatda matn tili va uslubi o'zgarishlarga uchragan. Shvetsiya, Parij, Boku, Toshkent nusxalari shular jumlasidandir².

Asar Raboti o'g'uzning begi, islom dinini qabul qilgan, mo'g'ul beklaridan bo'lgan Nosiruddin To'qbug'abekning iltimosiga binoan hijriy 709-710-(milodiy 1309-1310-) yillarda bitilgan.

To'qbug'a bekklik qilgan qal'a – Raboto'g'uz hozirgi davr yodgorliklari ro'yxatida To'qqal'a nomi bilan qayd etilgan. Bundan ko'rinadiki, Nosiruddin Burhonuddin o'g'li Xorazm (hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus

¹ Останақулов И. Қисаси Рабғузий – адабий асар: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. –Т., 1993. –Б. 3.

² Абдушуқуров А. «Қисаси Рабғузий» лексикаси. –Т.: Академия, 2008. –Б. 9.

tumani)ning o'g'uzlar maskan tutgan Raboto'g'uz – To'qqal'a degan joyidan bo'lgan¹.

Nosiruddin Rabg'uziy o'z asarini yaratish jarayonida nihoyatda katta tayyorgarlik ishini olib borgan, ushbu mavzuga oid o'nlab arab, fors, turkiy tillardagi anbiyolar qissalarini chuqur o'rgangan. Qur'on, hadislarini mukammal bilgan, aruz she'riyati qonuniyatining bilimdoni bo'lgan. Dastavval asarning ilk variantini hozirlagan, uning ustida tinimsiz mehnat qilgan, har bir jumla, har bir kalimaning ma'nodagi nozik farqlarini chuqur his qilgan. Eng so'nggi variantini bir yilda nihoyasiga etkazib, ko'chirib chiqqan.

Turkiy xalqlar o'rtasida «Qisasul-anbiyo» nomi bilan mashhur bo'lgan mazkur yodnomada qayd etilgan payg'ambarlar haqidagi qissalar, hikoyatlar va rivoyatlarning aksariyati Qur'oni karim, Hadisi sharif va boshqa diniy manbalar asosida yaratilgan. Bu asar chingiziylar hukmronligi davom etayotgan bir davoda Volga bo'ylaridan to Xitoy chegaralarigacha cho'zilgan ulkan hududda mo'g'ullar qanday turkiylashayotganini va islom ta'limotini turkiy tilda «o'qimoqqa keraklik, o'rganmakka yarog'liq» kitoblar orqali qabul qilib musulmon bo'layotganini ko'rsatadigan ajoyib tarixiy dalildir².

Bu yodgorlik insoniyat jamiyati taraqqiyoti tarixini ilk bora turkiy tilda bayon etib bergan, turkiy xalqlarni jahon diniy-ma'rifiy qadriyatlaridan bahramand etishga bundan etti asr avvalroq xizmat qila olgan ma'naviy boyliklardan biri sanaladi³.

Abdurauf Fitrat asar tili xususida quyidagilarni yozadi: “Chig'atoy adabiyotining eng birinchi asari sanalg'an Rabg'uziy “Qisasul-anbiyo” sining shevasi “Qutadg'u bilig”, “Hibatul-haqoyiq” kabi xoqoniy turkchasi yozilg'on kitoblarning shevasini eslatadir. Zotan, chig'atoy turkchasi o'zidan

¹ O'sha asar, 21-bet.

² Кодиров П. Тил ва эл. –Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. –Б. 40-41.

³ Останақулов И. Қисаси-Рабғузий – адабий асар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. –Т., 1993. –Б. 19.

yuzlab yil burun hukum surgan bir adabiy shevani oz vaqtda yo'qotib, uning joyini o'zi ololmas edi"¹.

Fitratning ushbu fikrlaridan anglashiladiki, "Qisasi Rabg`uziy" asarining tili eski turkiy adabiy tilining eng nodir namunalari hisoblangan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg`u bilig" va Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq" asarlari tiliga juda yaqin. Demak, XI asr boshlarida shakllangan eski turkiy adabiy til XIII asr oxiri – XIV asr birinchi yarmiga kelib ham katta o'zgarishga uchramagan.

Bir so'z bilan aytganda, *d (dz)* adabiy tilining so'nggi namunalardan sanalgan qissa qadimgi turkiy til bilan eski o'zbek tili o'rtasidagi o'tish davrini aks ettirish barobarida, bir tomondan, Sharqiy Turkiston tili xarakterini ko'rsatib bersa, ikkinchidan, unda XIV asrdan so'ng yaratilgan asarlarning til xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Obidaning o'zi esa qarluq tillari zaminida yuzaga kelgan bo'lib, unda o'g`uz tili unsurlari ham mavjud².

Asarning ayrim morfologik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Asar tilida jo'nalish kelishigi *-g`aru//gärü* affiksi variantiga ega: *tashqaru, qayg`aru, üngärü (oldinga)* kabi.

Asar tilida jamlovchi sonlar sanoq sonlarga *-ag`u/-ägü, -la/-lä, -ala/-älä, -äsi/-asī* affikslarini qo'shish orqali ifodalangan: *altag`u* (oltovlon), *bashägü* (beshavlon), *ikägü* (ikkovlon), *törtägü* (to'rtovlon), *üchälä* (uchov), *ikkäläs* (ikkalasi) kabi.

Tartib sonlar *-nch, -nchī/-nchi* qo'shimchalari asosida hosil qilingan: *üchünch//üchünchi* (uchinchi), *törtünch//törtünchi* (to'rtinchi) singari.

¹ Фитрат, Абдурауф. Тилимизнинг тарихий оқими / Танланган асарлар: Ж. IV. –Т.: Маънавият, 2006. –Б. 174.

² Мирзакаримова Ў. "Қисаси Рабғузий" тилининг морфологик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1969.- №1. –Б. 67-70.

Taqsim sonlar sanoq sonlarga *-ar/-är, -rar/-rär, -shar/-shär* affiksini qo'shish orqali ifodalangan: *birär, onar, altirar, ikkishär* kabi.

Asar tilida *yig`ach* (taxminan olti kilometrli masofa), *misqal* (4,35-4,86 gramm oralig`idagi og`irlik o'lchovi), *batman* (898,5 grammga teng og`irlik o'lchovi), *qari* (qo'l uchidan tirsakkacha bo'lgan o'lchov birligi), *arshun* (0,71 metr ga teng o'lchov birligi) kabi hisob so'zlar, ya'ni numerativlar ishlatilgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydigan o'zlik olmoshi *kendu* (o'z), belgilash olmoshlari *tekma* (har qaysi), *qamug`* (barcha) kabilar asar tilida ko'p uchraydi.

Asar tilida ishlatilgan aksariyat so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanishda davom etmoqda. Bunda so'zlar jumlasiga *el* (el, mamlakat), *yurt, yil, millat, buyruq, ko'k, qizil, beshik, idish, ko'zgu, suv* kabilarni aytish mumkin.

Ayrim so'zlar esa hozirgi o'zbek adabiy tilida ishlatilmaydi. *Alin* (peshona), *yaag`i* (dushman), *ayaq* (qadah), *ev* (uy), *o'g* (aql), *al* (hiyla), *idi* (sohib, ega; Xudo), *singak* (pashsha), *ayaqchi* (soqiy), *karpich* (g`isht), *etmak* (non), *bitigchi* (kotib), *etmakchi* (novvoy), *qapug`chi* (darvozabon), *tapug`chi* (xizmatchi), *tevachi* (tuyakash), *o'tachi* (tabib) kabi qadimgi turkiy tilga oid so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'molda mavjud emas.

Asar tilida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy sohalarga oid juda ko'p so'zlar qo'llangan. Ularning ayrimlarini quyida keltirib o'tamiz:

1. Antroponimlar: *Adam* (Odam ota), *Atika* (payg`ambarimizning xolasi), *Qosim* (payg`ambarimizning to'ng`ich o'g`li), *Kisra* (Eron shohi Anushirvon), *Iskandar* (Iskandar Zulqarnayn) va boshq. Bulardan tashqari asar tilida antroponimlardan payg`ambarlarning ismlari *Nuh, Ibrahim, Isa, Musa, Yunus, Yusuf*; payg`ambarlarning avlod-ajdodlari nomlari *Qabil, Yafas, Sam, Ham,*

Sara, Hajar, Maryam; Payg`ambar (s.a.v.) avlod-ajdodlarining ismlari *Abdullah, Amina, Fatima, Zaynab, Abu Talib, Hamza, Ibrahim, Hadisha*; xalifalar ismlari *Abu Bakr, Umar, Usman, Ali, Hasan, Husayn*; farishtalar ismlari *Azrail, Jabrail, Mikail, Israfil, Sarsabil* kabilar ham faol ishlatilgan.

2. Etnonimlar: *israil* (Ya`qub payg`ambar qavmi), *arab, juhud* (yahudiy), *mog`ul, tajik, türk, quraysh* (qabila nomi), *sart* (o`troq aholi) va boshq.

3. Toponimlar: *Xitay, Hindustan, Sham, Yaman, Falastin, Basra* (Iroqdagi shahar), *Balx* (Xurosondagi shahar), *Kufa* (Iroqdagi shahar), *Bayt ul-Muqaddas* (Falastindagi shahar), *Arafat* (Makkadagi tog`), *Uhud* (Madinadagi tog`), *Karbala* (Iroqdagi dasht nomi) va h.k.

4. Astroponimlar: *Arzu* (Utorud yulduzi), *Sevit* (Zuhra yulduzi), *Bug`day bashi* (Sunbula burji), *Quchiq* (Saraton) va h.k.

5. Kasb-hunarga oid nomlar: *avchi* (ovchi), *zindanchi* (zindonbon), *ashchi* (oshpaz), *baliqchi* (baliqchi), *yig`achchi* (duradgor), *temürchi* (temirchi), *bözchi* (to`quvchi), *qoychi* (cho`pon) va h.k.

6. Harbiy sohaga oid so`zlar: *qalqan* (qalqon), *saqchi* (soqchi), *qaravul* (qarovul), *cherik* (qo`shin), *yariq* (sovut), *lashkar* (qo`shin), *atlig`* (suvoriy), *yarag`/yaraq* (qurol), *qilich* (qilich) va boshq.

7. Inson tana a`zolari nomlari: *qaraq* (ko`z qorachig`i), *erin* (lab), *bel, ernäk* (barmoq), *qarin* (qorin), *el//elig* (qo`l) va h.k.

8. Asbob-uskunalar nomi: *ignä* (igna), *balta* (bolta), *bïchaq* (pichoq), *qamchi* (qamchi), *org`aq* (o`roq) va boshq.

9. Uy-ro`zg`or buyumlarining nomi: *qazan* (qozon), *yastuq* (yostiq), *arg`amchi* (arqon), *beshtik* (beshtik), *kiyiz* (kigiz), *közgü* (oyna) va boshq.

10. Yosh tushunchasini ifodalovchi soʻzlar: *yigit*, *yash* (yosh), *qurtgʻa* (kampir), *abushqa* (keksa, qari), *qart* (keksa), *qari* (keksa) va h.k.

11. Fitonimlar: *chechäk* (gul), *qamish*, *qagʻun* (qovun), *xarpuz* (tarvuz), *sogʻan* (piyoz), *ayva* (behi), *bugʻday* (bugʻdoy), *tariq* (tariq, don), *arpa* (arpa), *teräk*, *tut*, *tal* (tol), *armud* (nok) va boshq.

12. Zoonimlar: *qarıncha* (chumoli), *böri*, *qaplan* (qoplon), *siñäk* (pashsha), *shagʻal* (chiyaboʻri), *bogʻra* (erkak tuya), *qisraq* (urgʻochi ot) va h.k.

Asar tilida *ozod*, *diyodor*, *zanjir*, *ziyrak*, *zindon*, *jodu* (afsun, sehr), *yor*, *meva*, *taxta*, *toj*, *farmon* kabi forsiy; *avval*, *omonat*, *balo*, *bashorat*, *vaqt*, *ibodat*, *imom*, *islom*, *kalima*, *kalom*, *kofir*, *muhr*, *fitna*, *sulton*, *qiyomat*, *xat* kabi arabiy soʻzlar faol qoʻllanilgan.

Qissa tilida maʼnodosh soʻzlar koʻp miqdorda qoʻllangan, bitta tushuncha ikki va undan ortiq soʻz yordamida ifodalangan. Misol tarzida *arqa* – *art* (orqa), *asigʻ* – *yarar* (foйда), *ev* – *tam* (uy), *chaq* – *ogʻur* (vaqt, zamon), *evlük* – *tishi* (xotin), *irin* – *dudaq* (lab), *ishchi* – *yümüşchi* (ishchi); *abushqa* – *qari* (keksa, chol); *al* – *qizil* (qizil), *chigʻay* – *yoqsuz* (kambagʻal), *ädiz* – *uluğ* (katta, ulugʻ), *edgü* – *yaxshı* (yaxshi), *bilgä* – *alim* (bilimdon) kabilarni aytish mumkin. Maʼnodosh soʻzlar qahramonlar xarakteri, turli manzarlarni tasvirlashda muhim vosita vazifasini oʻtagan, leksemalarning oʻrinsiz qaytarilishining oldini olgan.

Muallif arabiy, forsiy adabiyotlarga tayanib asar yaratarkan, ulardagi oʻzlashmalarning turkiy muqobillarini topib qoʻllashga harakat qilgan. Jumladan, *azab* – *emgäk* “qiyinchilik”; *kabira* – *biyik* “katta”; *baʻdaz* – *kedzin* “keyin”; *aftab* – *kün* “quyosh”; *daraxt* – *agʻach* “daraxt”; *nishan* – *belgü* “belgi, iz”¹.

¹ Абдушукуров А. «Қисаси Рабғузий» лексикаси. –Т.: Академия, 2008. –Б. 241.

Qissa tilida *bek – qul*, *yag`i* (dushman) – *esh* (o`rtoq), *bay* (boy) – *chig`ay* (kambag`al); *kün* (kunduz) – *tün* (qorong`i), *qish* (qish) – *yay* (yoz), *yaxshi* (yaxshi) – *yaman* (yomon); *aruq* (ozg`in) – *semuz* (semiz), *yanı* (yangi) – *eski* (eski); *hol* (ho`l) – *qurug`* (quruq), *telim* (ko`p) – *kam* (oz), *jannat* (uchmoh) – *dozax* (jahannam) kabi zid ma`noli so`zlar ham uchraydi. Asarning lug`at tarkibida bunday, ya`ni zid ma`noli so`zlar salmoqli miqdorni tashkil etadi. Adib ijtimoiy va tabiiy hayotning ziddiyatlarga to`la voqea-hodisalarni tasvirlashda, g`oya va fikrlarining ta`sirchanligini oshirishda, asarning o`qimishlilik va badiyiligini ta`minlashda zid ma`noli so`zlardan unumli foydalangan.

Asarning muhim jihatlari shundaki, unda Rabg`uziy xalq og`zaki ijodi namunalaridan keng va o`rinli foydalanishga, adabiy til bilan jonli so`zlashuv tilini bir-biriga yaqinlashtirishga, bayon etish uslubini soddalashtirishga, xalq ertaklari uslubini qo`llashga harakat qilgan va bu borada o`z oldiga qo`ygan maqsadiga ma`lum darajada erishgan ham. Shu bois asar xalq orasida keng tarqalgan, kitobxonlar tomonidan bir necha asrlar davomida sevib o`qib kelinmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Burhonuddin Rabg`uziy va uning “Qisasi Rabg`uziy” asari xususida so`zlab bering.
2. “Qisasi Rabg`uziy” asarining qo`lyozmalari, nashri va o`rganilishi bo`yicha qanday ma`lumotlarni bilasiz?
3. Asar o`ziga xos qanday morfologik va leksik-semantik xususiyatlarga ega?
4. Asar tilida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy sohalarga oid qaysi so`zlar qo`llangan?

5. Hozirgi o'zbek adabiy tilining asar tilidagi leksik birliklarga munosabatini misollar bilan izohlang.

XORAZMIY

«MUHABBATNOMA» ASARINING TILI

E'tibor qaratiladigan masalalar:

1. Xorazmiy va uning «Muhabbatnoma» asari xususida.
2. «Muhabbatnoma» asarining qo'lyozmalari va uning o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni.
3. «Muhabbatnoma» asarining tili va uslubi.
4. «Muhabbatnoma» asarining ayrim lug'aviy-badiiy xususiyatlari.

Xorazmiy XIV asrda yashab, turkiy va forsiy tilda ijod etgan shoirdir. Uning, asosan, o'zbek, qisman tojik tilida bitilgan birgina «Muhabbatnoma» asari bizgacha yetib kelgan, xolos¹. Asarning kirish qismida keltirilishicha, Oltin O'rda hududida hukmronlik qilgan Muhammad Xo'jabek shoirga qarata “forsiy tilda yozgan va qalblarni rom etgan ko'p asarlaring bor, sen muhabbat mavzusini yozishda ko'plardan o'tding, “shakartek til”ing bilan olamni egallading, bu qish mening yonimda bo'lib, bizning tilda bir kitob yozsang», deb aytadi. Ushbu fikrlardan anglashiladiki, Xorazmiy o'z davrida forsiy tildagi asarlari bilan mashhurlik darajasiga ko'tarilgan, ishq mavzusini mazkur tilda yozishda shoirga teng keladigani bo'lmagan, shu sabablarga ko'ra Muhammad Xo'jabek shoirni muhabbat mavzusida turkiy tilda ham asar yozishga undagan.

¹ Хоразмий. Муҳаббатнома. // Ўзбек адабиёти. 4 томлик. (Воҳид Зоҳидов таҳрири остида). -Т.: Бадийй адабиёт, 1959. -I том. –Б. 160-176.

Xorazmiy «Muhabbatnoma» asarini shu tariqa hijriy 754-, milodiy 1353-yilda yozadi.

Xorazmiy asarining maydonga kelishida Avhadiy Marog`aviy (1274-75; 1337-38)ning forscha yozilgan «Muhabbatnoma» dostonining ta`siri kuchli bo`lgan. Avhadiy va Xorazmiy asarlarining shakliy tuzilishidagi o`zaro farq shundaki, Avhadiy asarida nomalar oshiq va ma`shuqa nomidan yozilgan bo`lsa, Xorazmiy asarida esa nomalar, asosan, oshiqning mahbubasiga yo`llagan she`riy maktublaridan tashkil topgan.

«Muhabbatnoma»ning ikkita qo`lyozma nusxasi (uyg`ur va arab yozuvlarida) ma`lum. Shulardan eskisi uyg`ur yozuvidagi nusxa bo`lib, Britaniya muzeyida (inv. № 8193) saqlanadi. Nusxa Shohruxning Hirotdagi sarkardasi Mir Jaloliddin topshirig`i bilan Bakir Mansur tomonidan 1432-yilning martida Yazd (Eron) shahrida ko`chirilgan. U o`nta nomadan iborat. Asar 364 baytdan tarkib topgan.

Asarning arab yozuvidagi ikkinchi nusxasi ham Britaniya muzeyida saqlanadi. U 1508-1509-yillarda ko`chirilgan bo`lib, 474 baytdan tarkib topgan. Mafoiylun mafoiylun fauvlun vaznida yozilgan.

Xorazmiy mazkur asari bilan o`zbek adabiyotida muhabbatnoma janri (noma janrining mumtoz adabiyotdagi bir turi)ga asos soldi. Ma`lumki, muhabbatnomada oshiq va ma`shuqaning o`zaro munosabati, kayfiyati hamda istak-orzusi bayon etiladi. Uning bosh qahramoni, odatda, oshiq — shoirning o`zidir. Unda lirika bilan epik tasvir unsurlari uyg`unlashadi. Muhabbatnomada shoir oshiq obrazi timsolida o`zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini, jamiyatning ayrim muammolariga munosabatlarini badiiy ifodalaydi. Bunday turdagi asarlarning kompozitsion kurilishi maktub, unga javobning, g`azal, fard, masnaviy va ruboiylardagi izchil bayonidan iborat bo`ladi.

Xorazmiyning mazkur asarining tuzilishi ham an`anaviy tartibda, ya`ni dastlab noma, keyin g`azal, undan keyin masnaviyi ifodalash tarzida shakllantirilgan. «Muhabbatnoma» asari oshiqning o`z ma`shuqasiga yozgan

she'riy maktublari shaklida tuzilgan. Asarda jami o'n bir noma berilgan bo'lib, ulardan sakkiztasi o'zbek tilida, qolgan uchtasi forsiy tilda yozilgan.

Alisher Navoiy «Muhokamat-ul lug'atayn» asarida o'zbek tilida katta holni ifodalovchi maxsus *meng* so'zi borligini aytib, «Muhabbatnoma»dan quyidagi baytni keltiradi:

Aningkim, al enginda meng yaratti,
Bo'yi birla sochini teng yaratti.

Xorazmiy “Muhabbatnoma” asarini tun boshlanib, “bayram oyi” ko'ringanda Muhammad Xo'jabek bazm qilishni buyurganligi, qadah va may keltirilganligi, bazm boshlanib, sozanda “Husayniy” kuyini chalganligi, ashulachi esa bir g'azalni kuyga solib, aytib berganligi bilan boshlaydi:

Husayniy pardasi uzra tuzub soz,

Mug'anniy bu g'azalni qildi og'oz.

Shoir asari tilida “Shashmaqom” tarkibiga kiruvchi kuy nomi – “Husayniy”ning alohida qayd etilishi shundan dalolat beradiki, shoir yashagan davrda mazkur kuy keng ommalashgan kuylardan biri bo'lgan.

“Muhabbatnoma” asarining tili xalq tiliga ancha yaqin va uslubi ravon, uning yaratilganiga necha asrlar o'tganligiga qaramay hozir ham uni o'qib tushunish mumkin. Asar tilidagi ko'pgina so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida faol qo'llaniladi. Bunday so'zlar jumlasiga umumturkiy *tun, oy, ko'ngul* (ko'ngil), *til, eshik, suv, kishi, arslon, ov, tong* kabi; forsiy *parda, baxt, jamol, husn, chehra, dard, dilbar* kabi; arabiy *ishq, g'azal, qibla, muhabbat, vafo, umr, mehnat, fotiha, saodat* kabilarni aytib o'tish mumkin.

“Muhabbatnoma” asarida qadimgi turkiy so'zlardan *ochun* (dunyo, olam), *qamuq* (hamma, barcha, jami), *dag'i* (yana, tag'in), *ev* (uy, xona), *uchmoq* (jannat), *qamuq* (do'zax, jahannam) kabilar qo'llangan. Biroq bu kabi izohtalab qadimgi turkiy so'zlarning miqdori ko'p emas. Asar tilida joy nomlari –

toponimlardan *Kashmir, Saroy, Chin-Mochin, Sir, Misr, Iroq, Rum* kabilar uchraydi. Hozir Sirdaryo deb ataladigan daryo nomi asarda *Sir* deb berilgan.

Xorazmiy asarida ma'nodosh so'zlardan mahorat bilan foydalangan. U umumturkiy *ko'rk* va forsiy *husn*, arabiy *jamol* va forsiy *chehra*, arabiy *saodat* va forsiy *baxt* so'zlarini ma'nodosh so'zlar sifatida qo'llab, asarining ta'sirchanligini oshirgan. Shoir diniy sig'inish va e'tiqod qilishning ob'ekti sifatida namoyon bo'ladigan ilohiy kuchni arabiy *Haq*, forsiy *Xudo, Yazdon* va umumturkiy *Tangri, Yaratuvchi* kabi sinonim so'zlar bilan atagan. Asarda ayrim so'zlar ko'chma ma'nolari bilan sinonimik munosabatda qo'llangan. Masalan, arabiy *davlat* so'zi ko'chma ma'nosida forsiy *baxt* so'zi bilan sinonim sifatida qo'llangan.

Asar tilida umumturkiy *o'lum* (o'lim) va arabiy *hayot*, qadimgi turkiy *uchmoq* va forsiy *do'zax*, forsiy *dard* va *darmon*, arabiy *jafo* va *vafo* so'zlari o'zaro qarshilantirilib, tazod badiiy san'ati voqelantirilgan. Asar tilida ayrim matniy antonimlar ham mavjud. Masalan, *podsho* so'zi bilan *gado* so'zlari o'zaro matniy zidlantirilgan:

Seningdek podshoning marhabosi,

Meningtek ming gadoning xun bahosi.

Baytda *podsho* so'zi *ma'shuqani*, *gado* so'zi esa *oshiqni* majoziy ma'noda ifodalab kelgan.

Asar tilida singarmonizm hodisasi namoyon bo'lgan. Unda nafaqat unlilar, balki undoshlar ohangdoshligi ham o'z ifodasini topgan. Qo'shimchalar so'zning o'zak qismiga ko'ra moslashgan: *so'zung* (so'zing), *qo'lum* (qo'lim), *vafoliq* (vafolik) kabi.

Asar tilida eng faol soʻz yasovchi qoʻshimchalar sifatida *-liq//luk* va *-chi* qoʻshimchasini aytish mumkin. *-liq//luk* qoʻshimchasi vositasida *vafoliq*, *yiroqliq*, *koʻrkluk* kabi mavhum belgini ifodalovchi otlar yasalgan. Misol:

Yaratqonkim, tan ichra jon yaratti,
Seni koʻrkluklar uzra xon yaratti.

Asarda *-chi* qoʻshimchasi bilan yasalgan ayrim soʻzlar jumlasiga esa *barbatchi*, *uyquchi* kabilarni aytish mumkin. Ayonki, *barbat* soʻzi ikki qismdan, yaʼni forsiy *bar* va arabiy *bat* soʻzlaridan tarkib topgan boʻlib, uning lugʻaviy maʼnosi *oʻrdak shaklida yasalgan qadimgi cholgʻu asbobidir*. Asarda bu soʻz bilan bogʻliq “barbatchi Nohid” birikmasi keltirilgan. *Nohid* forsiy soʻz boʻlib, u Zuhra (Venera) planetasi maʼnosini ifodalaydi (NAL,471). *-chi* qoʻshimchasi ot (*barbat*)ga qoʻshilib, kasb, hunar maʼnosini ifodalovchi ot yasalgan, yaʼni mazkur cholgʻu asbobini chaluvchi sozanda maʼnosi hosil boʻlgan. *Uyquchi* soʻzida esa *-chi* affiksi *uyqu* feʼliga qoʻshilib, uyqu harakatini bildiruvchi shaxs oti yasalgan.

Asar tilida tarixiy shaxslar (*Muhammad Xoʻja*, *Hotami Toy*, *Jamshid*, *Aflotun* (Platon) kabi); mumtoz adabiyotda anʼanaviy tarzda qoʻllanilib kelingan badiiy asar qahramonlari (*Layli*, *Majnun*, *Shirin*, *Farhod*, *Xisrav*, *Rustam* kabi); paygʻambar va farishta (*Sulaymon*, *Yusuf*, *Horut* (afsonaga koʻra koʻkdan er yuziga haydalgan ikki farishtaning biri) kabi) nomlari keng qoʻllangan. Shoir mazkur tarixiy shaxslar, badiiy asar qahramonlari, paygʻambar va farishta nomlari – antonomaziyalarni majoziy maʼnoda qoʻllab, ular vositasida talmeh badiiy sanʼatini voqelantirishga harakat qilgan. Misol:

Oʻgʻon Yusuf jamolin sizga berdi,
Muhabbat kimyosin bizga berdi.

Mazmuni: lirik qahramon maʼshuqasiga qarata shunday deydi: Oʻgʻon, yaʼni Yaratgan senga goʻzallikda olamda tengsiz Yusuf jamolini berdi, menga

esa muhabbat kimyosini, ya'ni muhabbat oltinini, muhabbatdek nodir tuyg`uni berdi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotda Yusuf payg`ambar nomi go'zallik ramzi sifatida ifodalanadi. Xorazmiy asarida ham u go'zallik majoziy ma'nosida kelgan.

Alohida e'tirof etish o'rinliki, shoir kishi ismlarini ko'chma ma'noda qo'llab, yorqin, esda qoladigan ta'sirli lavhalar yarata olgan. Asar tilida aksariyat kishi ismlari ma'lum bir timsol vazifasini bajargan. Bunga misol sifatida Hotami Toy nomini aytish mumkin. Misol:

Kel, ey, soqi keturgil lolagun may,

Kim ul may qildi ko'pni Hotami Tay.

Ayonki, shoir va lashkarboshi Hotam taxminan VI-VII asrlarda Yamanda yashagan, saxiyliги va yaxshiligi bilan Sharq mamlakatlarida dong taratgan shaxs. Unga Toy nomining qo'shib aytilishiga sabab, u shu nomdagi qabiladan bo'lgan. Hotami Toy nomi badiiy adabiyotda, asosan, majoziy ma'noda, ya'ni yaxshilik, saxiylik va olijanoblik ramzi bo'lib, yashab kelmoqda.

Asar tilida ayrim yulduz va sayyora nomlari, chunonchi, forsiy *Zuhra* (Venera, Cho'lpon), arabiy *Atorud* (Merkuri) kabilar ifodalangan. Ma'lumki, mumtoz adabiyotda Zuhra yulduzini shoirlar osmon sozandasi, cholg`uchisi sifatida tasvirlaganlar. Atorud sayyorasi esa shoirlar homiysi hisoblangan. "Muhabbatnoma" asarida ham ushbu yulduz va sayyora nomlari mazkur majoziy ma'nolarda qo'llangan. Misol:

Bu Xorazmiy "Muhabbatnoma"sini,

Atorud ko'rdi, soldi xomasini.

Shoir aytmoqchi, men ushbu asarimni boshlaganimda, shoirlar homiysi hisoblangan Atorud "xomasi", ya'ni qalamini yozishga tayyorlab, shay qilib qo'ydi. Shoir yor go'zalligi, vasli va oshiq kechinmalarini tasvirlashda xilma-xil

badiiy til vositalaridan mohirlik bilan foydalangan. U ma'shuqani ifodalash uchun *jon, jonona, podshoh//podsho//shoh, ko'rkaboy* (juda chiroyli, husnli), *sulton, gul, oy, quyosh, dilsiton* (dilni oluvchi, ko'ngilni o'ziga asir etuvchi, dilbar), *jonu jahon, sanam* kabi so'zlardan metafora sifatida foydalangan. Oshiq tushunchasini ifodalash uchun esa *misikin, gado, qul* kabi istioraviy so'zlarni qo'llagan. Misol:

Salomimni tegur ul dilsitong`a,

Rahimsiz bevafo jonu jahong`a.

Asar tilida eng ko'p qo'llanilgan badiiy san'atlardan biri tashbihdir. Misol:

Bo'yung sarvu sanubartek, beling qil,

Vafo qilg`on kishilarga vafo qil.

Ma'lumki, *sarv* so'zi forsiy bo'lib, u mumtoz adabiyotda *go'zal sevgilining qaddi-qomati; go'zal sevgilining o'zi; go'zal yor; xushqomat sevgili* kabi majoziy ma'nolarda qo'llangan [NAL,547]. Mazkur baytda *sarv* so'zi bilan yonma-yon kelgan *sanubar* (sanobar) so'zi esa Sharq adabiyotida yuqoridagi ko'chma ma'noga yaqinroq, ya'ni qaddi-qomati kelishgan, xushqomat majoziy ma'noda ifodalangan. Anglashiladiki, shoir *sarv* va *sanubar* so'zlarining ko'chma ma'nolarini ma'nodosh so'zlar sifatida qo'llagan, ma'shuqaning bo'yini *sarv* va *sanobar* daraxtiga o'xshatib, tashbih san'atini yaratgan. Shoirning mahoratli va iste'dodli ekanligi shundan bilinadiki, u mazkur baytning o'zida ham tashbih, ham *qil* omoleksemasi vositasida tajnis badiiy san'atini voqelantirgan. Ayonki, *qil* so'zi umumturkiy bo'lib, u *ot va ba'zan boshqa hayvonlar dumi yoki yolining har bir tolasi* ma'nosini ifodalaydi. Baytning birinchi misrasida *qil* so'zi ushbu ma'noda, ya'ni *soch, yol, dum tolasi*

ma'nosida qo'llanilgan. Ikkinchi misrada esa *qil* so'zi *bajarmoq*, *amalga oshirmoq* kabi harakat ma'nolarida kelgan.

Shoir ma'shuqaning yuzini umumturkiy *quyosh*, *oy*, *chechak*, arabiy *qamar* (oy) va forsiy *gul*, *xurshid* (quyosh, oftob) va *suman* (yosmin, oq, sariq rangli xush is gul)ga, husnini umumturkiy *tong yog`dusi* va forsiy *firdavs* (jannat bog`i)ga, tili (so'zi)ni forsiy *shakarga* qiyoslaydi. Misol:

Quyosh yanglig` yuzungizni yorutti,
Falakdek bizni sargardon yaratti.

Mazkur baytning mazmuni shundayki, Yaratgan sening yuzingni quyosh kabi yoritdi, meni esa osmon kabi sargardon yaratdi. Asarning ko'p o'rinlarida shoir umrni umumturkiy *el* (shamol) va forsiy *gulga* o'xshatadi. Misol:

Ayo nomehribon ahdi baqosiz,
Jahon eltek, umr gultek vafosiz.

Ushbu baytda shoir *jahon* so'zi vositasida *umr*, *gul* so'zi orqali esa *yor*, *ma'shuqa* tushunchasini ifodalashga harakat qilgan. Shoir aytmoqchi, umr shamoldek tez o'tib ketadi, u ma'shuqadek senga vafo qilmaydi.

«Muhabbatnoma» o'zbek nomachilik janri **taraqqiyotiga** kuchli ta'sir ko'rsatgan asardir. Uning bevosita ta'sirida Sayyid Ahmadning «Taashshuqnoma», Xo'jandiyning «Latofatnoma», Yusuf Amiriyning «Dahnoma» kabi asarlar yaratilgan. Asarning o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi o'рни ham ahamiyatlidir. Unda yuksak mahorat bilan istifoda etilgan badiiy san'atlar bir necha asrlardan beri kishilar qalbiga badiiy-estetik nuqtai nazardan go'zallik va nafislik tuyg`ularini ekib kelmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. Xorazmiy va uning «Muhabbatnoma» asari xususida soʻzlab bering?
2. «Muhabbatnoma» asarining tuzilishi, qoʻlyozmalari va ilmiy oʻrganilishi boʻyicha maʼlumot bering?
3. «Muhabbatnoma» asari qanday til va uslub xususiyatiga ega?
4. «Muhabbatnoma» asarining oʻziga xos lugʻaviy-badiiy xususiyatlari boʻyicha tushuncha bering.

SAYFI SAROYI

«GULISTONI BIT-TURKIY» ASARINING TILI

Eʼtibor qaratiladigan masalalar:

1. Sayfi Saroyi va uning «Gulistoni bit-turkiy» asari xususida.
2. «Gulistoni bit-turkiy» asarining qoʻlyozmalari va ilmiy oʻrganilishi.
3. «Gulistoni bit-turkiy» asarining tuzilishi, mazmuni va leksik tarkibi.
4. «Gulistoni bit-turkiy» asarining lugʻaviy-badiiy xususiyatlari.

Shoir va tarjimon Sayfi Saroyi 1321-yilda hunarmand-qurolsoz oilasida tugʻilgan. Uning tugʻilgan joyi masalasida turli fikrlar mavjud. Tadqiqotchilarning bir qismi – aksariyati desak ham xato boʻlmaydi – uning Xorazm viloyatining Qamishli (Sariqamish) qishlogʻida tugʻilganligini aytishadi. Biroq Qamishli nomli qishloqlar Volga daryosi boʻyida koʻp uchrashini eʼtiborga olib, uni shu qishloqlardan birida tugʻilganligini taxmin qiladigan ayrim tadqiqotchilar ham yoʻq emas.

Ayonki, *Sayf* nazarda tutilgan shoirning nomidir. Bu soʻz arabiy boʻlib, ikki maʼnoda, yaʼni *yoz mavsumi* va *qilich* maʼnolarida qoʻllaniladi. Ilmiy

adabiyotlarning ko'pchiligida shoirning ismiga *sayf so'zining* ikkinchi, ya'ni *qilich* ma'nosi asos qilib olganligi aytiladi. Sayfi Saroyining hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumotlar juda oz. Mavjud ma'lumotlarda keltirilishicha, shoir dastlabki bilimini o'z yurtida oladi. So'ngra bilim olish va ilm o'rganishni Oltin O'rda davlatining asosiy siyosiy markazi Saroy shahrida davom ettiradi. Sayfi Saroyining mazkur davlat va shaharda bo'lgan davri uning hayotida eng samarali yillar bo'ldi. U shu davlatda ijod bilan jiddiy shug'ullanishni boshladi va xalq orasida iste'dodli shoir sifatida tanildi. Eslatib o'tish o'rinliki, shoir shu erda yashab turgan davrida ilk marta «Saroyi» degan taxallusni oldi.

Ma'lumki, Oltin O'rda davlatiga XIII asrning 40-yillarida Jo'jixonning o'g'li Botuxon tomonidan asos solingan. Mazkur davlat tarkibiga dastlab Xorazm va Shimoliy Kavkaz hududlari kirgan. Keyinchalik Botuxon Dashti Qipchoq, Qrim, G'arbiy Sibirni Oltin O'rda davlatiga qo'shib olgan. Rus knyazlari bu davlatga qaram bo'lib, xiroj to'lab turganlar. Rus manbalarida Oltin O'rda (Золотой Орды), Sharq manbalarida Jo'ji ulusi deb atalgan ushbu davlat XVI asr boshlarida tugatiladi. Uning markazi Saroy shahri tarixiy yodnomalarda Saroybotu, Katta saroy, Yangi saroy nomlari bilan yuritilgan. Shahar XIV asr oxirlarida Oltin O'rda xonlarining o'zaro kurashi va Amir Temurning yurishi natijasida qattiq shikastlangan. U 1480-yilda uzil-kesil vayronaga aylangan. Shahar xarobalari hozir Astraxan viloyati Xarabali tumanida saqlanib qolgan. Sayfi Saroyi yashagan davrda Markaziy Osiyoda, chunonchi, Oltin O'rdada mo'g'ullar istilosi natijasida turli urush va nizolar avjiga chiqadi. Shu sabab shoir o'z vatanini tark etishga, umrining ko'p qismini yurtdan uzoqda, darbadarlikda o'tkzishga majbur bo'ladi. U dastlab Eronga, keyin Turkiyaga boradi. Umrining oxirlarida Misrga borib, Iskandariyada taxminan 1396-(yoki 1398-) yilda vafot etadi.

Sayfi Saroyining adabiy merosi – o'ndan ortiq g'azal, qasida, qit'a, ruboiy va masnaviylari, «Suhayl va Guldursun» (1394) dostoni, «Gulistoni biturkiy» (1390-1391) asari bizgacha yetib kelgan. Shoirning «Gulistoni bit-

turkiy» asari katta adabiy yodgorlik, qadimgi turkiy tilni o'rganishda muhim manbadir. Uning yagona qo'lyozmasi Gollandiyadagi Leyden universiteti kutubxonasida saqlanadi. Bu qo'lyozmaning fotonusxasi Moskva va Toshkentda mavjud. «Suhayl va Guldursun» dostoni qo'lyozmasi esa O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Sayfi Saroyi ijodida «Gulistoni bit-turkiy» asari muhim o'rin tutadi. Shoir 1390-1391-yillarda Misrda Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asarini fors tilidan o'zbek tiliga birinchi bo'lib erkin tarjima qilib, nisbatan yangi, falsafiy-axloqiy «Gulistoni bit-turkiy» asarini yaratadi. Tarjima jarayonida Sayfi Saroyi «Guliston»dagi ayrim parchalarni tushirib qoldiradi, ba'zi she'rlarni ijodiy qayta ishlaydi.

Ma'lumki, Sa'diy Sheroziy (1203-1292) Sharqda Shayx Sa'diy nomi bilan mashhur bo'lgan. Uning ahloqiy-ta'limiy ruhdagi «Bo'ston» va «Guliston» asarlari asrlar davomida madrasalarda asosiy darsliklar sifatida o'qitilib kelingan. Aytilganidek, mazkur asarni dastlab, Sayfi Saroyi o'zbek tiliga tarjima etadi. Undan keyin asarni XIX asrda Xiva xoni Muhammad Rahimxon II – Feruz topshirig'i bilan Muhammadrizo Ogahiy tarjima qiladi. Uchinchi tarjimasi 1909-yilda toshkentlik shoir va mudarris Mullo Murodxo'ja Solihxo'ja tomonidan amalga oshiriladi. To'rtinchi tarjima esa 1968-yilda bosilib chiqadi. Bu tarjima G'afur G'ulom, Shoislom Shomuhamedov va Rustam Komilovlar qalamiga mansubdir. Mazkur tarjimalarning barchasi E.Ochilov tomonidan 2007-yilda nashrga tayyorlangan Sa'diy Sheroziyning «Hikmatga to'la olam» kitobidan o'rin olgan¹. Gollandiyaning Leyden universiteti kutubxonasida saqlanayotgan Sayfi Saroyi qo'lyozmasining birinchi nashri E.Fozilov tomonidan amalga oshirildi².

Sayfi Saroyi mazkur asar tarjimasida o'ziga xos yo'l tanlaydi. U Sa'diy Sheroziy asarining asosiy mazmunini olib, uni o'z davrining ijtimoiy-siyosiy,

¹ Саъдий Шерозий. Ҳикматга тўла олам / Нашрга Э.Очилов тайёрлаган. –Т.: Шарқ, 2007. -255 б.

² Сайфи Саройи. Шеърлар. Гулистон / Нашрга Э.Фозилов тайёрлаган. –Т.: Бадиий адабиёт, 1968. -257 б.

madaniy-ma'rifiy tafakkuri va ruhini, turmush tarzini aks ettiruvchi yangi hikoyatlar, qit'a va baytlar bilan to'ldiradi. Asar Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari kabi 8 bobdan iborat bo'lib, har bir bobda hikoyatlar berilgan. Boblarning nomlanishi quyidagicha: 1-bob "Sultonlar haqidagi hikoyatlar", 2-bob "Faqirlar axloqi haqidagi hikoyatlar", 3-bob "Qanoatning foydasi haqidagi hikoyatlar", 4-bob "Sukutning foydasi haqidagi hikoyatlar", 5-bob "Ishqdagi yigitlik sifati haqidagi hikoyatlar", 6-bob "Qarilikdagi zaiflik sifatlari haqida", 7-bob "Tarbiyaning ta'siri haqida", 8-bob "Suhbat odoblari haqida".

Hikoyatlarning aksariyati didaktik mazmunga ega bo'lib, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shoirning pand-nasihatlari mohiyatini adolatparvarlik, to'g'rilik, rostgo'ylik, vatanparvarlik, odamiylik, do'stlik, mardlik, vafodorlik va sadoqat kabi insoniy g'oyalari tashkil etadi. Shoir shu ezgu g'oyalari bilan mamlakatda adolat va osoyishtalik o'rnatish, zulumparvar podsho va amaldorlarni insofga chaqirish hamda kishilarni yaxshiliklar tomon yo'naltirishga erishmoqchi bo'ladi. Shu maqsadda, yuqorida qayd etilgan, adolatparvarlik va odamiylik kabi insoniy g'oyalarni asarlarida keng targ'ib etadi.

«Gulistoni bit-turkiy» asari tilida umumturkiy so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi va ular asosiy lug'aviy qatlam sifatida namoyon bo'lgan. Ular jumlasiga *bug'doy, yurt, men, el, so'z, bir, ish, er, kishi, tuproq, qari, qul, oq, to'g'ri, yo'l, og'iz, yangi, oy, qosh, ko'rk, boy, it, ko'ngul, oltin, tosh* kabilar kiradi. Bu kabi leksik birliklar hozirgi o'zbek adabiy tilida faol qo'llanadi va ularning mazmunini izohlarsiz to'liq tushunish mumkin. Misol:

Sindirur bo'lsa urib oltin qadahni katta tosh,

Sinmas oltin qiymati, ortmas bahosi toshning.

Baytdagi *may ichiladigan idish, jom* ma'nosini ifodalagan arabiy *qadah, narx, qiymat* mazmunida qo'llangan forsiy *baho* va shu so'zning sinonimi arabiy *qiymat* so'zlaridan boshqa barcha lug'aviy birliklar umumturkiydir. Bu shoir asarlarida umumturkiy so'zlar muhim o'rin tutishi va salmoqli miqdorni

tashkil etishi to'g'risida bildirilgan fikrni dalillaydi. Sayfi Saroyi asari tilida umumturkiy *er* so'zi juda ko'p o'rinda qo'llangan. E'tiborli tomoni shundaki, shoir *er* so'zini *erkak jinsiga mansub kishi* ma'nosidan ko'ra, ko'proq *kishi, kimsa, odam, inson* ma'nolarida qo'llaydi. Misol:

Yomong`a eyguluk qil, ey saxiy *er*,
Saodat eygularga bo'ldi yo'ldosh.

Mazmuni: ey, saxiy inson, yomonga yomonlik qilma, aksincha, yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytar, yomon kishilarga ezguliklar qil, chunki ezgulik qilgan kishiga saodat har doim yo'ldosh bo'ladi, bunday kishi baxtli bo'ladi. Anglashiladiki, baytdagi umumturkiy *er* so'zi *inson, kishi* ma'nosida qo'llangan.

Asar tilida qadimgi turkiy so'zlar ham ancha ko'p miqdorda uchraydi. Ular jumlasiga *yozuq* (gunoh, ayb), *ev* (uy), *yo'qsul* (kambag'al, qashshoq), *kimarsa* (kimsa, kishi), *qatinda* (yonida, qoshida), *ayoq* (qadah, kosa, jom), *al* (qo'l), *dag'i // dog'i* (yana, tag'in, ham, hamda), *tamug`* (do'zax, jahannam; o't, olov), *bo'yla* (bunday, bunaqa, bu xil, bu kabi, shunchalik), *erdam* (fazilat, qudrat), *kunash* (quyosh), *eygu* (ezgu), *degul* (emas), *biyik* (buyuk, ulug`; baland, yuksak, oliy), *tekma* (har bir, har qaysi), *sog`* (o'ng tomon), *sufra* (dasturxon), *bikin* (kabi, singari, o'xshash), *o'tmak* (non), *bilik* (bilim, aql) kabilarni aytib o'tish mumkin. Mazkur so'zlar shoir yashagan davrda faol iste'molda bo'lgan, o'zbek adabiy tilining keyingi taraqqiyot bosqichlarida esa ular turli sababalarga ko'ra adabiy til tarkibidan chiqqan. Lekin ularning ma'lum qismi turkiy til va shevalarda qo'llanishda davom etmoqda.

Ayonki, qadimgi turkiy tilda *alchaq//alchoq* so'zining *yumshoq tabiatli, yoqimtoy, kamtar* ma'nosida ifodalanishini Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida izohlagan. Mazkur so'z «Gulistoni bit-turkiy» asarida ham shu ma'noda kelgan:

Er kerak ko'ngli kinadan xoli,
O'zi *alchoqu* himmati oliy.

Ushbu soʻz oʻzbek tilining oʻgʻuz shevalari va qirgʻiz tilida *alchaq*, turkman tilida *alchak*, turk va ozar tilida *aljak* tarzida ifodalanadi. Eʼtiborli tomoni shundaki, mazkur soʻz hozirda ayrim til va shevalarda ijobiy, baʼzi til va shevalarda esa salbiy maʼnoda qoʻllaniladi. Masalan, oʻzbek tilining oʻgʻuz shevalarida *chaqqon*, *qobiliyatli*, *uddaburo*; qirgʻiz tilida *yuvosh*; turkman tilida *odobli*, *yumshoq tabiatli* kabi ijobiy maʼnoni anglatadi, turk va ozar tilida *past*, *razil*, *qabih* kabi salbiy maʼnolarni bildiradi. Izoh sifatida aytish mumkinki, ushbu soʻz hozirgi oʻzbek adabiy tilida *oʻtaketgan razil*, *past*; *yovuz*, *nomard*, *xoin* kabi maʼnolarda qoʻllaniladi.

«Gulistoni bit-turkiy» asari tilida oʻgʻuz tillari va shevalariga xos ayrim xususiyatlar aks etgan. Bunga misol sifatida joʻnalish kelishigining *-na* shaklida (*boʻyina*, *yuzina* kabi), *koʻp* soʻzining *choʻq*, *ilon* soʻzining *yilon*, *boʻl* feʼlining *oʻl* tarzida qoʻllanganini aytib oʻtish mumkin. Ohangdoshlik hodisasi shoir asarlari tilida oʻz ifodasini topgan: *koʻngul* (koʻngil), *yuzung* (yuzing), *oʻlum* (oʻlim) kabi.

Aytilganidek, asar tilida qoʻllangan ayrim soʻzlar hozir ham oʻzbek tilining shevalarida, chunonchi, Xorazm shevasida faol qoʻllanilib kelmoqda. Bunga misol tarzida *ulu* (ulugʻ, katta yoshdagi odam) soʻzini aytish mumkin. Misol:

Kichilikda adab oʻrganmagan er,
Ulu boʻlsa, bil, andin xayr kelmas.

Mazmuni: kichilikda, yaʼni yoshlikda odob ilmini oʻrganmagan kishi, bilgilki, yoshi katta boʻlib, qariganda ham u odobli boʻlmaydi, bunday kishining qoʻlidan boshqalarga yaxshilik va ezguliklar qilish kelmaydi. Shoir aytmoqchi, odob-axloq ilmini yoshlikdan oʻrganish kerak. Mazkur soʻz Xiva va Urganch shevalarida hozirda *ulli // ulli* (ulugʻ, katta yoshdagi odam) tarzida qoʻllaniladi. Asar tilida tatar tiliga xos ayrim soʻzlar ham mavjud. Bunga misol sifatida *koʻgarchin* (kabutar) soʻzini aytish mumkin. Mazkur soʻz oʻgʻuz shevalarida

gävärjin, turkman tilida *gövärjin*, boshqird tilida *kugärsin* tarzida qo'llanilib, u *yovvoyi kaptar* ma'nosini bildiradi.

Asar tilida *-lik// -luk*, *-li* qo'shimchalari asosida yasalgan so'zlar ko'p uchraydi: *yamonlik* (yomonlik), *erlik* (kishilik), *kichilik* (kichiklik, yoshlik), *eyguluk* (ezgulik), *maslahatli* kabi. Misol: *Yamonlik qilgan erga, eyguluk qil*. Mazkur qo'shimchalarning yangi so'z yasash imkoniyati keng, faollik darajasi esa yuqori bo'lgan. E'tiborli tomoni shundaki, so'zlarning tarkibida, xususan, oxirgi bo'g'inida lab unlisi bo'lgan so'zlarga *-luk* shakli qo'shilgan. Bundan shuni anglash mumkinki, shoir asarlari tilidagi *eyguluk* misolida ohangdoshlikning lab uyg'unligi ko'rinishi ham mavjud bo'lgan. Izoh sifatida aytish mumkinki, bu qo'shimcha, ya'ni *-luk* vositasida mavhum ma'noni ifodalovchi ot yasalgan.

«Gulistoni bit-turkiy» asari tilidagi o'zlashma qamtlam so'zlari, chunonchi, arabiy o'zlashma leksik birliklarning aksariyati hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladi. Bunda so'zlar jumlasiga *vatan, jabr, sodiq, rasm, lutf, faqir, shoir, bulbul, vasf, vazn, san'at, oshiq, umr, maslahat, vafo, davlat, mehnat, ilm, nasihat, xalq, odam* kabilarni aytish mumkin. Ayrim izohtalab, eskirgan arabiy so'zlar ham bor. Masalan: *munodiy* (xabarchi, jarchi), *tahammul* (sabr, bardosh, chidam), *aqrab* (chayon), *foni* (o'tkinchi, yo'q bo'luvchi), *adam* (yo'qlik), *Mavlo* (Xudo; sohib, sarvar), *qavl* (so'z, gap), *ash'or* (she'rning ko'pligi), *munajjas* (nopok, iflos), *tafarruj* (tomosha qilish, ko'ngil ochish), *fazihat* (yomonlik, rasvolik, sharmandalik), *qaviy* (kuchli, baquvvat), *uqbo* (oxirat, narigi dunyo) va boshqalar. Misol:

Vasfina Sayfi Saroyining ishi *ash'or* erur,

Andin o'zga birla oshiqqa emak osh, or erur.

Arab tiliga tegishli so'zlarning aksariyatini ma'rifat, din, ahloq-odob va adabiyotga oid so'zlar tashkil etadi. Ayniqsa, diniy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar miqdori nisbatan ko'p.

Asar tilida eroniy (fors-tojik) tillardan o'zlashgan *jahon, benishon, gunoh, dilshod, ozod, gadoy, gulshan, bog`, zog` (qarg`a), dilbar, chehra, gulzor, shakar, rost, donish* (bilim, ma'rifat), *rafiq* (do'st, hamroh) kabi leksik birliklar ham qo'llangan. Misol:

Su ichkanda dudog`ingdan su tomsa,
Bitar qandu *shakar* ul yerda doyim...

Ushbu baytda *shakar* so'zi forsiy o'zlashma bo'lib, u arabiy *qand* so'zi bilan sinonim tarzida qo'llangan. Alohida ta'kidlash o'rinliki, shoir asarlari tilida mavjud forsiy tilga tegishli o'zlashma so'zlar turli sohalarga oid bo'lib, ularning mazmun-mohiyatini hozir ham izohlarsiz tushunish mumkin.

«Gulistoni bit-turkiy» asari tilida ko'p miqdorda bo'lmasa ham ayrim joy nomlari – toponimlar uchraydi. Ular quyidagilar: *Qamishli, Xitoy, Chin, Hijoz* (Makka va Madina shaharlari joylashgan hudud), *Ka'ba va Shom* (Suriya) kabilarni aytib o'tish mumkin. Keltirib o'tilgan joy nomlaridan ayrimlari, chunonchi, Chin, Shom kabilar hozir iste'molda emas. Asarda ma'lum miqdorda kishi ismlari – antroponimlar ham qo'llangan. Ularni quyidagi guruhlar bo'yicha tasnif etish mumkin:

1) payg`ambarlar nomi: *Iso* (Iso alayhissalom), *Xalil* (Ibrohim alayhissalom);

2) adabiyotda timsol bo'lgan shaxslar nomi: *Qorun* (xasislikda nom chiqargan shaxs, Sharq adabiyotida xasislik timsoli hisoblanadi); *No'shiravon* (Anushirvon, Eron shohi, Sharq adabiyotida adolat ramzi hisoblanadi);

3) badiiy asarlar qahramoni nomi: *Rustam* (“Shohnoma” asari qahramoni), *Majnun, Layli* (“Layli va Majnun” dostoni qahramonlari);

4) hukmdor va shoirlar nomi: *Faridun* (Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub oltinchi hukmdori); *Hoja Ishoq* (shoir Hoja Ishoq Xorazmiy).

Shoirning mazkur kishi ismlari – *Iso, Qorun, No'shiravon, Rustam, Majnun, Layli* kabilarni asarida keltirishidan maqsadi, ushbular vositasida chuqur va aniq ma'noni ifodalashdir. Ayonki, adabiyot ilmida bunday badiiy

san'at talmeh deb ataladi. Talmeh ijodkorga tarixiy yo afsonaviy voqealarga, mashhur asarlar va qahramonlar obraziga ishora qilish va shu yo'l bilan o'z fikrini mo'jiz holda kuchaytirish uchun imkoniyat tug'diradi.¹

Shoir asarini o'qimishli va ta'sirli qilish uchun turli tasviriy vosita va badiiy usullardan unumli foydalanishga harakat qilgan. U asarida sinonim, antonim, omonim, o'xshatish va metaforalarni qo'llab, o'ziga xos badiiy san'at namunalarini yaratishga uringan. «Gulistoni bit-turkiy» asari tilida *vatan-yurt, yozuq-gunoh, to'g'ri-rost* kabi ayrim sinonimlar qo'llangan: *O'sib tuprog'im uzra nayzalar, men evdin ayrildim, Vatandan benishon o'ldimda, o'zga yurtga evrildim*. Ayonki, tarixiy-etimologik qatlamiga ko'ra *vatan* so'zi arabiy, *yurt* so'zi esa umumturkiydir. Mazkur ma'nodosh so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida faol qo'llanilib kelmoqda.

Asar tilida antonim so'zlar nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Sayfi Saroyi ijtimoiy-siyosiy davrning zidiyatlarga to'la voqeliklarini hamda ma'rifat va jaholat, ezgulik va yomonlik o'rtasidagi o'zaro abadiy kurashni yorqin, ta'sirli ifodalash uchun mazkur til birligidan asarida keng va o'rinli foydalanishga harakat qilgan. Zid ma'noli so'zlar jumlasiga *jannat-tamug` (do'zax), pok-munajjas (nopok, iflos), do'st-dushman, sog` (o'ng tomon)-so'l (chap tomon)* kabilarni aytib o'tish mumkin. Misol: *Ko'rguzursa sog` yona yo'l senga, Sen aning so'zin eshitma, so'lga ket*. Ma'lumki, zid tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlar badiiy adabiyotda tazod san'atini voqelantiradi. Sayfi Saroyi quyidagi baytda *orif* va *johil* so'zlarini zidlantirib, tazod badiiy san'atining go'zal namunasini yaratgan:

Orif bilan o'lturmoq johilga erur zindon,

Johil bilan o'lturmoq orifga jahannamdur.

Baytda qo'llangan *orif* so'zi arabiy bo'lib, *ilm bilan axloqiy etuklikka erishgan shaxs, ma'rifatli, bilimdon, dono* ma'nolarini ifodalaydi. *Johil* so'zi ham arabiy bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi *jaholatda qolgan, ilm-ma'rifatdan mahrum; qoloq, madaniyatsiz, nodondir*. Shoir donolik va nodonlik belgilariga

ega ikki kishining holatini zidlantirish orqali ularning muhim jihat va fazilatlarini yorqin aks ettirgan. Shoir omonimlardan ham mohirona foydalanib, tajnis badiiy san'atining go'zal namunalari yaratgan:

Kuzatur o'zga aybin – sen ani *ko'r*,

Magar o'z aybina doyim ko'zi *ko'r*.

She'rning mazmuni quyidagicha: sen atrofingdagi kishilarga boq, ularga nazar sol, ularni ko'r. Ularning tabiati juda qiziq ekanligiga amin bo'lasan. E'tibor bersang, ularning bari boshqalarni kuzatib, o'zining emas, balki o'zgalar aybi va xatosini topishga harakat qiladi. O'z aybi va xatosini esa umuman bilmaydi, bilishni ham istamaydi, uni "ko'zi ko'rmaydi", tan olmaydi. Baytning birinchi misradagi umumturkiy *ko'r* so'zi *ko'r*(moq), *nazar tashlamoq* ma'nosini, ikkinchi misradagi forsiy *ko'r* so'zi esa "ko'rmaydi, ko'rish qobiliyati yo'q, ko'rish organi ishlamaydigan, so'qir" ma'nosini ifodalaydi. *Ko'r I* fe'l, *ko'r II* sifat turkumiga oid. Shaklan bir xil, biroq boshqa-boshqa ma'nolarni ifodalovchi mazkur omonimlar tajnis badiiy san'atini yuzaga keltirishga, nozik so'z o'yinini amalga oshirishga imkon bergan.

Aytilganidek, Sayfi Saroyi she'rlarida turli badiiy san'atlardan foydalangan. Masalan, u "Erur" radifli g'azalida ma'shuqaning zulfini sunbulga, yuzini gulzorga o'xshatib, tashbih badiiy san'atini voqelantirishga harakat qilgan:

Dilbarimning *zulfi sunbuldek*, *chehrasi gulzor* erur,

Bo'yina oshiq sanubar, yuzina gul, zor erur.

Sayfi Saroyi she'rlaridan birida dunyo adabiyotini gulzor, chamanzor bir boqqa qiyos etadi va jahon shoirlarini ikki guruhga ajratib ko'rsatadi. Birinchi guruhga chin, iste'dodli, mahoratli shoirlarni kiritadi va ularni adabiyot gulshanining bulbullari deb ataydi. Ikkinchi guruhga esa iste'dodsiz, mansab, martaba va manfaat ilinjida zo'rma-zo'raki ijod qiluvchi shoirlarni kiritadi va ularni adabiyot gulzoriga adashib kirib qolgan zog` (qarg`a)lar deydi.

Jahon shoirlari, ey gulshani bog` ,

Kimi *bulbul*durur soʻzda, kimi *zogʻ*.

Anglashiladiki, sheʻrda arabiy *bulbul* va forsiy *zogʻ* soʻzlari koʻchma maʼnoda qoʻllangan. Mumtoz adabiyotda *bulbul* soʻzi aksariyat oʻrinlarda *oshiq* majoziy maʼnoda ifodalangan boʻlsa, Sayfi Saroyi mazkur soʻzni *isteʼdodli shoirlar* koʻchma maʼnoda qoʻllagan. *Zogʻ* soʻzi esa sheʻrda *isteʼdodsiz shoirlar* majoziy maʼnoni ifodalab kelgan. Ayonki, bulbul sayraganda uning yoqimli ovozidan kishi dili zavqqa toʻlib, behad rohatlanadi. *Zogʻ*ning xunuk ovozi esa dilni xira qilib, kishida yomon fikrlar uygʻotadi. Baytdagi *bulbul* va *zogʻ* soʻzlari metaforalar boʻlib, shoir ular vositasida istiora badiiy sanʼatini voqelantirgan. Bundan tashqari shoir mazkur soʻzlardagi maʼno belgilari, chunonchi, bulbul sayrashidagi yoqimlilik, chiroylilik va *zogʻ* ovozidagi yoqimsizlik, xunuklikni oʻzaro zidlantirilib, tazod badiiy sanʼatini ham yuzaga keltirgan.

Ayonki, *yemoq* soʻzining oʻz lugʻaviy maʼnosi *taom isteʼmol qilmoq, ovqatlanmoq*dir. Shoir mazkur soʻzdan koʻchma maʼnoda, yaʼni *oʻldirmoq, halok etmoq* majoziy maʼnoda foydalangan:

Ey necha bekni, malikni oʻyla *yebdur* bu jahon,

Kim, alardan yer yuzinda qolmadi zarra nishon.

Mazmuni: bu jahonda bizdan oldin juda koʻp bek va malik (sulton, podshoh, hukmdor)lar boʻlgan, yashab oʻtgan, vafot etgan, ularni jahon “yegan”, ulardan hozir zarracha ham nishon qolmagan. Sheʻr mazmunidan anglashiladiki, shoir bek va maliklarga pand-nasihat qilib, ularga bu oʻtkinchi dunyoda faqat ezgu va xayrli ishlar qilish zarurligini hamda yolgʻiz shu yoʻl orqaligina jahonda yaxshi nom qoldirish mumkinligini uqtiradi. Shoirning quyidagi baytida umumturkiy *yuk* soʻzi majoziy maʼnoda qoʻllangan:

Bir kishidan doimo koʻrib saxo,

Umr borincha *yukun* cheksang ravo.

Maʼlumki, *yuk* soʻzining oʻz lugʻaviy maʼnosi *bir yerdan ikkinchi yerga koʻtarib, tashib borilishi lozim boʻlgan ogʻirlik* boʻlib, shoir mazkur soʻzni

ko'chma – *tashvish* ma'nosida qo'llaydi. Shoir aytmoqchi, bir kishi senga saxo, ya'ni saxiylik, qo'li ochiqlik va jo'mardlik qilsa, sen uning saxiyligidan muntazam bahramand bo'lsang, sen ham unga munosib bo'lib, umring oxirigacha uning “yuki”, ya'ni tashvishi bilan yasha, unga yaxshilik qil, uning saxiyligiga yaxshilik bilan javob qaytar.

“Gulistoni bit-turkiy” asari garchi badiiyat nuqtai nazardan yuqori daraja va qiymatdagi adabiy meros bo'lmasa-da, ayrim jihatlariga ko'ra ahamiyatlidir. Uning ahamiyatli tomoni shundaki, birinchidan, asar mazmuniga umuminsoniy g'oyalar chuqur singdirilgan bo'lib, bu g'oyalar necha asrlardan beri kishilarni ezgulik va yaxshiliklarga undab kelmoqda. Ikkinchidan, o'zbek adabiy tilining XIV asrdagi taraqqiyot bosqichi xususida, shu davrning til xususiyatlari bo'yicha aniq, to'g'ri va atroflicha xulosalarga kelishda, alohida ta'kidlash o'rinliki, asar juda muhim yozma manbalardan biridir. Mazkur davrga oid bu kabi yozma yodgorlikliklarning ko'p emasligi barchaga ma'lum. Alohida qayd etish lozimki, o'zbek adabiy tili tarixida muhim o'ringa ega ushbu yozma manbaning til xususiyatlari, iste'dodli shoir va tarjimon Sayfi Saroyining o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi xizmatlari o'zbek tilshunosligida deyarli o'rganilmagan. Shoirning nazarda tutilgan asarini turli aspektlarda o'rganish o'zbek tilshunosligi uchungina emas, balki turkologiya uchun ham ahamiyatlidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Sayfi Saroyi va uning «Gulistoni bit-turkiy» asari xususida so'zlab bering?
2. «Gulistoni bit-turkiy» asarining qo'lyozmalari va ilmiy o'rganilishi bo'yicha nimalarni bilasiz?
3. «Gulistoni bit-turkiy» asarining tuzilishi va til xususiyatlarini aytib bering?

4. «Gulistoni bit-turkiy» asari qanday lug`aviy-badiiy xususiyatlarga ega?

ESKI O'ZBEK ADABIY TILI MANBALARI VA ULARNING TIL XUSUSIYATLARI

E'tibor qaratiladigan masalalar:

1. O'zbeklarning alohida etnik birlik (elat) siftida shakllanishida tilning o'rni va ahamiyati.
2. *O'zbek* etnonimining kelib chiqishi bo'yicha qarashlar.
3. Eski o'zbek adabiy tiliga oid badiiy asarlar tilida lahjaviy xususiyatlarning ifodasi.
4. Eski o'zbek adabiy tili davrida yaratilgan asarlar va ularning til xususiyatlari.

XIV asrning ikkinchi yarmidan XIX asr oxirlarigacha mavjud bo'lgan yozma kitobiy til eski o'zbek adabiy tili nomi bilan yuritiladi. O'rta asr turkiy adabiy tillari tarixidagi eng katta va ahamiyatli davr eski o'zbek tili davridir. Ushbu til eski turkiy tilning adabiy-lisoniy an'analari ta'siri ostida shakllandi va o'zbek elatining umumxalq adabiy tili sifatida amalda bo'ldi.

O'zbeklar alohida etnik birlik (elat) siftida dastlab O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari — Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida shakllangan. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy sug'diylar, baxtariylar, xorazmiylar, farg'onaliklar, yarim chorvador qang'lilar, ko'chmanchi sakmassaget kabi etnik guruhlar tashkil etgan. Shuningdek, Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'ylaridan

turli davrlarda Movarounnahrda kirib kelgan etnik komponentlar ham o'zbeklar etnogenezida ishtirok etganligi tarixdan ma'lum¹.

Ma'lumki, elatning shakllanishida til muhim ahamiyatga ega. O'zbeklar alohida etnik birlik (elat) bo'lib shakllangan davrda shu elat kishilariga xos umumiy til ham yuzaga kelgan. Agar o'zbek ajdodlarini alohida etnik birlik (elat) bo'lib shakllanish davrini IX-X asrlar deb tushunsak, uning elat tili ham shu asrlar ichida shakllangan bo'lishi mumkin.²

O'zbek etnonimining kelib chiqishi bo'yicha fanda aniq to'xtamli fikrga kelingan emas. Ayrim mualliflar Dashti Qipchoqda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalarining bir qismi o'zlarini erkin tutganliklari sababli «o'zbek», ya'ni «o'z-o'ziga bek» deb atagan desalar, boshqalar «o'zbek» etnonimini Oltin O'rda xoni O'zbekxon nomi bilan bog'laydi, boshqa yana bir guruh olimlar esa o'zbek nomi Oq O'rda (Dashti Qipchoqning sharqiy qismi)da ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalariga taalluqli bo'lgan degan fikrni bildiradilar.

Qoraxoniylar davrida Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o'tishi munosabati bilan o'zbek xalqi etnogenezining yaquniy bosqichi boshlandi. G'arbiy Qoraxoniylar davlati doirasida hozirgi o'zbeklarga xos turkiy etnos qaror topdi. Mazkur davrda o'zbek xalqiga xos elatni belgilovchi hudud, til, madaniyat, tarixiy qismatining umumiyligi, etnik o'zlikni anglash, etnosning uyushqoqligi ma'lum bir davlat doirasida bo'lishi, din umumiyligi va bir qancha shu kabi boshqa etnik alomatlar shakllandi. Bu davrda o'zbeklarning umum elat tili qaror topdi. Movarounnahr va unga tutashgan mintaqalarda yashovchi turkiyzabon aholi: qarluq, chigil, yag'mo, tuxsi, xalach, arg'in, o'g'uz, qipchoq, uz, qang'li singari urug'lar o'zlarini bir xalq sifatida anglay boshlaganlar. XI-XII asrning birinchi yarmida o'zbeklar xalq sifatida shakllangan.³

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т.: ЎзМЭ, 2006. -12-том. –Б. 108.

² Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Т.: Шарқ, 2001. –Б. 71.

³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т.: ЎзМЭ, 2006. –Б. 109.

Amir Temur va temuriylar davrida yuz bergan yuksak iqtisodiy va madaniy taraqqiyot natijasida Movarounnahrda adabiy til takomillashdi. Ilmiy asarlarda ushbu davr tiliga nisbatan «turkiy», «chig`atoy tili», «O`rta Osiyo turkiy adabiy tili» terminlari qo`llaniladi. Nazarda tutilgan davr o`zbek adiblari o`z tillarini *turkiy til* deb nomlaganlar. Eski o`zbek adabiy tili qadimgi va eski turkiy tilning bevosita davomi va hozirgi o`zbek adabiy tilining asosi hisoblanadi. Hozirgi o`zbek adabiy tili mazkur til zaminida yuzaga keldi va taraqqiy etdi.

Eski o`zbek tilining muhim xususiyatlaridan biri shuki, bu davrda yaratilgan asarlar tilida arabcha, forsha so`z va iboralar ko`p miqdorda qo`llanildi. Shu va boshqa sabablarga ko`ra kitobiy til bilan jonli til o`rtasida katta tafovut yuzaga keldi. Bulardan tashqari, lahja xususiyatlari ham hududlar bo`yicha keskin farq qilgan. Bunday xususiyatlar adabiy asarlarda o`z aksini topdi. Movarounnahrda yozilgan adabiy asarlar tili bilan Xorazmda yozilgan adabiy asarlar tili o`rtasida ma`lum lahjaviy farqlar sezilib turadi.

Keyingi asrlar, ya`ni XV-XVI asrlarda yaratilgan, chunonchi, Alisher Navoiy va Bobur asarlarida qarluq, o`g`uz va qipchoq lahjalarining xususiyatlari aralash holda qo`llangan. Eski o`zbek tilining ilk shakllanish davrida yaratilgan badiiy asarlar tilida lahjaviy xususiyatlar yaqqol aks etgan bo`lsa, keyinchalik esa bunday lahjaviy xususiyatlar aralashib ketdi. Yagona va umumiy adabiy til shakllanish jarayoni boshlandi, tilning barqarorlashgan me`yorlari yuzaga keldi.

Alisher Navoiy, shubhasiz, eski o`zbek adabiy tilini eng yuqori pog`onaga ko`tardi. Uning badiiy-ilmiy asarlari asosida eski o`zbek adabiy tili mislsiz darajada taraqqiy etdi. Adib o`zining nazmiy va nasriy asarlari bilan bu tilni kamolotga etkazdi, uni davlat tili maqomi darajasiga olib chiqishga, uning ijtimoiy-siyosiy huquqlarini har tomonlama himoya qilishga harakat qildi.

Alisher Navoiydan keyin ijod etgan Boburning nasriy «Boburnoma» asarida eski o`zbek adabiy tili ancha soddalashtirildi, jonli so`zlashuv tiliga

mumkin qadar yaqinlashtirildi. Bunday xususiyatni Alisher Navoiydan keyin ijod etgan deyarli barcha adiblarning nasriy asarlarida kuzatish mumkin. Nasriy asarlar tilini xalq jonli soʻzlashuv tiliga yaqinlashtirish, u asosida yaratish tamoyili amalda boʻldi. Nazmiy asarlarda esa eski oʻzbek adabiy tili anʼanalari, xususan, Alisher Navoiy sheʼriy asarlari tili meʼyorlari davom etdi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib nasriy asarlarga emas, nazmiy asarlar tili ham jonli tilga yaqinlashdi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqalar shoirlarning asarlari ana shular jumlasidandir. Ayni shu davr, yaʼni XIX asr oxiri XX asr boshlari eski oʻzbek adabiy tilidan hozirgi oʻzbek adabiy tiliga oʻtish bosqichi hisoblanadi.¹

Eʼtiborga sazovor yeri shundaki, oʻrta asrlarda eski oʻzbek tili (“chigʻatoy turkiysi”) Oʻrta Osiyodagi barcha turkiy xalqlar uchun umumiy adabiy til sifatida xizmat qildi. Temuriylar davrida takomillashib, yuksak bosqichga erishgan eski oʻzbek adabiy tilining anʼanalari Oʻrta Osiyo turkiy xalqlari orasida uzoq davom etdi. Turli oʻlkalarda – kerak Qashqarda, kerak Hirot, Yazd yoki Samarqandda boʻlsin yashab ijod etgan adabiyot ahlining asarlari bir-biriga tushunarli tilda ekanligining boisi ham shunda. Oʻzbek tili tarixida ushbu anʼanalar XX asr boshlariga qadar saqlanib qoldi².

Aytilganidek, eski oʻzbek adabiy tili qadimgi va eski turkiy til davrida yaratilgan yozma yodgorliklar tili anʼanalari taʼsirida shakllandi. Bu til uzoq tarixiy davr mobaynida amalda boʻldi. Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Gadoyi, Yaqiniy (“Oʻq va Yoy munozarasi” nomli nasriy asari muallifi), Amiriy (“Dahnoma” va “Bang va Chogʻir arasinda munozar” asarlari muallifi), Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari ulugʻ allomalar oʻzlarining oʻlmas asarlari bilan eski oʻzbek tilini yuksak bosqichga koʻtardilar, uning keyingi takomil yoʻlini belgilab berdilar.

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т.: ЎзМЭ, 2006. -5-том. -Б.219

² Содиков Қ. Тарихий лексикография / Ўқув қўлланма. –Т.: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2012. –Б. 39.

Ulardan keyin, ya'ni XVI asrda ijod etgan Muhammad Solih "Shayboniynoma" nomli katta hajmli she'riy badiiy-tarixiy asari, Majlisiy "Qissai Sayfulmuluk" nomli dostoni, Hoja "Miftahul-adl" (Adolat kaliti), "Gulzor" nomli ahloqiy-ta'limiy prozaik asarlari, XVII-XIX asrlarda ijod etgan Turdi va Mashrab g'azallari, Abulg'oz Bahodirxon "Shajarai tarokima" va "Shajarai turk" kabi tarixiy asarlari, Munis "Munisul-ushshaq" atalmish devoni, Ogahiy "Tavizul-oshiqin" nomli devoni va "Firdavsul-iqbol" nomli tarixiy asari, Gulxaniy "Zarbulmasal" asari bilan eski o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdilar.

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbeklarning alohida etnik birlik (elat) sifida shakllanishida til qanday o'rin va ahamiyatga ega?
2. *O'zbek* etnonimining kelib chiqishi bo'yicha qarashlarni tavsiflang va izohlang.
3. Eski o'zbek adabiy tiliga oid badiiy asarlar tilida qaysi lahjaviy xususiyatlar o'z ifodasini topgan?
4. Eski o'zbek adabiy tili davrida yaratilgan asarlar va ularning til xususiyatlari bo'yicha nimalarni bilasiz?

ATOIYNING O'ZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

E'tibor qaratiladigan masalalar:

1. Atoiy va uning ijodiy merosi xususida.

2. Atoiy devonining qo'lyozmalari, nashrlari va o'rganilishi.
3. Atoiy g'azallarining lug'aviy tarkibi.
4. Atoiy g'azallarining lingvopoetikasi.
5. Atoiyning o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi xizmatlari.

O'zbek madaniyati, tili va adabiyoti taraqqiyotida Atoiyning alohida o'rni bor. U Alisher Navoiyga qadar ijod etgan eng iste'dodli shoirlardan biridir. Shoir o'z asarlari bilan XV asr o'zbek dunyoviy adabiyotigagina emas, balki o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shdi.

Atoiyning hayoti va ijod yo'li to'g'risida ma'lumotlar ko'p emas, juda oz. *Uning XV asrda Samarqand, Buxoro va Balxda yashaganligi, turkiy va fors tillarida ijod qilganligi ayrim manbalarda aytilgan, xolos.* Shoir hayoti va ijodiy merosiga oid ilk ma'lumotlar Alisher Navoiy asarlarida mavjud. U "Muhokamatul-lug'atayn" asarida Temur Ko'ragon hukmronligi davridan to uning farzandi Shohrux Mirzo zamonining oxirigacha turkiy tilda ijod qilgan mashhur shoirlar Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy va Gadoiylar qatorida Atoiy ham hurmat bilan tilga oladi.¹

Shuningdek, Alisher Navoiy "Majolisun-nafois" tazkirasida ham Atoiy hayoti va ijodiga alohida to'xtalib, quyidagilarni yozadi: "Mavlono Atoiy Balxda bo'lur erdi. Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvash va xushxulq va munbasit kishi erdi. Turkigo'y erdi. O'z zamonida she'ri atrok (*turkiy tilda so'zlovchilar*) orasida ko'p shuhrat tutti. *Bu matla' aningdurkim:*

Ul sanamkim suv qirg'og'inda paridek o'lturur,

G'oyati nozuklugidin suv bila yutsa bo'lur.

¹Навоий. Мажолисун-нафоис. Танланган асарлар. (Нашрга Ойбек ва Порсо Шамсиевлар тайёрлаган). III том. –Т.: Фан, 1948. –Б. 7-153.

Qofiyasida aybg`inasi bor. Ammo Mavlono ko`p turkona aytur erdi. Qofiya ihtiyotig`a muqayyad ermas erdi. Qabri Balx navohisidadur.»¹

Mazkur fikrdan anglashiladiki, Atoiy nasab jihatidan Ahmad Yassaviyga borib taqaladi. Alisher Navoiy tilga olgan Ismoil ota Ahmad Yassaviyning inisi Ibrohim otaning o`g`lidir. Buni «Nasoim ul-mahabbat» («Muhabbat shabadalari») asarida Ismoil ota Ahmad Yassaviyning inisi Ibrohim otaning o`g`li ekanini aytadi. Atoiy devonining muqovasida va qo`lyozmaning oxirida «Devoni Shayxzoda Atoiy» deb qayd etadiki, bundan ham Atoiyning ijtimoiy kelib chiqishi shayxlar nasl-nasabiga borib taqalishini anglash mumkin.

Atoiydan bizgacha 260 ta g`azaldan iborat yagona devon yetib kelgan bo`lib, u hozirda Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutining Sharq qo`lyozmalari bo`limida 22 V-2456 raqami bilan saqlanadi.

Atoiy hayoti va ijodini o`rganish ishini A.N.Samoylovich boshlab berdi. U 1927-yilda chop ettirgan «Chig`atoy shoiri Atoiy» nomli maqolasida qo`lyozmani birinchi marta tavsif qiladi, shoir hayotiga oid ayrim mulohazalar bildiradi va uning 17 ta g`azalini e`lon qiladi.² Shundan keyin shoir asarlarini chop etish, uning hayoti va ijodini o`rganish ishlari boshlab yuboriladi. Fitrat 1928-yilda Atoiyning 15 ta g`azalini A.N.Samoylovich nashridan olib, «O`zbek adabiyoti namunalari» to`plamida nashr ettiradi.³ Adabiyotshunos Ergash Rustamov 1958-yilda shoirning 173 ta g`azalini tanlab olib, alohida kitob holida chop ettirdi.⁴ S.G`anieva 1988-yilda E.Rustamov nashridagi 167 g`azalni tanlab, «Hayot vasfi» to`plamiga kiritdi.⁵ Sayfiddin Rafiddinov 1991-yilda E.Rustamov nashrini asos qilib olib, shoirning chop etilmagan 77 ta g`azalini qo`shib,

¹ Навоий. Муҳокаматул луғатайн. Танланган асарлар. 3 жилдли. (Нашрни Ойбек ва П.Шамсиевлар тайёрлаган) –Т.: Фан, 1948. –III жилд. –Б. 185-201.

² Самойлович А.Н. Чигатайский поэт XV века Атаи. -Записки коллегии востоковедов. II вып. 2. -Л., 1927.

³ Ўзбек адабиёти намуналари. I том. -Т., 1928.

⁴ Отойи. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчи Эргаш Рустамов). - Т.: Бадиий адабиёт, 1958. -200 б.

⁵ Атойи. Ғазаллар. (нашрга тайёрловчи Суйима Ғаниева) // Ҳаёт васфи. - Т., 1988. -Б. 285-452.

alohida kitob holida e'lon etdi.¹ Ergash Ochilov esa 2011-yilda E.Rustamov, S.Rafiddinovlar nashriga tayanib, Atoiy g`azallarini chop ettirdi.²

Atoiy hayoti va ijodi adabiyotshunos E.Rustamov va S.Rafiddinov kabilar tomonidan o`rganilgan.³ S.Rafiddinovning “Majoz va haqiqat” monografiyasida Atoiyning poetik mahorati maxsus tadqiq etilgan, shoirning hayoti, devon tuzilishi, g`azallarining g`oyaviy-badiiy fazilatlari kabi qator masalalar atroflicha tahlil qilingan. Shuni alohida ta`kidlash lozimki, shoirning ijodiy merosi o`zbek tilshunosligida maxsus tadqiq etilmagan.

Atoiy asarlarining g`oya-mazmunini, falsafiy, mantiqiy, lisoniy, semantik va poetik xususiyatlarini yaxlit tahlil etish, shoirning xalqimiz badiiy-estetik tafakkuri rivojidadagi o`rnini aniqlash, uning xizmatlarini to`g`ri baholash, o`zbek adabiy tili lug`at tarkibini boyitishdagi tarixiy ahamiyatini yoritish muhim vazifalardan biridir.

Atoiy xalq og`zaki ijodi ruhida tarbiyalanganligi, uni yaxshi bilganligi va ulardan ijodiy foydalanishini g`azallaridan bilish mumkin. Shunga ko`ra shoir g`azallarining tili xalq og`zaki ijodi namunalari kabi sodda, ravon va musiqiydir. Aniqlanishicha, Atoiy 260 ta g`azalidan 109 tasini xalq **qo`shiq**lari vaznida yaratgan. Bu uning xalq tili boyliklaridan unumli foydalanib, ijod etganligini ko`rsatadi.

Atoiy g`azallarida xalqning ma`naviy qiyofasi, orzu-umidlari, tabiat va jamiyat hodisalari haqidagi xulosa va tavsiyalari mujassam xalq maqollariga katta e`tibor bergan. Ulardan g`azallarini mazmunli va ta`sirli etish maqsadida ko`p foydalangan. Bunga doir ayrim misollarni quyida keltirib o`tamiz:

Bo`ldi bag`rim suv g`amingdin, “yaxshilik qil, sal sug`a“,

¹ Девони Шайхзода Атоийи (нашрга тайёрловчи Сайфиддин Рафиддинов). -Т., 1991; Девони Шайхзода Атоийи (иккинчи наشري). -Т.: Фан, 2008.

² Атоийи. Жондан азиз жонона (нашрга тайёрловчи Эргаш Очилов). - Т.: Шарқ, 2011. -302 б.

³ Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. -Т.: Фан, 1963; Рафиддинов С. Мажоз ва хақиқат.. -Т.: Фан, 1995.-154 б.

Axir, ey gul, xirmanni, albatta, zar ekkan o'rar,

Atoiy g`azallarida muayyan sifatlarning namunaviy yig`indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlar, ya'ni prestedent nomlar juda ko'p miqdorda uchraydi. Bunday nomlar jumlasiga *Yusuf, Ya'qub, Farhod, Shirin, Ayyub, Jamshid, Sulaymon, Iso, Mustafo, Masih, Nux, Bilol* kabilarni aytib o'tish mumkin. Misollar:

Ey Masihim, men zaifi xastadilni bir nafas,

So'rmasang, o'lmaktin o'zga koru borim yo'qturur.

Yoki

Yuzi husn ichra *Yusuf*cha tuman ming,

Vale zulfi *Sulaymon* lashkaridur.

Atoiyning mazkur baytida *Yusuf* va *Sulaymon* obrazi bilan bog`liq talmehlar qo'llangan. Ma'lumki, *Yusuf* va *Sulaymon* haqidagi rivoyatlar "Qur'on" suralarida hamda boshqa tafsirlarda ko'plab keltirilgan. *Yusuf* go'zallik, *Sulaymon* esa kuch-qudrat, hashamat timsolidir. Atoiy yuqorida keltirib o'tilgan talmehlardan mahorat bilan foydalangan.

Shoir asarlari tilida *Hindiston, Alburz* (Elburs tog`i), *Alvand* (Hamadondagi baland tog`), *Totor, Xo'tan* (mumtoz adabiyotda odatda bu shahar ayollari bag`oyat go'zal, ipakli matolari esa juda nafis sifatida tasvirlanadi), *Adan* (Yamanning janubida joylashgan shahar), *Chin* (Xitoy), *Xaybar* (628-yilda Muhammad alayhissalom zabt etgan qal'a), *Misr* kabi joy, *Dajla* (Iroqdagi daryo), *Jayhun* (Amudaryo), *Aras* (Turkistondagi kichik daryo) kabi daryo nomlari keltirilgan.

Atoiy g`azallarida ma'shuqaning tishi *durga, yuzi gul, lola* va *xurshidga*, ko'zi esa *cho'lponga* o'xshatilgan. Mahbuba tushunchasi *oy, moh,*

gul, dilrabo, shohsuvar, pariruxsor, shaho, sangdil (bag`ritosh, berahm), oshiq tushunchasi esa *qul, gado, banda, xoksor* kabi ko`chma ma`noli so`zlar vositasida ifodalangan

Shaho, bizga nazar qilsang, ne bo`ldi?

Gadoni mo`tabar qisang, ne bo`ldi?

Shoir g`azallari tilida ma`lum miqdorda qadimgi turkiy so`zlar qo`llangan. Bunday so`zlar jumlasiga *asru* (juda ko`p, behisob), *dag`i* (yana, tag`in), *yasoq* (jazo), *ev* (uy, xona), *qamuq* (hamma, barcha), *meng* (katta xol) kabilarni aytib o`tish mumkin. Atoiy qo`llagan qadimgi turkiy so`zlarning deyarli barchasi Alisher Navoiy asarlarida uchraydi.

G`azallar tilidagi forsiy va arabiy tillarga oid so`zlarning bir qismi hozirgi o`zbek adabiy tilida qo`llanilmaydi. Forscha-tojikcha *xo`b* (yaxshi), *xo`blar* (yaxshilar), *kor* (ish), *dast* (qo`l), *mohi* (baliq), *dandon* (tish), *roh* (yo`l); arabcha *funun* (hunar, odat), *talaf* (halok, yo`q bo`lish), *samin* (qimmatbaho), *musohib* (suhbatdosh), *barid* (xat-xabar eltuvchi) kabi so`zlar hozirgi o`zbek adabiy tilida iste`molda emas.

Atoiy harfiy san`atlardan mahorat bilan foydalangan ijodkorlardan biridir.

Jim zulfung, nun qoshing qasdi jon aylab edi,

Boqi bo`lsun, lutf etib kirdi *alif* qadding aro.

Ushbu baytda keltirilgan arabiy harf nomlari – *jim, nun* va *alif* harflari kitobat badiiy san`atini yuzaga keltirgan. Ma`lumki, mumtoz adabiyotda *alif* harfi *tik qomat*, *jim* harfi yor *zulfi*, *nun* harfi esa *egilgan qomat* va *yorning qoshi* majoziy ma`nolarda istifoda etiladi. Atoiy *jim* harfining yozma shakli changakka o`xshaganligi, *nun* harfining yozma shakli qayrilmaligi, *alif*

harfining esa yozma shakli tik hamda to'g'riligini e'tiborga olib, ularni yor uzvlari tasvirini ifodalashda foydalangan. Mazkur baytda yor zulfi *jim* harfiga, qoshi *nun* harfiga, qaddi-qomati esa *alif* harfiga tashbih etilgan.

Atoiy xalq og'zaki ijodiga tayanib, o'ziga xos soddalikka, fikr-tuyg'ularini xalq ruhi va tiliga yaqin bo'lgan maqol, masal, quyma iboralar, ko'chimlar — o'xshatish, metaforalar bilan sayqallashga erishgan shoirlardan biridir. Uning ijodi o'ziga xos mahorat maktabi, ilhom manbai va adabiyotimizning nodir ma'naviy boyligidir. Mumtoz adabiyotimiz va o'zbek adabiy tili tarixida shoirning munosib o'rni borligini alohida ta'kidlab aytish maqsadga muvofiqdir. Uning badiiy asarlari ma'naviyatimizni boyitishi, adabiyotimiz rivoji va adabiy tilimiz tarixining muayyan davriga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan puxta o'rganishga xizmat qilishi, shubhasizdir. Shuning uchun ham shoirning adabiy faoliyati va asarlarining til xususiyatlarini bundan ham kengroq o'rganish adabiyotshunoslik va tilshunoslikning muhim vazifasidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Atoiy va uning ijodiy merosi xususida so'zlab bering.
2. Atoiy devonining qo'lyozmalari, nashrlari va o'rganilishi bo'yicha ma'lumot bering.
3. Atoiy g'azallari tilida qaysi qadimgi turkiy va umumturkiy so'zlar qo'llangan?
4. Atoiy g'azallari qanday o'ziga xos lug'aviy-badiiy xususiyatlarga ega?
5. Atoiyning o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi xizmatlari nimalardan iborat?

SAKKOKIYNING O'ZBEK ADABIY TILI TARIXIDAGI

O'RNI

E'tibor qaratiladigan masalalar:

1. Sakkokiy va uning ijodiy merosi xususida umumiy ma'lumotlar.
2. Sakkokiy devonining qo'lyozmalari va nashri.
3. Shoir qasida va g'azallarining leksik tarkibi hamda semantik xususiyatlari.
4. Sakkokiy g'azallarining lug'aviy-badiiy xususiyatlari.
5. Sakkokiyning o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi xizmatlari.

O'zbek adabiyoti rivojida Sakkokiy alohida o'rin tutadi. U Alisher Navoiyigacha o'zbek tilida ijod etgan mashhur shoirlardan biridir. Sakkokiyning tug'ilgan va vafot etgan yillari xususida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Shoirning hayoti bo'yicha tarixiy ma'lumotlar juda oz. Bu masalani yoritishda, asosan, uning qo'lyozma devoni va boshqa mualliflar tomonidan keltirilgan ba'zi bir materiallar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.¹

Sakkokiyning qo'lyozma devonidagi tarixiy shaxslar – Xalil Sulton, Arslon Xo'ja Tarxon, Xo'ja Muhammad Porso va Ulug'beklarga bag'ishlangan qasidalardan bilish mumkinki, shoir XIV asrning oxirgi choragi va XV asrning birinchi yarmida Movarounnahrda yashab ijod etgan. Ma'lumki, Xalil Sulton 1384-1411-yillarda yashagan va bobosi Amir Timur vafotidan keyin 1405–

¹ Муниров Қ. Саккокий. // Саккокий. Танланган асарлар. –Т.: Бадий адабиёт, 1958. –Б. 5.

1409-yillarda hokimiyatni boshqargan temuriyzodalardan biridir. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, uning adabiyotga qiziqishi yuqori darajada bo'lgan, saroyda adabiy yig'inlarni muntazam tashkil etishga harakat qilgan va o'zi ham o'zbek tilida she'rlar yozib, ularni shu yig'inlarda o'qigan.

Sakkokiy madh etib, qasida yozgan Arslon Xo'ja Tarxon (Arslon Xojatarxon) esa XV asrning birinchi yarmida yashagan davlat arbobi va shoirdir. U Ulug'bekning ishonchli amirlaridan, Sabron shahrining hokimi bo'lgan. Sakkokiy ma'lum davr uning saroyida yashagan. Arslon Xo'ja Tarxon qadimgi turkiy qo'lyozmalarni, chunonchi, Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarini maxsus ko'chirtirgan. Asar 1444-yilda Samarqandda ko'chirtirilgan. Arslon Xo'ja Tarxon qo'lyozma oxirida Ahmad Yugnakiy haqida «Adibning yeri oti Yugnak erur, Sifoti ajab yer, ko'ngillar yorur...» misralari bilan boshlanuvchi o'n baytli masnaviyini ilova qildirgan.

Ayonki, Sakkokiy qasida yozgan Xoja Muhammad Porso (1348-1420) esa Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatida, islom va tasavvuf tarixida chuqur iz qoldirgan allomalardan biri bo'lib, u tasavvuf ilmi bo'yicha Naqshbandiya maktabi asoschisi Bahouddin Naqshbandning sadoqatli va sevimli shogirdidir. Alloma o'z davrida va undan keyin Markaziy Osiyoda naqshbandiya oqimining eng yirik vakili hamda targ'ibotchisi sifatida nom qozongan, o'z davrining yirik olimlaridan biri sifatida mashhur bo'lgan.

Sakkokiy shoirning taxallusidir, uning nomi ma'lum emas. *Sakkok* arabcha so'z bo'lib, ma'nosi «pichoqcha» demakdir. Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» asarida Sakkokiy to'g'risida quyidagilarni yozadi: «Mavlono Sakkokiy Movarounnahrdir. Samarqand ahli anga ko'p mu'taqiddurlar va bag'oyat ta'rifin qilurlar. Ammo faqir Samarqandda erkanda muarrif (tanituvchi, bildiruvchi – Y.S.)laridin har necha tavahhus qildimkim, aning natoij tab'idin bir nima anglayin; ta'rif qilg'onlaricha nima zohir

bo'lmadi. Barchadin qolsalar so'zlari budurkim, Mavloni Lutfiyning barcha yaxshi so'zi aningdur, o'g'urlab, o'z otig'a qilibdur. Ul yerlarda bu nav' o'xshashi yo'q mazasiz mukobara (kibrlanish, o'ziga bino qo'yish – Y.S.)lar gohi voqi' bo'lur, bori ba'zisi ta'rif qilibkim o'qurlar, bu matla'ni anga isnod qilurlarkim:

Ne nozu bu, ne shevadur, ey jodu ko'zluk sho'x shang,

Kabki dariyu tovsuda yo'q, albatta, bu raftor nang.

Qabri ham ul sori-o'qdur..."¹

Shoirning to'liq devoni hozircha topilgan emas. Bizgacha shoir qasidalari va g'azallari jamlangan devonining ikkita noto'liq, deyarli bir xil nusxalari etib kelgan. Ulardan, birinchisi, Britaniya muzeyida (taxminan XVI asr o'rtalarida ko'chirilgan) va ikkinchisi, Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida (1937-yil Shoislom kotib tomonidan ko'chirilgan) nusxalardir.

Sakkokiy devonida bir hamd, bir na't va o'n bir madh qasida mavjud. Madh qasidalarining bittasi Xoja Muhammad Porsoga, bittasi Xalil Sultonga, beshtasi Ulug`bek Mirzoga (ushbu qasidalarining bittasi Shohrux sultonga bag`ishlangan degan fikrlar ham mavjud), to'rttasi Arslon Xoja Tarxonga bag`ishlangan. Shoir devonida Ulug`bek Mirzoga bag`ishlangan ikki qasida o'rtasida hech qanday belgi qo'yilmaganligi, keyingi qasida sarlavhasiz bo'lganligi uchun Ulug`bek Mirzoga bag`ishlangan qasidalar tadqiqotchilar tomonidan to'rtta sanalib kelingan. Sakkokiy asarlarini 1958-yilda Q.Munirov nashrga tayyorlab, kirill alifbosida chop ettirdi.² Undan shoirning deyarli barcha g'azallari va Ulug`bekka bag`ishlangan qasidasi o'rin olgan.

¹ Навоий. Мажолисун-нафоис. Танланган асарлар. (Нашрга Ойбек ва Порсо Шамсиевлар тайёрлаган). III том. –Т.: Фан, 1948. –Б. 58.

²Саккокий. Танланган асарлар. –Т.: Бадиий адабиёт, 1958. –80 б.

Sakkokiy o'zbek adabiyotida eng ko'p qasida yozib, qasida janriga asos solgan shoirdir. Ma'lumki, *qasida* arabcha so'z bo'lib, *ko'zlam*oq, *niyat qilmoq* degan ma'noni ifodalaydi. O'zbek mumtoz qasidalari, asosan, arab va fors qasidachiligi zaminida yuzaga kelgan. Qasida biror shaxsning (ko'pincha hukmdorning) madhiga bag'ishlanadi. Sakkokiyning hukmdorlarga bag'ishlangan qasidalari shakli va mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, shoir arab, xususan, fors qasidachiligidan xabardor bo'lgan.

Sakkokiy g'azallarining aksariyati muhabbat, ishq mavzusiga bag'ishlangan. Ularda ma'shuqa tasviri sodda uslubda, xalqona tilda bayon etilgan. Shundan bo'lsa kerak, Alisher Navoiy alohida ta'kidlaganidek, xalq orasida uning she'riy asarlari keng yoyilgan, sevib o'qilgan va shu bois shoirning nomi o'z davrida juda mashhur bo'lgan.

Sakkokiy g'azallari tilidagi *yuz, ko'z, bosh, tish, og'iz, oy, el, kun* (quyosh), *tun, qul, it, eshik, qush, to'n, ot, tuyoq* kabi umumturkiy, *gul, oyna, toza, guliston, bo'ston, darmon, dori, do'st, dushman* kabi forsiy, *tabib, hadis, kofir, musulmon, ishq qibla, shu'la, xaloyiq, qiyomat, bulbul* kabi arabiy so'zlar hozirgi o'zbek tilida faol qo'llanishda davom etmoqda. Ayrim so'zlar, chunonchi, *qaro* (qora), *tufroq* (tuproq), *ko'ngul* (ko'ngil), *oltun* (oltin), *timar* (tomir), *kirpik* (kiprik) kabi umumturkiy so'zlar esa hozirgi o'zbek adabiy tilida ma'lum tovush xususiyatiga ko'ra farqlanadi. Bunga doir quyidagi misolni keltirib o'tamiz:

Qaro ko'z birla bir g'amza qilib yuz ming jafo qilma,

Karashma birla olamni meningtek muhtalo qilma.

Shoir g'azallari tilida *azin* (boshqa, o'zga), *ir* (ashula), *iklik* (qattiqlik, qiyinlik), *bikin* (kabi, singari), *azaq* (oyoq), *ajun* (dunyo, olam), *izdamoq* (izlamoq), *alin* (peshona, manglay), *tabug'* (xizmat), *ern* (lab), *eng* (yuz), *eglik* (yaxshilik), *o'g'on* (tangri), *qamug'* (hamma, barcha), *qopqi* (eshik, darvoza),

usruk (mast, sarxush) kabi qadimgi turkiy soʻzlar qoʻllangan. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi misolni keltiramiz:

Turkona *ir* irlag`uncha oning,

Kuydurdi meni yalay-bulosi.

Yoki

Tushti bu zaif jonimg`a dardi,

O`lmaktin *azin* yo`q ul davosi.

Sakkokiy g`azallari tilida forsha-tojikcha soʻzlardan koʻp miqdorda foydalangan. Ularning bir qismi hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanilmaydi. Bunday soʻzlar jumlasiga *zunnor* (musulmon davlatlarida yashovchi xristianlar majburan belga bog`lab yuradigan ma`lum bir rangdagi chilvir), *kunj* (burchak), *zavlona* (bo`g`ov, kishan), *ori* (to`g`ri, rost) kabilarni aytib o`tish mumkin. Mazkur soʻzlar Alisher Navoiy asarlari tilida qoʻllangan. Sakkokiy sheʼrlarida qoʻllangan ayrim forsiy soʻzlar esa, *chunonchi*, *hazor* (ming), *sad* (yuz), *xor* (tikan), *xudro`* (o`zicha o`sgan, yovvoyi), *xud* (yomon) kabilar oʻzbek tilining ayrim shevalarida hozirda ham iste`molda bo`lib kelmoqda. Misol:

Agar qoshimda o`shal gul uzor bo`lsa edi,

G`ame yo`q erdi, g`amim gar *hazor* bo`lsa edi.

Sakkokiy sheʼrlari tilida *Iso*, *Yusuf*, *Ya`qub*, *Layli*, *Majnun*, *Maseh*, *Maryam*, *Sulaymon*, *Muso*, *Shohruhbek*, *Ulug`bek*, *No`shiniravon*, *Zuhra* kabi antroponimlar, *Turkiston*, *Hindiston*, *Rum* (Rim), *Chin*, *Xitoy*, *Xo`tan*, *Yaman*, *Sayhun*, *Jayhun* kabi toponimlar, *turk*, *habash*, *lo`li*, *hind*, *urus* (rus), *charkas* (cherkas) kabi etnonimlar qoʻllangan. Misollar:

Xo`blar soni yo`q *Chinu*, *Xitoy*, *Xo`tan* ichra,

Etmas sanga lekin tilagan dunyoda soniy.

Yoki

Kim ko'rsa aning ko'zini aytur:

Ne turfa erur bu *turk* balosi?

Sakkokiy mumtoz shoirlar singari o'z g'azallarida talmeh badiiy san'atini ko'p qo'llagan:

Yuz uzra go'yo zulfung *Sulaymon* mulkini tutmish,

Ul *Ahramanning* ilkindin hazoron ohu vovaylo.

Baytda keltirilgan Ahraman qadimgi eroniylar aqidasi ko'ra, poklik xudosi Ahuramazdaga qarshi kurashib, nopoklik va yomonlik ramziga aylangan. U Sulaymon haqidagi afsonalarda podshoh xizmatidagi devlardan biri sifatida ko'rinadi. U Sulaymonning uzugini o'g'irlab olib, qirq kun mamlakatda hukmronlik qiladi. Sakkokiy o'z baytida devning hukmronligi paytidagi jabr-zulmga ishora qilmoqda.¹

Sakkokiy talmehdan tashqari boshqa badiiy san'atlar, chunonchi, tashbihdan ham keng va o'rinli foydalanishga harakat qilgan. Uning g'azallarida mahbuba tishi *durga*, yuz (yangoq)i *gul*, *nor* (anor), *olma* va *oyga*, qaddi-qomati *tol*, *chinor* va *sarv* daraxtiga, og'zi *pistaga*, ko'zi *bodomga*, zulfi *tuzoqqa* tashbih etilgan. Oshiqning ko'z yoshlari *yulduzga* o'xshatilgan. Shoirning ayrim she'rlarida inson umri *shamga*, qalbi esa *mamlakat* va *viloyatga* qiyoslangan:

Nortek yangoqing furqati ichra ko'ngulu jon,

Ul kuydi judovu bu judo, bizni unutma.

Yoki

¹ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Т.: Ўзбекистон, 2014. –Б.201.

Dur tishinggu gul yuzung vasfidin kehti hadis,

Sham' hayrat o'tina yondi-yu so'zon yig'ladi.

Mumtoz adabiyotda odatda mahbuba qomati sarv daraxtiga qiyoslangan. Sakkokiy esa yor qaddi-qomatini o'zbek xalqining tabiiy muhitiga bevosita bog'liq va yaqin *tol daraxtiga* o'xshatadiki, bunday o'xshatish boshqa mumtoz ijodkorlar asarlarida deyarli uchramaydi.

Ey gul, yuzingga huru pari bandayi joni,

Toltek bo'yung ozodi erur sarvi ravoni.

Baytda forsiy *gul* so'zi vositasida shoir ochiq istiora badiiy san'atini yaratgan. Ma'lumki, mazkur so'zni *ma'shuqa* ma'nosida metaforizatsiyalash mumtoz adabiyotda keng yoyilgan. Shoir ushbu baytda aytmoqchi, ey mahbubam, sening pokiza, pari kabi go'zal yuzing, toldek tik qaddi-qomating va chiroyli yurishingga jonim banda, ya'ni quldir. Sakkokiy ijodida yor, ma'shuqa tushunchasini ifodalashda *gul* metaforasidan tashqari yana *oy, jon, sarvi noz, sulton, pari, sanam, husn ganji, shah* kabi ko'chma ma'noli so'zlardan foydalangan:

Kim ermas ul oy mubtalosi,

Yolg'uz menga yo'q aning balosi.

Oshiq tushunchasini ifodalashda esa shoir *qul, it, gado* kabi so'zlarni majoziy ma'noda qo'llaydi

Sakkokiy *ag'yor-raqib-dushman, dunyo-jahon, xaloyiq-ulus* kabi sinonimlar va *do'st-dushman, dono-nodon, kecha-kunduz, toza-kir, saxiy-xasis, oz-ortiq, bevafo-vafodor, davlatmand-faqir* kabi antonimlarni qo'llash orqali g'azallarining ta'sirchanligini oshirishga harakat qilgan. Ayniqsa, shoir asarlari tilida qo'llangan antonimlar tazod badiiy san'atini yaratishga asos bo'lgan:

Biror ko'ngul g'amidin bo'lsa erdi voqif *do'st*,

Ne qayg'u, *dushman* agar sad hazor bo'lsa edi.

Sakkokiy she'riy asarlarida arabiy *havo* so'zi uch ma'noda, ya'ni 1) orzu, havas; 2) ishq, muhabbat; 3) uchish, parvoz ko'chma ma'nosida qo'llangan:

Bergusi g'arib boshimni elga,

Ruxsora-u zulfining havosi.

Ey Sakokiy, bu shah qobqin g'animat tut, chu zulfig'a,

Ayoqin bog'lag'on qushsen, ucharg'a hech havo qilma.

Mazkur baytlardan anglashiladiki, *havo* so'zi birinchi baytda *orzu-havas*, ikkinchi baytda esa *uchish*, *parvoz* ko'chma ma'noni bildiradi. Sakkokiy yor uzvlarining ko'rinishini ifodalash uchun ba'zan literonim, ya'ni harf nomlaridan ham foydalangan:

Barcha xaloyiq to'p bikin tashlar ayoqing uza bosh,

Bu ishga zulfung *dol* erur, sen oni chavgon aylama.

Shoir ushbu baytda aytmoqchiki, ey yor, barcha oshiqlar to'p kabi oyoqing ostiga bosh qo'ydilar, bunga sening *dol*, ya'ni gajak zulfing sababchi, sen uni chavgon, ya'ni uchi egri qilib tayyorlangan tayoq va shu tayoq bilan ot ustida o'ynaladigan o'yinga aylantirma. Baytda yor zulfi bilan arabiy harfning yozilishi qiyoslanib, ikkinchi misrada yorqin badiiy tasvirga erishilgan. Ya'ni, ma'shuqa zulfining qayrilganlik holati *dol* harfining yozilishiga ko'chirilgan. Shoir asarlarida *dol* harfi ma'shuqaning *gajak zulfi* majoziy ma'nosida qo'llagan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Sakkokiy o'zbek tili va adabiyoti taraqqiyotiga o'ziga xos hissa qo'shgan shoirlardan biridir. U o'zbek tilining

boy imkoniyatlaridan unumli va o'rinli foydalanganligini, asarlari tilini xalq jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashtirishga harakat qilganligini alohida ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Uning asarlari XIV-XV asr o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishda muhim manbalar sirasiga kiradi.

Sakkokiyning o'z davri va undan keyin o'zbek tilida ijod etgan shoirlarga ta'siri ma'lum darajada bo'lganligiga shubha yo'q. Shoirning muhim xizmatlaridan biri shuki, u o'zbek mumtoz adabiyotini xalq og'zaki ijodida kuzatiladigan ohang va yangi badiiy san'atlar, chunonchi, tashbih, istiora hamda tajnis kabilar bilan boyitdi. Umuminsoniy, beg'ubor va pokiza muhabbat g'oyalari ifodalangan asarlari davrlar o'tishi bilan o'z ahamiyatini aslo yo'qotmaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Sakkokiyning ijodiy merosi xususida so'zlab bering.
2. Sakkokiyl devonining qo'lyozmalari va nashri bo'yicha ma'lumot bering.
3. Shoir asarlari tili qanday leksik tarkib hamda semantik xususiyatlarga ega?
4. Sakkokiyl g'azallarining o'ziga xos lug'aviy-badiiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Sakkokiyning o'zbek adabiy tili taraqqiyotida qanday xizmatlari bor?

LUTFIY VA O'ZBEK ADABIY TILI

E'tibor qaratiladigan masalalar:

1. Lutfiy ijodiga Alisher Navoiyning munosabati.
2. Shoir devonining qo'lyozma nusxalari va nashri.
3. Lutfiy g`azallarining leksik tarkibi hamda semantik xususiyatlari.
4. Adib g`azallarining lingvopoetikasi.
5. Lutfiyning o'zbek adabiy tili rivojidadagi o'rni.

Lutfiy o'zidan boy adabiy meros qoldirdi. O'z davrining «malik ul-kalomi» darajasiga ko'tarilgan shoir 1366-yilda tavallud topib, 1465-yilda vafot etgan. Yaqin vaqtlargacha Lutfiyning tavallud topgan va vafot etgan joyi Hirotning Dehikanor mavzei deb ko'rsatib kelingan. Shayx Ahmad Taroziyning Mirzo Ulug`bekka bag`ishlab yozilgan «Funun ul-balog`a» asari topilgach, undagi «ma'dan ul-latoyif Lutfiyi Shoshiy» jumllariga asoslanib, Lutfiyning ona vatani Toshkent bo'lgan, degan fikr ham ilgari surildi.¹

Alisher Navoiy “Majolisun-nafois” asarida Lutfiy xususida quyidagilarni yozadi: “Mavlono Lutfiy o'z zamonining malikul-kalomi erdi, forsi va turkida naziri yo'q erdi, ammo turkida shuhrati ko'prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdur va mutaazzirul javob matla'lari bor, ul jumladin biri budurkim:

Nozukluk ichra belicha yo'q tori gisuyi,

O'z haddini bilib, belidin o'ltirur quyi.

Yana biri bukim:

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochdin,

Soldi kamand bo'ynuma ikki qulochdin.”²

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т.: ЎЗМЭ, 2006. -2-том. – Б. 203-205.

² Навоий. Мажолисун-нафоис. Танланган асарлар. (Нашрга Ойбек ва Порсо Шамсиевлар тайёрлаган). III том. –Т.: Фан, 1948. - Б. 56-57.

Alisher Navoiy mazkur tazkirasida Lutfiyning to'qson to'qqiz yil yashaganligini va umrining oxirida «oftob» radifli she'r yozganligini, unga barcha shoirlar tatabbu' qilganligini, biroq hech bir shoir matla'ni u darajasida ayta olmaganligini, darvesh sifat kishi ekanligini, qabri o'z manzili Dehikanordaligini aytib o'tadi. Uning fikricha, Lutfiy Dehikanorda tavallud topib, shu yerda vafot etgan.

Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» tazkirasida Lutfiyning bizgacha yetib kelmagan «Zafarnoma» deb nomlangan dostoni to'g'risida shohidlik beradi va yozadi: «Mavlononing «Zafarnoma» tarjimasida o'n ming baytdin ortuqroq masnaviysi bor, bayozg'a yozmag'on uchun, shuhrat tutmadi». Ma'lumki, fors tilida yaratilgan «Zafarnoma» asari Sharafiddin Ali Yazdiyga tegishli bo'lib, u Amir Temur hayotiga oid asardir. Alisher Navoiyning yozganiga ko'ra Lutfiy ana shu tarixiy asarni turkiy tildagi poetik namunasini yaratishga harakat qilgan. Lutfiy mazkur asarini "bayozg'a yozmag'on uchun" mashhur bo'lmagan. Asarning nusxasi hozircha topilgani yo'q.

Shoirning bizgacha XVI-XX asrlar mobaynida ko'chirilgan turkiy devonining 33 qo'lyozma nusxasi yetib kelgan bo'lib, ular Toshkent, Dushanba, Istanbul, Tehron, London, Parij, Sankt-Peterburg kutubxonalari va qo'lyozma fondlarida saqlanadi. Yaqin-yaqingacha «Gul va Navro'z» dostoni Lutfiy asari deb kelingan edi. Keyingi tadqiqotlar natijasida bu doston muallifi Haydar Xorazmiy ekanligi aniqlandi.

Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» tazkisasi va boshqa asarlarida Lutfiy haqida keltirilgan fikrlardan anglash mumkinki, Lutfiy ijodi Alisher Navoiyga kuchli ta'sir ko'rsatgan, uni buyuk asarlar yozishga ilhomlantirgan. Bunga misol tarzida aytish mumkinki, Alisher Navoiy o'zidan oldin ijod etgan shoirlardan faqat Lutfiy g'azallariga muxammaslar yozgan, xolos.

Shoir lirikasida ishq tuyg`ularidan rohatlanish, Oллоh ne`matlaridan zavqlanish, tabiat go`zalliklaridan bahramand bo`lish, insoniy fazilatlarni qadrlash, adolatparvarlik, ilm va ma`rifatni sevish hamda ulug`lash kabi umuminsoniy g`oyalar ilgari suriladi. Shoir lirikasining asosiy mazmunida yaxshilik va ezgulikka da`vat etuvchi oshiq nidolari o`rin olgan.

Lutfiy asarlari tilida hozirgi o`zbek adabiy tilida faol qo`llanuvchi *ko`z, bosh, yuz, qosh, og`iz, bilak, bo`y* (qomat), *el* (xalq), *oy, it, tun, kun, o`q* kabi umumturkiy so`zlar ko`p uchraydi. Mazkur xususiyatga ega ayrim so`zlar borki, ular hozirgi o`zbek adabiy tilida talaffuz nuqtai nazardan farq qiladi. Bunday so`zlar jumlasiga *ko`ngul* (ko`ngil), *tufroq* (tuproq), *oltun* (oltin) kabilarni aytib o`tish mumkin.

Lutfiy asarlari tilida *dag`i* (yana, tag`in), *bikin* (kabi, singari), *usruk* (mast, sarxush), *yangoq* (yuz, yonoq), *o`g`on* (xudo), *yarog`* (qurol, aslaha, asbob-anjom; hozirlik), *yig`ach* (daraxt), *o`ksuk* (1. Tuban, past, kam, oz. 2. Etim) kabi qadimgi turkiy tilga oid so`zlar qo`llangan. Bu kabi so`zlar hozirgi o`zbek adabiy tilida qo`llanilmaydi.

Shoir asarlari tilida fors va arab tillariga oid o`zlashma so`zlar ko`p miqdorda uchraydi. Bunday so`zlar jumlasiga forsiy *navbahor, bahor, zanbur* (ari), *jahon, sham, dori, olov, nol* (qamish qalam ichidagi ingichka tomir, qiltiriq), *ohan* (temir), *rishta* (ip; tomir), *xok* (tuproq), *sang* (tosh), *ganj* (oltin, kumush), *kilk* (qamish qalam), *jom* (qadah, may piyolasi), *zar* (oltin), *armug`on* (sovg`a, tuhfa), *do`st, sar* (bosh), *po* (oyoq); arabiy *malak, ruh, shayton, oshiq, fano, jannat, qibla, zamon, davr, tarix, asr* (davr, zamon), *vaqt, samo, ma`shuqa, zolim, mazlum, mal`un, munis, qallob, mudhish, harom, faqir, mash`um, aziz, asir xazin, g`ofil, miskin, fotih* (zabt etuvchi) kabi so`zlarni aytib o`tish mumkin.

Lutfiy asarlarining tili nihoyatda sodda, og`zaki nutqqa juda yaqin. G`azallaridagi bosh mavzu ishq bo`lib, asosiy maqsad mahbubaning go`zal ko`rinishi va oshiqning hasbu holini tasvirlashdan iboratdir. Shoir ishq mavzusi orqali o`zining badiiy-estetik qarashlarini she`rlarida mahorat bilan ifoda etadi. Bu jarayonda u badiiy san`atlardan keng va o`rinli foydalanadi. Lutfiy devonida tashbeh, talmeh, tazod, iyhom, irsoli masal kabi badiiy san`atlar namoyon bo`lgan.

Lutfiy asarlari tilida *Yusuf, Ayyub, Nuh, Iso, Ya`qub, Masiho* kabi antroponimlar talmeh badiiy san`atini yuzaga keltirishga asos bo`lgan. Lutfiy g`azallarida *Ulug`bek* kabi tarixiy shaxs nomlari ham uchraydi. Shoir asarlarida ma`shuqaning yuzi *oy/moh, xurshid/quyosh, oltin, lola va nor* (anor)ga, ko`zi *jayronning ko`ziga*, qoshi *nun* harfining yozilish shakliga, og`zi *shakar, pista va zarraga*, bilagi *kumushga* o`xshatilgan.

Lutfiy ma`shuqa tushunchasini ifodalashda *oy, sarv, gul, moh, podshoh, siymbar, qora qosh, dilbar, shohsuvor* kabi so`zlarning ko`chma ma`nolaridan foydalangan. Oshiq tushunchasini ifodalashda esa *it, gado, qul* kabi so`zlarni metafora sifatida qo`llagan. Shoir mazkur so`zlar vositasida istiora badiiy san`atining go`zal namunalarini yaratishga erishgan.

Kishi qomati, xususan, mahbuba qomati mumtoz adabiyotda odatda sarv daraxtiga qiyoslangan. Lutfiy ijodida ham qomatni sarv daraxtiga o`xshatgan tasvirlar uchraydi. Biroq bunday o`xshatishlar siyrak uchraydi. Shoir qomatni, asosan, o`tmishda o`zbek xalqining hayotiga yaqin bo`lgan o`qqa qiyoslagan. Bunday o`xshatish o`zbek tilida ijod etgan boshqa shoirlarning asarlarida oz uchraydi.

Lutfiy asarlarida *-liq/-lig`* qo`shimchasi asosida yasalgan so`zlar ko`p uchraydi. Mazkur qo`shimcha yordamida *dilraboliq, yaktolig`* (yakkalik, tengi

yo'qlik) kabi yangi so'zlar hosil qilingan. Anglashiladiki, nazarda tutilgan davr adabiy tilida mazkur qo'shimchanning yangi so'z hosil qilishi faol bo'lgan.

Shoir she'riyatida takrordan qochish maqsadida qo'llanilgan ma'nodosh so'zlar talaygina uchraydi. Chunonchi, *jafo-kulfat-azob-uqubat* (arabiy-arabiy-arabiy); *qalb-yurak-ko'ngil-dil* (arabiy-umumturkiy-umumturkiy-forsiy), *xat-noma* (arabiy-forsiy), *urush-jang* (umumturkiy-forsiy), *taraf-yon* (umumturkiy-umumturkiy), *afg'on-nola-faryod-fig'on* (forsiy-forsiy-forsiy-forsiy), *el-xalq* (umumturkiy-arabiy), *jamol-husn* (arabiy-forsiy) va boshqalar shular jumlasidandir. Misol:

Jamol qaydaki bo'lsa, jafosi jong'a tegar,

Magarki *husnu* jafo ittifoqi bir bo'lur.

Ayonki, tajnis san'atini voqealantiruvchi lug'aviy omonimlarning badiiy adabiyotda, ayniqsa, nazmdagi ahamiyati kattadir. Ular badiiy adabiyotda uslubiy xususiyat kasb etib, kitobxonning diqqatini jalb etishda muhim o'rin tutadi. Ayonki, tajnis so'zning ichki, tashqi shakli bilan aloqador san'atlardan biridir¹.

Sharq nazmida, chunonchi, o'zbek she'riyatida omonimlar muhim ahamiyat kasb etgan. Shaklan bir xil, biroq boshqa-boshqa ma'nolarni ifodalovchi omonimlar she'riyatda nozik so'z o'yinlarini ishlatish, so'zlarning ohangdoshligini oshirish, qofiyalarni tugal voqelantirishga keng imkon beradi. Ular muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalashning muhim vositalaridan biri sanaladi. Omonimlarning ana shu xususiyatlarini teran anglagan Lutfiy o'z she'rlari tilini yaratishda ulardan o'ta mohirlik bilan foydalangan. Masalan, shoirning tuyuq janriga oid quyidagi she'riga e'tibor qarataylik:

¹ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. -Т.: Фан, 1983. –Б. 107.

Ko'ngluma har yonki boqsam, *dag`i* bor,

Har necha dardimni desam, *dag`i* bor.

Qilcha tanga bori ishqing yor edi,

Bir sari bo'ldi firoqing *dag`i* bor.

Birinchi misradagi *dag`* so'zi forscha bo'lib, u hozirgi o'zbek adabiy tilida *dog`* shaklida qo'llaniladi. Uning asl ma'nosi *ifloslanganlik, bulg`anganlik, kirlanganlik*dir. Ushbu so'z misrada *ko'ngil dog`i* ma'nosida kelganligini e'tiborga olib, uni *ko'ngilga og`ir olingan voqea-hodisa, gap-so'zning asorati* ma'nosida ham tushunish mumkin.

Ikkinchi misradagi *dag`* so'zi qadimgi turkiy so'z bo'lib, uning lug`aviy ma'nosi *yana, tag`in, hamdadir*. To'rtinchi misradagi *dag`* so'zi esa forsiy so'z bo'lib, u *qayg`u, alam, armon, hasrat* kabi ma'nolarni ifodalab kelgan.

Lutfiy lirikasi o'z davrida va undan keyin katta shuhrat topgan. Bu muvaffaqiyatni ta'min etgan muhim omillar esa uslub soddaligi, ifodalarning xalqonaligi, badiiy san'atlardan o'rinli va samarali foydalanilganligi hamda she'r vaznining xalq qo'shiklariga yaqinligidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Lutfiy ijodiga Alisher Navoiyning munosabati qanday bo'lganligini so'zlab bering?
2. Shoir devonining qo'lyozma nusxalari va nashri bo'yicha ma'lumot bering.
3. Lutfiy g`azallari qanday leksik tarkib hamda semantik xususiyatlarga ega?

4. Adib g`azallarining lingvopoetikasi bo`yicha nimalarni bilasiz?
5. Lutfiyning o`zbek adabiy tili rivojidadagi o`rnini tushuntirib bering.

ALISHER NAVOIY ASARLARI TILIDA LEKSIK VA GRAMMATIK ME`YORLAR

E`tibor qaratiladigan masalalar:

1. Alisher Navoiyning turkiy tillar madaniy merosiga munosabati.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining lug`aviy tarkibi va undagi so`zlarning mavzuiy guruhlari.
3. Shoir asarlarida forsiy va arabiy o`zlashma so`zlar va ularning shoir badiiy uslubiga ta`siri.
4. Alisher Navoiy asarlari tili va uslubi, uning davr adabiy muhitiga ta`siri.
5. Adibning o`zbek adabiy tilini leksik-grammatik jihatdan me`yorlashtirish borasidagi xizmatlari.

Jahon ma`naviyatining buyuk siymosi, o`zbek xalqining ulug` mutafakkiri, atoqli shoiri va ulkan tilshunosi Alisher Navoiy o`zbek tilining boy imkoniyatlaridan o`rinli, samarali va juda keng foydalangan adiblardan biridir. O`zbek adabiy tili leksikasi va grammatik qurilishini ma`lum bir me`yorga kelishida uning xizmatlari beqiyosdir. Adib asarlari orqali eski o`zbek adabiy tili o`zining eng yuqori pog`onasiga ko`tarildi.

Ayonki, har qanday tilning fonetik-grammatik va leksik tizimi har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy holatiga ko'ra ixtiyoriy hamda g'ayri ixtiyoriy o'zgarishga uchraydi. Alisher Navoiy yashagan va ijod etgan davrda ham o'zbek adabiy tilida oldingi davr adabiy tilidan ma'lum sifat, mazmun hamda miqdor jihatdan farq qiluvchi adabiy til amalda bo'ldi.

Qadimgi turkiy til va eski turkiy adabiy tilda mavjud bo'lgan, faol qo'llangan lug'aviy birliklar, xususan, tub turkiy so'zlarning katta qismini Alisher Navoiy o'z asarlari tilida ishlatgan. Adib bunday so'zlarni qo'llashda, ularning jonli so'zlashuv tilida mavjudligi, el (xalq) orsida keng iste'modaligi, kundalik turmush uchun faol leksik birlik ekanligi, umumxalq uchun tushunarligi, kundalik turmush uchun faol leksik birlik ekanligi, tilda barqaror va turg'unligi kabi jihatlariga alohida e'tibor qaratgan.

Alisher Navoiy turkiy tillar madaniy merosi va boyligidan o'rinli va mahorat bilan foydalangan. U adabiy tilning leksik me'yorlarini belgilashda hayotning turli sohalariga tegishli bir qancha umumturkiy so'zlarni o'z asarlariga singirdi. Bunday so'zlarning ayrimlarini quyidagi mavzuiy guruhlar bo'yicha havola etish mumkin:

1. Qon-qarindoshlik va yaqinlik tushunchasini anglatuvchi so'zlar: *ota, ona, dada, qiz, opa, singil, ini, uka, aka, bola, o'g'il, qaynota, kelinchak, bobo, tog'a//tag'o, kelin, er, dada, qudo (quda), xotun//xotin, o'rtoq, og'o (og'a), orqadosh, yo'ldosh, o'rtog'//o'rtoq, qardosh* kabi.

2. Inson va hayvon tanasi a'zolarining nomi: *bosh, ko'z, oyoq, yurak, og'iz, barmoq, soch, bag'ir//ko'ks, ilik//qo'l, qad (bo'y), qosh, qon, kiprik* kabi.

3. Geografik joylar va aholi yashash manzillarining nomi: *yurt, qishloq, tog', tengiz (dengiz), ochun, (dunyo, olam), buloq, o'rmon, cho'l, yo'l* kabi.

4. Kishi yoshini ifodalovchi soʻzlar: *yigit, qari//qariya, yosh, bola, goʻdak, chol, erkak, chaqaloq, qizcha* va h.k.

5. Vaqt, zamon tushunchasini ifodalovchi soʻzlar: *tun, kech* (kech, uzoq), *oy* (oy, bir oy), *bultur, kun//gun, ilk* (ilk, dastlabki), *tong, kecha, kechagi, bukun*, (bugun), *erta, indin, chog`//choq* (payt, vaqt), *burun, ilgari, mangu* va boshq.

6. Hayvon, parranda, hasharot va ular gavda qismlarining nomlari – zoologik terminlar: *qoplon, qoʻzi, zuluk, qanot, boyqush, qush, tulki, quyruq*, (dum, dumba), *kiyik, teva* (tuya), *quzg`un, zog`*, *chayon* kabi.

7. Oʻsimlik nomlari – fitonimlar: *chechak* (gul), *terak, og`och* (daraxt), *yaprog`* (yaproq), *bug`doy, tol, tikan, kurmak, boshog, samon* (somon), *qamish* va h.k.

8. Uy-roʻzg`or buyumlarining nomi – maishiy leksika: *bolta, qozon, chirog`* (chiroq), *ip, o`choq, g`alvir* (katta elak), *elak, ko`zgu, ko`rpa, yostiq* va boshq.

9. Oziq-ovqat va ichimlik tushunchalarini anglatuvchi soʻzlar: *et* (goʻsht), *oziq* (oziq-ovqat maʼnosida), *tuz* (taom maʼnosida), *suv, chog`ir* (may, sharob), *bol* (bol, asal), *oshliq* (ovqat maʼnosida), *un, qaymoq, saryog`* (sariyog`) kabi.

10. Tabiat hodisalari va koinot jismlarining nomlari: *yel* (shamol), *bulut, yomg`ur* (yomg`ir), *muz, oy, quyosh, yulduz, borliq* (koinot), *kun* (quyosh), *yoz, yovdu* (yog`du) va boshq.

11. Harbiy terminlar: *yasov* (safga tizilmoq, saf tortmoq), *xanjar, o`q, qilich, o`rdu* (qoʻshin, lashkar), *yoy, qo`shin//qo`shun, qalqon* va h.k.

12. Ijtimoiy-siyosiy terminlar: *xoqon, xon, yo`qsul* (kambag`al), *o`ksuz* (etim), *urush, tutqun//tutqin* (asir), *yov* (dushman), *bandi, kengash, bek, qaravul, tilonchi* (tilamchi, gadoy) kabi.

13. Urug` va xalq nomlarini bildiruvchi so`zlar – etnonimlar: *turk, el, chig`atoy, o`zbek, urug`, o`g`uz, qipchoq, qarluq* va h.k.

14. Mavhum tushunchalarni anglatuvchi so`zlar: *uyat, tubanlik, kimsasizlik, ish, qayg`u, ko`ngil, tilak, sezgu* (sezgi), *o`lum* (o`lim), *uy* (xayol), *chin* (haqiqiy, haqiqiy hol), *ug`urli* (baxtli), *o`gut* (nasihat) kabi.

15. Diniy e`tiqod bilan bog`liq tushunchalar nomi: *tamug`* (do`zax, jahannam), *uchmoh* (jannat), *yozig`* (gunoh, ayb) kabi.

16. Narsa-buyum nomlari: *kiyim, og`u* (zahar), *tayog`* (tayoq), *qop, yoqa, eshik, o`rtuk//o`rtik* (parda), *karpich* (g`isht), *qamchi, beshik, bolta* kabi.

17. Xususiyat-xarakter, xossa, belgi anglatuvchi so`zlar: *uzun, uzoq, tegra* (tevarak, atrof), *qorong`u* (qorong`i), *to`g`ri, yuksak, yirtqich, yovvoyi, sovuq, issig`* (issiq), *quruq, ko`k, qizil, qora, achchig`* (achchiq), *totli* (mazali, lazzatli, shirin), *chuchuk* (shirin), *suchuk, sassiq* va h k.

18. Shaxs tushunchasini bildiruvchi so`zlar: *men//man, san//sen, o`z, biz, ul, alar* (ular), *birav* (birov), *kimsa, barcha, kishi* va boshq.

19. Miqdor, hajm, o`lchovni anglatuvchi so`zlar: *bir, ikki, to`rt, yuz, besh, oz, ko`p, butun, ortiq, og`ir, kichik, cheksiz, ming, yuz, qalin, tuman* va h.k.

Alisher Navoiy asarlari tilidagi ba`zi so`zlar keyingi davrlarda fonetik o`zgarishga uchragan. Bunday so`zlar sirasiga *biyik* (buyuk), *chigirtka* (chugurtka), *ovuch* (hovuch), *yilon* (ilon), *birta* (bitta), *kirpik* (kiprik) va boshqalar. Bunday so`zlar o`qilishida, yozilishida o`zgarishlar sodir bo`lsa-da, faol umumiste`mollik xususiyatini yo`qotmagan.¹

Alisher Navoiy asarlari tilida hozirgi o`zbek adabiy tili uchun eskirgan, iste`moldan chiqqan qadimgi turkiy so`zlar ham ko`p miqdorda uchraydi. Ular

¹ Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1981. –Б. 48.

sirasiga *qopug`* (eshik, darvoza), *chog`ir* (may, sharob, boda), *og`och* (daraxt), *og`u* (zahar), *ug`ur* (baxt, qut), *ug`urli* (baxtli, qutli, davlatli), *osig`* (foйда, manfaat, bahra), *tamug`* (do`zax, jahannam), *uchmoh* (jannat), *yozug`* (gunoh, ayb), *qapug`chi* (eshik og`asi; eshik, darvoza soqchilarining boshlig`i), *asru* (juda ko`p, benihoya, g`oyat, talay), *arig`* (sof, toza, pokiza, musaffo), *bilik* (ilm, aql, ma`rifat, bilim), *o`ksuz* (etim), *puchmoq* (burchak, kunj, go`sha), *qamuq* (barcha, hamma, jami), *yog`lig`* (ro`mol, ro`molcha), *ayog* (qadah, kosa, piyola), *qo`noq* (mehmon), *to`nak* (qamoqxona, zindon), *oshliq* (bug`doy, egulik), *ilik* (qo`l), *o`rtuk* (parda, to`siq), *oshliq* (ovqat; bug`doy), *ochun* (dunyo, olam), *daqi* (yana, tag`in), *usruk* (mast, sarxush), *ev* (uy), *qapu* (eshik, darvoza) kabilarni aytib o`tish mumkin.

Aytilganidek, Alisher Navoiy asarlari tilida ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid so`zlar juda ko`p miqdorda uchraydi. Masalan, uning badiiy asarlari tilida muzika san`ati sohasiga oid quyidagi leksik birliklar ishlatilgan:

1. Muzika asboblarining nomi: *ko`raga* (surnay), *ko`s* (katta nog`ora, podsho qasrida chalinadigan katta nog`ora), *qonun* (bir turli muzika asbobi), *arg`anun* (bir turli cholg`u asbobi; organ), *barbat* (o`rdak shaklida yasalgan qadimgi cholg`u asbobi), *yorod* (bir turli cholg`u asbobi), *yotug`on* (bir turli cholg`u asbobi), *musiqor* (bir xil cholg`u asbobi), *nay*, *sur* (karnay), *naqqora* (nog`ora), *soz* (muzika quroli, cholg`u), *tanbur*, *tanbura* (tanburning kichik bir turi), *chang* (bosh tomoni egik cholg`u asbobi) va boshq.

2. Kuy nomlari: *arg`ushtak* (musiqiy bir usul, o`yin), *bam* (musiqada yuqori to`liq sado; *bas* — zerning zidi), *dovudi* (muzikada bir kuyning nomi), *egdi g`izol* (muzikada asosiy kuylardan biri), *nag`ma* (ohang, kuy, maqom), *rost* (muzika kuylaridan biri), *safir* (nay ovozi), *maqom*, *naqsh* (kuy, ashula), *tajnis* (muzikada eng og`ir va murakkab kuylardan biri), *talolo* (ashula, ohang, kuy), *tarona* (ashula, ohang, maqom), *chorgoh* (o`zbek mumtoz shashmaqom kuylaridan

birining nomi), *chorzarb* (o'zbek musiqiy kuyining nomi), *pahlaviy lahn* (pahlaviy kuyi) va h.k.

3. Muzika san'ati bilan shug'ullanuvchilar nomi: *yotug'onchi* (bir turli cholg'u asbobi yotug'onni choluvchi, muzikachi), *nag'mazan* (kuylovchi, xonanda, sozanda), *nag'makash* (soz chaluvchi, cholg'uchi), *nag'mapardoz* (kuylovchi, xonanda, sozanda), *nag'masaroy* (ashula aytuvchi, cholg'uchi), *san'atkor*, *romishiy* (kuylovchi, cholg'uchi), *sozanda* (cholg'uvchi), *ko'szan* (nog'ora chaluvchi), *mug'anniy* (ashulachi, sozanda, cholg'uchi), *navogo'* (ashulachi, kuychi), *navozanda* (navo qiluvchi, kuylovchi), *navosoz* (kuylovchi, ashula aytuvchi, cholg'u chaluvchi), *tarannumgar* (cholg'uchi, sozanda, kuylovchi, ashulachi), *xunyogar* (sozanda, ashulachi), *xushnavo* (xushovoz, yaxshi kuylovchi), *xushnavoz* (yaxshi cholg'uchi, usta sozanda), *chargar* (cholg'uchi, ashulachi) va boshq.

Ma'lumki, umumturkiy *ko'k* so'zi omonim bo'lib, u quyidagi ma'nolarni bildiradi: *ko'k* I osmon, ko'k rang; *ko'k* II 1. Tovushlar mosligi, ohang, soz. 2. Muzikada ohang, kuy. Alisher Navoiy *ko'k* so'zini muzikada *ohang*, *kuy* ma'nolarida ham qo'llaydi: *Lojuvarddin ranga ko'rmagan ko'kin tuzmak va ul ko'kta range ko'rguzmak*. Qadimgi turkiy *ko'raga* so'zi ham omonim bo'lib, u *may idishi*, *kigiz* ma'nolaridan tashqari *surnay* ma'nosini ham ifodalaydi. Alisher Navoiy *ko'raga* so'zini *surnay* ma'nosida ham qo'llaydi.

Alisher Navoiy adabiy tilni leksik jihatdan me'yorlashtirishda hayotning turli sohalariga tegishli bir qancha forsiy va arabiy so'zlarni ham o'z asarlariga singdirdi. Uning asarlari tilidagi forsiy o'zlashma qatlamga mansub so'zlarning ko'pchiligi hozirgi o'zbek adabiy tilida faol qo'llaniladi. Bunday so'zlar sirasiga *gul*, *do'st*, *rost*, *umid*, *osmon*, *hafta*, *bodom*, *bozor*, *gado*, *gilam*, *daraxt*, *dasht*, *dev* kabi tub; *badbaxt*, *gulzor*, *oshpaz*, *dasturxon*, *xontaxta*, *shahzoda* *butxona*, *kabutarxona* kabi yasama so'zlarni aytish mumkin.

Alisher Navoiyning barcha asarlarida turg'un va seriste'mol so'zlar qatorida o'sha davrdan buyon o'zbek tiliga singib ketgan bir qator arabcha so'zlarni ham kiritish mumkin. Bunday so'zlar sirasiga *avval, avlod, mard, maosh, aziz, asar, vaqt, zavq, ism, kasal, maktab, qalam, shoir, nafas, mantiq, ma'raka* (jang maydoni), *maskan, matn* kabilar kiradi. Ushbu umumiste'molda qo'llanadigan so'zlarning ba'zilari keyingi davrlarda mazmunan kengaygan. Masalan, shoir asarlarida *ma'raka* so'zi *jang maydoni* ma'nosida qo'llangan bo'lsa, bu so'zni keyingi davrlarda *to'y, yig'in* ma'nosida qo'llanilishi ortgan. Yoki *mard* so'zi *inson, odam* ma'nosida qo'llanishi bilan birga Navoiy asarlari va keyingi davr manbalarida ushbu arabcha so'zning *kishi, erkak odam, jasur, botir, haqiqiy inson* kabi ma'nolarida kelishi kuzatiladi. "*Shayx Abdulloh oning uyida zanu mard xuttabudirlar; Bu xayl ichra bor erdi rahnavardi musofir shevai ozoda mardi*" kabi¹.

Shoir asarlari tilida mazkur tillarga tegishli so'zlarning miqdori juda ko'p. Bu jihat uning asarlari tili va uslubini ancha murakkablashtirgan, ayrim o'rinlarda ifoda etilgan fikrlarni tushunarsiz holga olib kelgan. Mumtoz janr tizimida va poeziyaning arabcha vazn o'lchovlaridan foydalanish Navoiyga poetik erkinlik bergan. Bundan tashqari o'sha davr talabiga ko'ra poetik asarlar ko'tarinki, dabdabali uslub bilan yozilishi kerak edi. Badiiy an'ana ta'siri natijasida poetik uslub xalq tilidan qisman bo'lsa-da, uzilib qolganligi taassurotini beradi. Shuning uchun Navoiy poetik mavzu sohasida eski an'anadan chetga chiqqan bo'lsa-da, til va uslub masalalarida mumtoz an'ana chegarasidan chetga chiqa olmadi. Alisher Navoiy o'zining poetik asarlarida, jumladan, «Chor devon», «Xamsa» asarlarida o'zbek tilini fors-tojik adabiy tili kabi ishlashga va unga dabdabali tus berishga harakat qildi. Bularning hammasi arab va fors tillarining elementlariga keng yo'l ochib berdi².

¹ Хамидов З. Навоий асарлари тили лексикаси (умумистеъмолда бўлган фаол сўзлар хусусида). // Тилшуносликнинг долзарб масалалари: илмий мақолалар тўплами. III. –Т.: 2006. -Б. 87.

² Аширбоев С., Раҳматов М. Ўзбек адабий тили тарихи. –Т.: ТДПУ, 2003. -Б. 87

Alisher Navoiy o'z asarlari tilida fors va arab tiliga oid so'zlarning ko'p miqdorda qo'llashiga sabablaridan bir sifatida shuni aytish mumkinki, adib aruz vazni talabiga ko'ra bu ishni qilgan. Abdurauf Fitrat "She'r va shoirliq" maqolasida (1919) keltirishicha, aruz vazni o'zbek adabiyoti va tili rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Uning qat'iy ta'kidiga ko'ra, nazarda tutilgan vazn tufayli o'zbek adabiy tili bilan xalq jonli so'zlashuv tili o'rtasida katta farq yuzaga kelgan, obrazli tarzda aytganda, ulkan jarlik hosil bo'lgan¹.

Ma'lumki, aruz vazni, asosan arab tili tabiatiga mos ravishda yaratilgan bo'lib, undagi xususiyatlarni shu vazn orqali to'liq ifodalash imkoniyati mavjud. Turkiy, chunonchi, o'zbek tiliga kelganda, bu fikrni aytib bo'lmaydi. Chunki o'zbek tilining fonetik qurilishi arab tilinikidan tubdan farq qiladi. Shu bois aruz vaznida ijod etgan turkiygo'y shoirlar, Fitratning keltirishicha, "ikki turli ishga majburdirlar". Birinchisi, aruz, xususan, "mafo'iyun" vaznini faqat turkiy (o'zbekcha) so'zlar bilan to'ldirib bo'lmaydi. Vaznni tugal qilish uchun shoir arabiy va forsiy so'zlarni me'yordan ortiq qo'llashga majbur bo'ladi. Bu degani, adabiy til o'zbek tili hisobidan emas, balki boshqa tillar – arab va fors tilidagi so'zlar bilan boyiydi.

Abdurauf Fitrat 1926-yilda yozgan «Adabiyot qoidalari» qo'llanmasida Alisher Navoiyning ijodiy merosi ayrim masalalar tahlili jarayonida yoritilgan². Fitrat har bir shoir o'z uslubiga ega ekanligini ta'kidlar ekan, Alisher Navoiyning ham o'ziga xos badiiy uslubi borligini, uning «she'rda fors uslubig'a berilib qolg'an»ligini aytadi. U uslubda aniqlik bo'lishi xususida fikr bildirib, Alisher Navoiyning bir maktubidan parcha keltiradi: «*Duoyikim, shito qalbida shito qalbidin dilso'zroq, va niyoziykim qish aynida qish aynidin dilpuzroq bo'lg'ay*». Fitrat mazkur jumlada aniqlik, ochiqlik yo'qligini quyidagicha izohlaydi: «Parchada birinchi *shito qalbi* «qish o'rtasi» demakdir.

¹ Фитрат. Шеър ва шоирлик // Танланган асарлар. IV жилд. -Т.:Маънавият, 2006. -Б. 5-11.

² Фитрат. Адабиёт қоидалари // Танланган асарлар. IV жилд. -Т.: Маънавият, 2006. -Б.11-88.

Ikkinchi *shito qalbi* esa «shito» soʻzining teskarisi boʻlgʻan «otash» demakdir. Birinchi *qish ayni* «qishning yuzi», ikkinchi *qish ayni* «quyosh» demakdir. Demak, bu parchada soʻflik boʻlmagʻani kabi ochiqlik-da yoʻqdir».

Alisher Navoiy asarlari uslubning koʻtarinkiligi, oʻta murakkabligi bilan undan avval oʻtgan yoki unga zamondosh shoirlar asarlari uslubidan alohida ajralib turadi. Adib oʻz asarlarini oʻta badiiy koʻtarinki uslubda yaratdi, unda arabiy, forsiy soʻzlardan keng foydalandi. Bu bilan u eski oʻzbek adabiy tili tarixida oʻziga xos bir uslubga asos soldi.

Adib oʻz asarlari bilan oʻzbek adabiy tilini grammatik jihatdan meʼyorlarlashtirishga, uni bir tizimga solishga harakat qildi va bu borada samarali ishlarni amalga oshirdi. Shoirning mazkur yoʻnalishdagi ishlaridan ayrimlari quyidagilardan iborat:

1. Tushum kelishigi shaklining qaratqich kelishigi oʻrnida kelishi Alisher Navoiydan avval va undan keyin ijod etgan shoirlar ijodida kuzatiladi. Masalan: *Atayini koʻzi toymas* (Atoiy); *Taqi qalgʻan viloyatini barchasini algʻay* (Abulgʻozi Bahodirxon, Shajarai turk). Alisher Navoiy asarlarida esa tushum kelishigi bilan qaratqich kelishigi affikslari oʻz oʻrnida qoʻllangan.

2. Chiqish kelishigi faqat — *din//d̄in//tin//t̄in* variantlarda qoʻllandi Maʼlumki, Navoiygacha bu kelishik — *dun//d̄ün//tun//t̄ün*, *-dan//d̄än//tan//t̄än* kabi variantli affikslarga ham ega edi. Solishtiring: Mahmud Qoshgʻariyda *suvdan*, *sezdän*; «Oʻgʻuznoma»da *kop toqushgudun soj, anuj közi kaktün käre serdi* va h.k¹.

3. Oʻrin-payt kelishigi bilan joʻnalish kelishigi affikslari oʻz oʻrnida qoʻllangan. Maʼlumki, Navoiydan avval va keyin ijod etgan, unga zamondosh boʻlgan shoirlar asarlari tilida oʻrin-payt kelishigi oʻrnida joʻnalish kelishigi koʻrsatkichi qoʻllangan oʻrinlari ham boʻlgan. Masalan: *Sizlär anda tegmishtä men*

¹Аширбоев С., Раҳматов М. Ўзбек адабий тили тарихи. –Т.: ТДПУ, 2003. -Б. 83

Lotni körsäm erda (Rabg`uziy, Qisasi Rabg`uziy); *Chun Samarqand eshikida keldi* (Muhammad Solih, Shayboniynoma).

Alisher Navoiy o'z asarlari bilan jahon badiiiy tafakkuri rifojiga munosib hissa qo'shishi, o'zbek adabiyoti va tilini yuksak darajaga olib chiqishi barobarida eski o'zbek adabiy tilini leksik va grammatik jihatdan me'yorlashtirdi. Uning bu boradagi xizmatlari tahsinga loyiqdir. E'tiborli jihati shundaki, adibdan keyin o'zbek tilida ijod etgan deyarli barcha shoir va yozuvchilar uning asarlari tilini o'z asarlari tili uchun asosiy me'yor sifatida qabul qildilar.

Savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiyning turkiy tillar madaniy merosiga munosabati qanday tarzda bo'lganligini izohlang?
2. Alisher Navoiy asarlari tili qanday lug`aviy tarkibga ega?
3. Shoir asarlarida qaysi forsiy va arabiy o'zlashma so'zlar qo'llangan?
4. Forsiy va arabiy o'zlashma so'zlarning shoir badiiy uslubiga ta'siri qanday tarzda bo'lgan?
4. Alisher Navoiy asarlarining tili va uslubi xususida so'zlab bering.
5. Adibning o'zbek adabiy tilini leksik-grammatik jihatdan me'yorlashtirish borasidagi xizmatlari nimalardan iborat?

“MUHOKAMATUL-LUG`ATAYN” ASARINING O'ZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Eʻtibor qaratiladigan masalalar:

1. “Muhokamatul-lugʻatayn” asarining qoʻlyozma nusxalari va nashrlari.
2. Alisher Navoiyning til(lar)ning kelib chiqishi, uning ijtimoiy mohiyati xususidagi qarashlari.
3. “Muhokamatul-lugʻatayn” asarida til va tafakkur, til va nutq hamda mazmun va shakl masalalari.
4. Alisher Navoiy tilshunoslikning leksik uslubiyat va komparativistika sohalari asoschisidir.
5. “Muhokamatul-lugʻatayn” asarining ilmiy-tarixiy ahamiyati.

Ulugʻ alloma Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-adabiy faoliyatida til masalasi muhim oʻrin tutadi. U deyarli barcha asarlarida turkiy (oʻzbek) tilga oid qarashlarini ifoda etdi, ona tilini rivojlantirish, uning butun boyligi va goʻzalligini toʻla namoyon etish, qoʻllanish doirasini kengaytirish uchun kurashdi, oʻz xalqini ona tilida yozilgan gʻoyaviy-badiiy yuksak asarlar bilan bahramand etish uchun harakat qildi, oʻzbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeini koʻtarish xususidagi gʻoyalari hamda fikr-mulohazalarini bir umr muntazam targʻib etdi. Hayotining oxirlarida esa oʻzining bu sohadagi butun faoliyatini umumlashtirdi va ilmiy-tarixiy jihatdan katta qiymatga ega boʻlgan «Muhokamatul-lugʻatayn» («Ikki til muhokamasi») asarini yozdi. Asar 1499-yilning dekabrda yozib tugatilgan. Uning maydonga kelishi dunyo tilshunosligida juda muhim hodisadir.

“Muhokamatul-lugʻatayn” asarining toʻrt qoʻlyozma nusxasi maʼlum:

1. Birinchi nusxasi Istanbuldagi Toʻpqopi saroyi muzeyi Revan kutubxonasida saqlanadi. Ushbu qoʻlyozma 1497- yili koʻchirilgan.

2. Ikkinchi nusxasi Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining Fotih bo'limida saqlanadi.

3. Uchinchi nusxasi Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Qo'lyozma 1526-1527-yillarda ko'chirilgan.

4. To'rtinchi nusxasi Budapeshtda saqlanmoqda.

“Muhokamatu-l-lug`atayn” asari birinchi marta 1841-yili Parijda M.Katremer tomonidan nashr etildi. 1882-yili Bog`chasaroyda Ismoilbek Gaspirali, 1895-yili Istanbulda Ahmad Javdat nashr ettirdi. Asar 1917-yili Qo'qonda toshbosma usulda chop etilgan. Toshkentda Porso Shamsiev asarni uch qayta bostirdi: 1940-yili O.Usmon bilan birgalikda lotin alifbosida kirish so'z, matn va hozirgi o'zbekcha talqinini berdi. Ushbu nashrga asarning parijski nusxasi asos qilib olingan edi. Yana 1948- va 1967-yillarda yakka o'zi kirill xatida nashr ettirdi¹. Asar Anqara, Ashgabad, Urumchida ham chop etilgan. 1996-yili asar Anqarada Turk tili qurumi tomonidan yangidan chop ettirildi².

Ma'lumki, Alisher Navoiy umri oxirigacha o'zbek xalqi uchun badiiy-g'oyaviy jihatdan yuksak asarlar yozishga, uning adabiy tilini jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashtirishga, o'zbek tilining barcha imkoniyatlarini to'laligicha namoyon etishga, boy xazinasidan unumli va samarali foydalanishga, ona tilini ayrim forsiygo'ylar tanasidan butunlay xolos etishga harakat qildi. Buni «Muhokamat-ul lug`atayn» asarini o'qigan frantsuz olimi M.Bellin 1861-yilda yozgan “Mir Alisher Navoiy bibliografiyasi va ijodi” nomli kitobida alohida ta'kidlaydi: “Alisher Navoiy o'z milliy tilining afzaliyatlarini inkor etib

¹ Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. Танланган асарлар. III томлик (нашрга Порсо Шамсиев тайёрлаган). – Т.: Фан, 1948. –III том. –Б. 171-212.

²Содиқов Қ. Тарихий лексикография / Ўқув қўлланма. –Т.: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2012. –Б. 56.

bo'lmaydigan dalillar bilan isbot etganligi — o'z xalqi orasida vatanparvarlikni boshlab berganligidan dalolatdir”¹.

Alisher Navoiydan oldin va u yashagan davrda o'zbek adabiyoti, o'zbek adabiy tilining rivojlanishiga Xorazmiy, Gadoiy, Yaqiniy, Amiriy, Atoiy, Sakkokiy va ayniqsa, Lutfiylar o'z asarlari bilan katta hissa qo'shdilar. Shunga qaramay, o'zbek adabiyotida hali badiiy-g'oyaviy jihatdan yuksak asarlar juda kam, o'zbek adabiy tilida jonli so'zlashuv tilining boy imkoniyatlari hali to'laligicha namoyon bo'lgan emas, uning boy xazinasini shoirlar nazaridan yashirin qolib kelmoqda edi. Bu davrlarda fors-tojik adabiy tili va adabiyoti esa ko'p asrlik katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan, uning lug'at boyligi, xilma-xil badiiy tasvir vositalari, uslub rang-barangligi va imkoniyatlari buyuk so'z san'atkorlari tomonidan mukammal ishlanib, sayqal topgan edi. Fors-tojik adabiyoti haqida, uning xususiyatlari haqida bir qator kitoblar, tazkiralalar yaratilgandi. Shoirlar nazdida bu tilda she'rlar bitish, asarlar yozish bir muncha osonroq va yengilroq ko'rinar edi. Shu sababli ko'pgina o'zbek shoirlari o'z asarlarini ona tilida emas, balki fors-tojik tilida yozar edilar. Buni Alisher Navoiy quyidagicha ifoda qiladi: «*Va hunariz turkning sitam zarif yigitlari osonlikka bo'la forsiy alfoz bila nazm ayturg'a mashg'ul bo'lubturlar*».

Alisher Navoiy ona tilini forsiygo'ylar tanasidan butunlay xolos etish uchun ona tilini tahqirlagan, uni mensimagan shoirlarga qarshi keskin kurash olib bordi. U ilm-fanda arab tili va badiiy adabiyotda fors-tojik tili an'alarini keskin rad etdi, ona tilining boyligini, badiiy-uslubiy vositalari va imkoniyatlarini namoyish etdi, deyarli barcha badiiy-ilmiy asarlarini ona tilida yaratdi.

Alisher Navoiyning lisoniy qarashlarida tilning kelib chiqishi, uning ijtimoiy mohiyati, til va tafakkur, mazmun va shakl kabi masalalar muhim o'rin

¹ Қодиров П. Тил ва эл. —Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. —Б. 3.

tutadi. Adib tafakkur va til bir-biri bilan uzviy bog`liq ekanligini alohida ta`kidlaydi. Uning fikricha, so`z qimmatbaho toshdir, inson ko`ngli esa daryodir, so`zlovchi esa g`avvos — ko`ngil daryosidan dur teruvchidir. U bu xususda yozadi: «... *so`z durredurkim, aning daryosi ko`nguldur va ko`ngul mazharedurkim, jomii maoniyi juzv va kuldur. Andoqki, dar`yodin gavhar g`avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javharig`a ko`ra zohir bo`lur*».

Alisher Navoiy asarida turkiylar tafakkur va til borasida forsiylardan qolishmasligini takror-takror ta`kidlaydi. Bu xususda uning quyidagi fikrini keltirish o`rinlidir: «*turkning ulug`din kichigiga degincha va navkardin begiga degincha sort tilidin bahramanddurlar. Andoqkim, o`z xurd ahvolig`a ko`ra ayta olurlar, balki ba`zi fasohat va balog`at bila ham takallum qilurlar. Hatto turk shuarosikim, forsiy til bila rangin ash`or va shirin guftor zohir qilurlar, ammo sort ulusining arzolidin ashrofig`acha va omisidin donishmandig`acha hech qaysi turk tili bila takallum qila olmaslar va takallum qilg`onning ma`nisin ham bilmaslar*».

Ayonki, tilning voqelanishi tafakkur orqali bo`ladi. Tafakkursiz til rivojlanmaydi yoki aksincha, tilsiz tafakkur taraqqiy etmaydi. Lekin ular bir narsa emas, boshqa-boshqa narsa ham emas. Til bilan tafakkurni bir narsa deyish qanchalik xato bo`lsa, ularni boshqa-boshqa narsa deyish ham shunchalik xatodir. Ularni bitta qog`oz varag`ining ikki tomoni sifatida tushunish lozim. Navoiy fikrlaridan ana shu narsa anglashiladi.

Alisher Navoiy mazkur asarida tilning ijtimoiy xususiyatini ko`rsatib beradi, uning madaniyat va ma`rifatning rivojiga xizmat qilishini alohida ta`kidlaydi. Uning fikricha, til doim rivojlanib boradi, turli tillar bir-biriga ta`sir ko`rsatadi va shu yo`l bilan muntazam boyib boradi. Adib o`zbek tilini himoya qilishga, uni har xil ta`na-kamsitishlardan qutqarishga, o`zbek tilining lug`at

boyliigi turli badiiy asarlar yaratish imkoniyatiga ega ekanligini isbotlashga harakat qiladi.

Asar turkiy (o'zbek) tilning ijtimoiy hayotdagi mavqeini ko'tarish, uning bir necha asrlardan beri turkiy xalqlarning ta'lim va adabiyot sohalarida yetakchi maqomda bo'lib kelgan forsiy tildan aslo qolishmasligini, undan so'z borasida boyroq va yangi so'z yasash imkoniyatlari kengroq ekanligini dalillash, turkiy tilli shoirlarni o'z ona tili, ya'ni turkiy (o'zbek) tilda ijod qilishga undash maqsadida yozilgan. Navoiyning aytmoqchi bo'lgani, ayrim turkiy tilli shoirlarning ona tilida emas, ko'prak forsiyda ijod qilishni ma'qul ko'rganligining sababi, turkiyning boy va cheksiz imkoniyatlarini bilmagani, undan foydalana olmasliklaridir.¹

Asarning ilmiy-tarixiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Alisher Navoiy asarida falsafadagi imkoniyat va voqelik, umumiylik va xususiylik dialektikasidan kelib chiqib, tilshunoslikda til va nutq birliklarini ma'lum darajada farqlashga, ularning o'zaro munosabatini belgilashga harakat qilgan. U so'z, ya'ni til birligi so'zlovchi tomonidan turli xil jilvalantirilishi, ya'ni nutq birligi sifatida reallashtirilishi mumkinligini alohida qayd etadi. Alloma mazkur masalani g'avvos va gavhar misolida tushuntirishga harakat qiladi. U ko'ngilni daryoga, so'zni esa gavharga o'xshatadi. Ayonki, daryo (ko'ngil) tubida son-sanoqsiz, katta-kichik gavharlar (so'zlar) sochilib yotadi. Gavhar (so'z) daryo (ko'ngil) tubidan g'avvos (nutq sohibi, so'zlovchi) vositasi bilan olib chiqiladi. Olib chiqilgan gavharning qiymati toshiga qarab, katta-kichikligiga ko'ra belgilanadi. Shunga o'xshash so'zning qiymati, ta'sir kuchi, qanday ma'no ifodalashi ham nutq sohibiga bevosita bog'liqdir. So'zlovchi aqlli, zukko tafakkur sohibi bo'lsa, so'zning ta'sir kuchi ham yuqori darajada bo'ladi yoki aksincha. Alloma so'zga alohida baho berib, so'z shunday

¹ Содиков Қ. Тарихий лексикография / Ўқув қўлланма. –Т.: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2012. –Б. 39.

gavhardirki, martabasini aniqlashda inson ojizdir, martabasi — yomon soʻzning halok qiluvchanligidan tortib, yaxshi soʻz bilan Insoning moʻʻjiza koʻrsatishiga qadar boradi, yaʼni oʻlgan odamni tiriltiradi, deydi. Daryo ostidagi durlar gʻavvos yordamida harakatga keltirilsa, koʻngil tubidagi soʻzlar esa soʻzlovchi tomonidan nutqiy jarayonda oʻz jilvasini topadi. Shu kunga qadar til va nutqni bir-biridan farqlash dastlab mashhur nemis olimi Vilgelm Gumboldtdan boshlangan va u shveysariyalik olim Ferdinand De Sossyur lingvistik taʼlimotining asosini tashkil qiladi, deb hisoblab kelindi. Lekin Alisher Navoiy asarlariga eʼtibor berilsa, bu olim V.Gumboldt va F.De Sossyurlardan ancha oldin til va nutq hodisalarini bir-biridan farqlaganining guvohi boʻlamiz.¹

2. Alisher Navoiy mazkur asarida falsafadagi shakl va mazmun oʻzaro uzviy bogʻliqligini, ayni paytda mazmun shaklga nisbatan birlamchi ekanligini qayd etadi. U shu falsafiy fikrdan kelib chiqib, til va tafakkurning oʻzaro chambarchas bogʻliqligini, til fikrni (maʼnoni) ifodalovchi qudratli vosita ekanligini Gʻarb olimlaridan ancha oldin aniqlaydi. Ayonki, tilning voqelanishi tafakkur orqali boʻladi. Qomusiy olim bu xususda yozadi: «... *soʻz durredurkim, aning daryosi koʻnguldur va koʻngul mazharedurkim, jomii maoniyi juzv va kuldur. Andoqki, darʼyodin gavhar gʻavvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javharigʻa koʻra zohir boʻlur*» [ML,173].

Alisher Navoiy ushbu asarida turkiy va eroniy xalqlarni na faqat til, balki tafakkur nuqtai nazardan ham qiyoslaydi. U eroniy xalqlar (Navoiy ularni «sortlar» deb ataydi)ga quydagicha taʼrif beradi: «*Sort turkdin taaqqul va ilmda daqiqroq va kamol va fazl fikratida amiyqroq zuhur qilibdur va bu hol turklarning sidq va safo va tuz niyatidin va sortlarning ilm va funun va hikmatidin zohir durur*» [ML,176]. Turkiy xalqlarga esa quyidagicha baho beradi: «*Turk sortdin tez fahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokroq maxluq boʻlubtur*»[ML,177]. Anglashiladiki, Alisher Navoiy turkiylarni

¹ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи / Ўқув қўлланма. –Т.: Ўзбекистон, 2002. –Б. 79-80.

tez fahmli, zukko, idroki baland, tafakkuri yuqori darajada taraqqiy etgan xalq sifatida baholayapti. Demak, tafakkuri rivojlangan xalqning tili ham boy, go'zal, taraqqiy etgan bo'ladi. Shunga ko'ra turkiy (o'zbek) til so'zga boy, nafis va rivojlangan tildir.

3. Alisher Navoiy tilshunoslikning leksik uslubiyat (leksik stilistika) sohasi rivojiga ham munosib hissa qo'shdi, ilmiy-amaliy stilistikani asoslab berdi. Bunga dalil sifatida Alisher Navoiy asarida *yig'lamoq* fe'lining *yig'lamsinmoq*, *ingramak*, *singramak*, *siqtamoq*, *o'kurmak*, *hoy-hoy yig'lamoq*, *inchkirmak* kabi yettita sinonimi borligini qayd qilishini va bu sinonimlarning har birining ma'nolarini va mazkur ma'nolar orasidagi uslubiy farqlar va nozikliklarni ko'rsatib o'tganligini aytish mumkin. Alloma ma'lum ma'noni turli shakllarda ifodalash mumkinligini, nutqda bu shakllardan foydalanishda so'zlovchining turli imkoniyatlari borligini, nutqning qay darajada amalga oshishi esa so'zlovchining maqsadi, mahorati va dunyoqarashiga bog'liq ekanligini alohida qayd etadi.

4. Alisher Navoiy dunyo tilshunosligida yangi ilmiy yo'nalish – komprativistika (qiyosiy tilshunoslik)ga asos soldi. Uning tadqiq yo'llari, tahlil usullari, metodologik asosini ishlab chiqdi. U turli oilaga kiruvchi ikki til – turkiy va forsiy tillarning leksik, fonetik va morfologik xususiyatlarini o'zaro qiyoslab, tipologiyaning leksik-semantik, fonologik, morfologik aspektlarini ishlab chiqdi. Asar boshdan-oxir tipologiyaga, tillarni chog'ishtirish yo'rig'iga, metod va usullariga tayanadi.¹ Afsuski, tilshunoslik tarixida chog'ishtirma tilshunoslikning paydo bo'lishi G'arb tilshunoslarining nomi bilan bog'lanadi va bu tilshunoslik yo'nalishining boshlanishi XIX asrdan deb belgilanadi. Bu

¹ Содиков Қ. Тарихий лексикография / Ўқув қўлланма. –Т.: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2012. –Б. 39.

fikrlar G`arb olimlarining Alisher Navoiy asarlaridan bexabarligidan paydo bo`lgan.¹

5. Alisher Navoiy tovush (fonema) va harfning o`zaro munosabati xususidagi ilmiy qarashlarni o`zining yangi fikrlari bilan takomillashtirdi. U tovush (fonema) va harf bir-biriga doimo ham mos kelavermasligi, bir harf bir necha tovush (fonema)ni ifodalashi mumkinligini, masalan, *yoy* harfi to`rt tovush (fonema)ni, *vov* harfi ham to`rt tovush (fonema)ni ifodalashini aytib o`tadi. Anglashiladiki, Navoiy asarida garchi fonema terminini qo`llamagan bo`lsa-da, tovush tipi (fonema)ni aniq ko`rsatib o`tgan va fonema tushunchasini misollar bilan keng izohlagan. U so`z tarkibida bir xil fonetik vaziyatda kelgan tovushni boshqasiga almashtirib, ma`no farqlash belgisiga qarab fonologik vazifa bajarishi yoki bajarmasligini aniqlaydi. Bunday usul asrimiz boshlarida Praga lingvistik maktabida va Amerika deskriptiv tilshunosligida qo`llanildi hamda distributsiya nomi bilan yuritildi.²

6. Alisher Navoiy asarida so`z yasovchi vosita va yasalmalar xususida ayrim ma`lumotlar keltirilganki, ular tarixiy morfologiya uchun ahamiyatlidir. Masalan, u *-chi* yasovchi vositasining imkoniyati kengligi, asos qismga qo`shilib, bu qismning ma`nosi bilan bog`liq turli shaxs otlarini hosil qilishini aytib o`tadi va quyidagi misollar bilan fikrini dalillaydi: *qo`ruqchi*, *tamg`achi*, *jibachi*, *yo`rg`achi*, *kemachi*, *qo`ychi*, *turnachi*, *kiyikchi*, *tovushqonchi* va boshqalar.

7. Alisher Navoiyning bu asari o`zbek va fors-tojik tillarini, ularning lug`at tarkibini taqqoslashga bag`ishlangan ilk filologik asar ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Asarda keltirilishicha, fors-tojik tillari turkiy (o`zbek) tilga, xususan, uning lug`at tarkibiga eng ta`sir ko`rsatgan tillardan biridir. Ayni paytda bu tillarga turkiy (o`zbek) tillardan juda ko`plab (*qatlama*, *qurut*,

¹ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи / Ўқув қўлланма. –Т.: Ўзбекистон, 2002. –Б. 86.

² О`sha asar, 87-bet.

bulamog` kabi) so'zlar ham o'zlashgan. Alloma fikricha, dunyodagi tillar bir-biriga ta'sir ko'rsatishi sabab rivojlanib boradi.

8. «Muhokamatul-lug`atayn» asarining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, o'zbek tili tarixida o'zbek tilini rasmiy va adabiy til maqomiga erishishini o'ylab yozilgan bu kabi asar XX asr boshlariga qadar yaratilgan emas. Ushbu risola, mubolag`asiz aytish mumkinki, davlat hujjatlarini turkiy (o'zbek) tilda yuritishga da'vat etgan va uni badiiy ijod olamiga keng joriy etishni targ`ib qilgan ilk asarlardan biridir.

Alisher Navoiyning buyuk xizmati shundaki, u o'zbek tili tarixida ilk bor til va tafakkur, til va nutq, shakl va mazmun masalasini qisman bo'lsa ham tahlil etdi, ularning o'zaro munosabatiga aniqlik kiritdi. Alloma o'zbek tili bilan fors-tojik tilini qiyosiy o'rganishda, o'zbek tilining lug`at boyligini ko'rsatishda, turkiy va forsiy xalqlarning tafakkuri darajasini baholashda xolisona fikrlarni bayon qildi: birining ahamiyatini oshirib, ikkinchisini kamsitmadi. Balki har ikkala xalq va tilga barobar munosabatda bo'ldi, til hodisalarini aniq, chuqur tahlil qilish asosida o'zbek tilining ham fors-tojik tili singari boy va go'zalligini, unda yuksak badiiy asarlar yaratish imkoniyatlari keng ekanligini namoyish qildi.

Turkiy (o'zbek) tilning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va adabiy hayotdagi obro' hamda mavqegini ko'tarishga bag`ishlangan mazkur tadqiqot na faqat o'zbek, balki butun jahon fani tarixida muhim ahamiyatga ega. Navoiyning bu va boshqa asarlarida o'zbek adabiy tilining umumxalq me'yorlari ishlab chiqildi va qat'iylashtirildi. Bu me'yorlar uning zamondosh va keyingi davr ijodkorlari tomonidan to'la ma'qullanib, davom ettirildi va rivojlantirildi. Uning barcha ilmiy-badiiy asarlari o'zbek adabiy tilining keyingi taraqqiyoti uchun muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Savol va topshiriqlar:

1. Navoiy asarlarining tili va uslubi, ularning davr adabiy muhitiga ta'siri to'g'risida so'zlab bering?
2. "Muhokamatul-lug`atayn" asari dunyo va o'zbek tilshunosligi taraqqiyotida qanday ahamiyatga ega?
3. "Muhokamatul-lug`atayn" asarida til va tafakkur, til va nutq masalasi qanday yoritilgan?
4. "Muhokamatul-lug`atayin" asarida ma'nodosh va shakldosh so'zlar xususida qanday fikrlar ilgari surilgan?
5. "Muhokamatul-lug`atayn" asarining ilmiy-tarixiy ahamiyati haqida so'zlab bering?

ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

- Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. -Т.: Ўқитувчи, 1982. -166 б.
- Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1973. – 316 б.
- Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O`zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Т.: O`qituvchi, 2008. -167 б.
- Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. –Т.: Ўзбекистон, 1994. -178 б.
- Ashirboev S., Azimov I., Rahmatov M., G`oziev A. Eski o`zbek tili va yozuvi praktikumi. – Т.: Ijod, 2006.
- Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. -Т.: Фан, 2007. -147 б.
- Мухторов А., Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1995. -158 б.
- Rahmonov N., Sodiqov Q. O`zbek tili tarixi. -Т.: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati , 2009. -158 б.
- Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т.: Ўқитувчи, 1995. -182 б.

Qo`shimcha adabiyotlar

- Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. –Тошкент: Фан, 1984. -160 б.
- Абдурахмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. –Т.: 1999. -98 б.
- Абдушукуров А. «Қисаси Рабғузий» лексикаси. –Т.: Академия, 2008. -191 б.

- Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркской письменности VIII века. Атма-Ата, 1971.
- Аширбоев С., Раҳматов М. Ўзбек адабий тили тарихи. –Т.: ТДПУ, 2003.
- Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. –Т.: 1992. -167 б.
- Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. -Тошкент: Фан, 1983. -157 б.
- Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Т.: Фан, 1985. -198 б.
- Dadaboyev N. Tarixiy harbiy terminlar. - Т.: Universitet, 2008.
- Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. -Т.: Зарқалам, 2006. -319 б.
- Исҳоқов Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. –Т.: Ўқитувчи, 1995. 136 б.
- Маҳмудов Қ. Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибатул ҳақойиқ» асари ҳақида (кириш, фонетика, морфология, матн, транскрипция, шарҳ, луғат). –Т.: Фан, 1972.
- Муталлибов С. XI асрнинг улуғ тилшунос олими Маҳмуд Кошғарий / Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том.- Тошкент: Фан, 1960.
- Муниров Қ. Саккокий. // Саккокий. Танланган асарлар. –Т.: Бадиий адабиёт, 1958. –Б. 3-6.
- Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 2002. - 232 б.
- Навоий. Мажолисун-нафоис. Танланган асарлар. (Нашрга Ойбек ва Порсо Шамсиевлар тайёрлаган). III том. –Т.: Фан, 1948. –Б. 7-168.
- Останакулов И. Қисаси Рабғузий – адабий асар: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. –Т.: 1993. -26 б.
- Рустамова С. Маҳмуд Кошғарий луғатининг лексикографик хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 1999. -26 б.

- Sanaqulov U. O`zbek adabiy tilining ilk davrlari (o`quv qo`llanma). –T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. -167 б.
- Содиков Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.
- Содиков Қ. Тарихий лексикография / Ўқув қўлланма. –Т.: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2012. -357 б.
- Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиёт босқичлари. –Т.: Ўқитувчи, 1996. -158 б.
- Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан материаллар. –Т.: Фан, 1981. -320 б.
- Фозилов Э. Шарқнинг машҳур филологлари. – Тошкент: Фан, 1971.
- Худойбердиев Ж. Маҳмуд Кошғарий ҳаёти ва “Девону луғотит турк” асарининг ўрганилиши. - Тошкент, 2010.
- Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Т.: Шарқ, 2001. –462 б.
- Ўзбек тили лексикологияси. –Т.: Фан, 1981.
- Ўзбекистон тарихи / Дарслик. –Т.: Янги аср авлоди, 2003.
- Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик. –Т.: ЎзМЭ, 2005-2008.
- Қаюмов К. Илк бадиий дoston. – Тошкент: Фан, 1976.
- Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. (Б.Тўхлиев нашрга тайёрлаган) . – Т.: Юлдузча, 1990. -187 б.
- Қодиров П. Тил ва эл. –Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. -294 б.
- Ҳамидов З. Навоий асарлари тили лексикаси (умумистеъмолда бўлган фаол сўзлар хусусида). // Тилшуносликнинг долзарб масалалари: илмий мақолалар тўплами. III. –Т.: 2006. -Б. 86-89.

- Ҳасанов Ҳ. Маҳмуд Кошғарий (хаёти ва географик мероси). – Тошкент: Фан, 1963. -78 б.
- Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари. -Т.: 1999. -87 б.
- XIII-XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили. –Т.: Фан, 1986. – 286 б.

Электрон манбалар

- www.literature.uz.
- <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.
- <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>.
- <http://www.utpa.edu/faculty/mglazer/Theory/structuralism.htm>.
- http://www.eng.fju.edu.tw/Literary_Criticism/structuralism.
- www.catuzmu.
- www.natl.uz.

MUNDARIJA

1. Kirish. O‘zbek adabiy tili va turkiy adabiy tillar	18
2. O‘zbek adabiy tilining shakllanishida boshqa tizimdagi tillarning o‘rni	28
3. O‘zbek adabiy tilining qadimgi turkiy davri	41
4. Eski turkiy adabiy til davri	50
5. Yusuf Xos Hojib. «Qutadg‘u bilig» asari, uning tili va uslubi	54
6. Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu lug‘otit turk” asarining ilmiy-tarixiy ahamiyati	63
7. Ahmad Yugnakiy. “Hibatul-haqoyiq” asarining tili va uslubi	78
8. “Attuhfa” asarida so‘zlarning izohlanish tamoyillari	87
9. «O‘g‘uznoma» asari va uning tili	97
10. Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy. “Qisasi Rabg‘uziy” asari va uning til xususiyatlari	105
11. Xorazmiy. «Muhabbatnoma» asarining tili	113
12. Sayfi Saroyi. «Gulistoni bit-turkiy» asarining tili	121
13. Eski o‘zbek adabiy tili manbalari va ularning til xususiyatlari	133
14. Atoiyning o‘zbek adabiy tili taraqqiyotidagi o‘rni	137
15. Sakkokiyning o‘zbek adabiy tili tarixidagi o‘rni	143
16. Lutfiy va o‘zbek adabiy tili	152
17. Alisher Navoiy asarlari tilida leksik va grammatik me‘yorlar	159

18. “Muhokamatul-lug`atayn” asarining o`zbek adabiy tili taraqqiyotida tutgan o`rni 168

ОГЛАВЛЕНИЕ

1. Введение. Узбекский литературный язык и тюркский литературный язык	18
2. Роль других систем в формировании узбекского литературного языка.....	28
3. Древнетюркский период узбекского литературного языка	41
4. Эпоха старотюркский литературный язык	50
5. Юсуф Хас Хаджиб. Язык и стиль поэмы «Кутадгу билиг»	54
6. Махмуд Кашгари. Научно-историческое значение книги «Дивану лугатит турк»	63
7. Ахмад Югнаки. Язык и стиль книги «Хибатул-хакаик»	78
8. Принципы толкования слов в «Аттухфе»	87
9. Поэмы “Огузнаме” и ее язык	97
10. Насируддин Бурхануддин Рабгузи. Книга «Кисас-и Рабгузи» и ее языковые особенности	105
11. Хоразми. Язык книги “Мухаббатнаме”	113
12. Сейфи Сараи. Язык и стиль книги «Гулистони бит-туркий»	121
13. Староузбекские литературные источники и их языковые особенности.....	133
14. Роль Атаи в развитии узбекского литературного языка.....	137
15. Роль Саккоки в истории узбекского литературного языка	143

16. Лутфи и узбекский литературный язык	152
17. Лексические и грамматические нормы в языке произведений Алишера Навои	159
18. Роль “Мухокаматул-лугатайн»а в развитии узбекского литературного языка	168

TABLE OF CONTENTS

1. Introduction. Uzbek Literary Language and Turkish Literary Language.....	18
2. The role of other systems in the formation of the Uzbek literary language	28
3. Ancient Turkic period of Uzbek literary language	41
4. The era of the old Turkic literary language.....	50
5. Yusuf Khos Khojib. The poem “Qutadgu bilig”, its language and style	54
6. Mahmud Kashghari. Scientific and historical significance of the book “Devoni lugotit turk”	63
7. Akhmad Yugnakiy. Language and style of the work “Hibatul haqoyiq”.....	78
8. Principles of Interpretation of Words in “Attuhfa”	87
9. “Uguznoma” and its language	97
10. Nosiruddin Burhanonuddin Rabguzi. The book “Qisasi Rabguziy” and its language features	105
11. Khorazmiy. Language of the work “Muhabbatnoma”	113
12 Sayfi Saroyi. Language of the work “Gulistoni bit-turkiy”	121
13. Ancient Uzbek Literary Sources and Their Language Features	133
14. Atoiy's role in the development of the Uzbek literary language	137
15. Sakkokiy's role in the history of Uzbek literary language	143
16. Lutfiy and Uzbek literary language	152

17. Lexical and grammatical norms in the language of Alisher Navoiy's works.....	159
18. The Role of “Muhokamatul-lugatayn” in the Development of Uzbek Literary Language	168

Yoqub SAIDOV

**O'ZBEK ADABIY
TILI TARIXI**

Муҳаррир: *Ғ.Муқодов*
Техник муҳаррир: *Ғ.Самиева*
Мусахҳиҳ: *А.Қаландаров*
Саҳифаловчи: *М.Ортиқова*

Нашриёт лицензияси АИ № 178. 08.12.2010. Оригинал – макетдан босишга рухсат этилди: 25.05.2021. Бичими 60x84. Кегли 16 шпонли. «Times New Roman» гарн. Офсет босма усулида босилди. Офсет босма қоғози. Босма тобоғи 10,5. Адади 300. Буюртма №188.

Бухоро вилоят Матбуот ва ахборот бошқармаси
“Durdona” нашриёти: Бухоро шаҳри М.Иқбол кўчаси 11-уй.
Баҳоси келишилган нарҳда.

“Sadriiddin Salim Buxoriy” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Бухоро шаҳри М.Иқбол кўчаси 11-уй. Тел.: 0(365) 221-26-45
